

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**



*Qo'lyozma huquqida*

**UDK: 297  
SH-26**

**Sharipov Azamat Shamilevich**

**TURKIYA IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDA  
ISLOM OMILI (XX ASR 80-90-yillar)**

**5A120302 – Tarix(mamlakatlar va yo`nalishlar bo`yicha)**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar: t.f.d. Shadmanova S. B

Toshkent-2013

Magistratura bo`limi boshlig`i:

f.f.n. Saidazimova U. T.

## **Turkiya ijtimoiy-siyosiy hayotida islom omili (XX asr 80–90–yillar)**

### **Mundarija:**

|                                                                                                      |            |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>Kirish.....</b>                                                                                   | <b>3</b>   |
| <b>I bob. Turkiya siyosiy tizimida islom omili.....</b>                                              | <b>11</b>  |
| 1.1. 1980–yilgi harbiylar davlat to`ntarishi, hokimiyatni fuqarolik boshqaruviga topshirilishi ..... | 11         |
| 1.2. Diniy tariqatlar va islomiy oqimlar faoliyati .....                                             | 17         |
| 1.3. Islomiy siyosiy partiyalar va tashkilotlarning faoliyati, ularning siyosatga ta`siri .....      | 32         |
| I bob bo'yicha xulosa.....                                                                           |            |
| <b>II bob. Turkiya ijtimoiy tizimida islom omili.....</b>                                            | <b>52</b>  |
| 2.1. Ijtimoiy–siyosiy islohotlar va uning diniy hayotga ta`siri.....                                 | 52         |
| 2.2. Islomiy demokratiya, ijtimoiy islohotlar va ayollar masalasi.....                               | 72         |
| II bob bo'yicha xulosa.....                                                                          |            |
| <b>III bob. Turkiya madaniy va ma`rifiy hayotida dinning o`rni va roli.....</b>                      | <b>84</b>  |
| 3.1. Turkiya ta`lim tizimi va unda diniy ta`limning o`rni.....                                       | 84         |
| 3.2. Ommaviy axborot vositalari faoliyati va madaniy hayotda dinning aks etishi.....                 | 88         |
| III bob bo'yicha xulosa.....                                                                         |            |
| <b>Xulosa.....</b>                                                                                   | <b>95</b>  |
| <b>Ilovalar.....</b>                                                                                 | <b>102</b> |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>                                                                | <b>104</b> |

## Kirish

**Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.** Insoniyat tamaddunining va kishilik jamiyatining barcha kulminatsion voqealari XX asrda yuz bergan desak adashmaymiz. Bu davrda inson omili–gumanistik g'oyalar yuqori darajaga ko'tarilgan bir davr bo'ldi. Barcha islohotlar inson uchun degan tushunchalar keng tarqala boshladi. Bu masalalarni hal etish yo'lida turli mafkuraviy oqimlar va diniy e'tiqodlar, konsepsiyalar o'rta qatlamga chiqdi. Ana shu jihatlari va daqiq joylarini tahlil qilish uchun tarixiy jarayonlarni o'rganib chiqish maqsadga muvofiq ishdur.

Tarix ilmi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotning tahlilchisi sifatida jamiyat taraqqiyotining muhim hodisalarini ibrat tarozusida o'lchaydi. Shu sabab tarixga nazar tashlab xulosa chiqarish va ibrat olish katta foydali va hayrli ish ekanligini dono ajdodlarimiz alohida ta'kidlaganlar.

O'tmishni tadqiq etishni va o'zbek xalqining asl tarixini qaytadan yaratish muhim deb hisoblagan hukumatimiz prezident boshchiligida 1998-yil 26-iyunda bir guruh tarixchi olimlar va ziyolilar bilan o'tkazgan uchrashuvidan keyin tarixni o'rganishda yangi sahifalar ochildi<sup>1</sup>. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, “hech bir xalq o'tmishini bilmay turib, o'zining zamon va makondagi o'rnini aniq belgilab olmasdan, nasl-nasabini, kimligini bilmay turib keyingi kelajak rejalarini barpo etishi mumkin emasligini aytib, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” –deb ta'kidlagan edilar<sup>2</sup>.”

Ma'lumki, o'tmishda o'zbek xalqi turkiy qavmlar bilan bir safda turib o'z davlatchiligini qurgan. Mazkur xalqlar bilan bir necha marotaba o'zbek xalqi yagona bir davlat ostida jam bo'lib hayot kechirishgan va shu asnoda turk millati bilan o'zbek xalqi o'rtasida bir-biriga bog'liqlik va chambarchas rishtalar bilan uzviylik mavjudligi haqida so'zlaydigan bo'lsak mubolag'a bo'lmaydi. Shu sabab, qardosh Turkiya Respublikasi bilan yaxshi hamkorlik munosabatlarini saqlab, ular bilan o'zaro manfaatli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy aloqalarni

---

<sup>1</sup> Xalq so'zi // Tarix–o'tmish ko'zgusi va kelajak yo'l boshchisi / №5. Sharq. 1996.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 11.

rivojlantirish uchun bu ikki davlat tarixi va unda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'laqonli o'rganib tahlil qilish, hamda undan to'g'ri yechimlar chiqarish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavjud globallashuv sharoitida jahon mamlakatlarida ijtimoiy-siyosiy harakatlar faoliyati, ayniqsa diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm avj olgan bir paytda turli mamlakatlardagi jarayonlarga diniy tus berilishi kuchayib bormoqda. Shu qismatni boshida o'tkazgan Turkiya Respublikai ijtimoiy-siyosiy hayotida ham din omili muhim o'rin tutadi. Ayni jihatlarini o'rganish va sabab va oqibatlarini yuzaga chiqarish – muammolarga yechim topishda asqotadi. Kishilik jamiyatida mafkura chegara bilmasligini inobatga olgan holda, kerakli xulosa chiqarganlar va rivojlanishning samarali yo'lini tanlaganlar taraqqiyot sari ketayotgan xalqning, millatning an'ana va qadriyatlarini, o'zligini hamda ibratli o'tmishini asrab qoladi. Hususan, shu qatorda yuqoridagi omillar sabab davlatning yaxlitligi va millat, elat birligini saqlash ham butun dunyoda muammo sifatida ko'rilmogda.

Dunyoda kishilik jamiyat ongini isloh qilish yoki fikrlar ustidan ommaviy manipulyatsiya<sup>3</sup> qilishni nazarda tutgan mafkuralar, falsafiy konsepsiyalar, ijtimoiy oqimlar va turli diniy aqidalar kurash maydoniga chiqqan. Lekin ularning hammasi ham ko'zlangan maqsadga erishishmagan. Qolganlari ma'lum bir guruh vakillarini manfaatini o'ylab ommani soxta va'dalar, balandparvoz chaqiriqlar bilan o'zining ishonchsizligini ko'rsatib qo'ydi. Diniy e'tiqod esa ming yillar mavjudligi bilan insonlar ongida va qalbida o'rtnashib qolganki, uning o'rnini hech bir mafkura va nazariya egallay olmaydi. Dinning davlat ishlariga aralashish hollari nafaqat islom mamlakatlarida, balki xristian dunyosida ham uchratishimiz mumkin. Xristian diniga nisbatan islom aqidasida diniylik va dunyoviylik bir narsa hisoblanadi. Davlat boshqaruvida albatta shariat va islom ahkomlariga rioya qilinishi kerak degan aqida islom dinida inkor etib bo'lmas haqiqat hisoblanadi. Mana shu narsa esa, bugungi kunda

---

<sup>3</sup> Manipulyatsiya- (yunoncha, qo'l bilan yoki masofaviy boshqaruv) siyosiy termin sifatida "makiavallizm" termini o'rniga 60-yillarda muomalaga kirgan. G'oyaviy manipulyatsiya SSSR, Xitoy, Shimoliy Koreya davlatlariga keng qo'llanilgan. <http://www.wikipedia.org>.

barcha dunyoviy davlatlar uchun muammoli masaladir. XX asrning oxirgi dekadalarida Turkiyada mamlakat hayotini uch sohasida jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Birinchidan, jamiyat dunyoqarashini o'zgarishi, ikkinchidan, "sovuq urush" tugagach xalqaro munosabatlarda Turkiya egallab turgan pozitsiyasini o'zgarishi, uchinchidan, ichki siyosatda islom omilini o'sishini alohida olib ko'rsatish mumkin. Shu asosda tadqiqotning xronolik davri XX asrning 80-90-yillarlarini o'z ichiga oladi. Bu davrda aynan islomiy shiorlar bilan ilk diniy partiyalarni yuzaga kelishi va diniy omilning kuchayishi bilan bog'liq.

**Magistrlik dissertatsiyasi ishining tadqiqot obyekti va predmeti.** Ushbu dissertatsiya ishida Turkiya ijtimoiy-siyosiy hayotiga din omilini qay darajada o'rnatishganligi, diniy va dunyoviylik prinsiplari o'rtasidagi ziddiyatlarlar, fuqarolar orasida dinning mavqeyi, mamlakat siyosat olamida va hokimiyat organlarida dinning roli tadqiqotimizning obyekti. Shu qatorda ,Turkiya ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'sir etuvchi barcha diniy omillar, hususan:

- siyosiy partiyalarga diniy unsurlarini kirib borishi;
- mamlakat aholisini o'rta qatlamida diniy munosabat shakllari;
- diniy ta'lim; diniy siyosiy kuchlarni hokimiyatga intilishida diniy sekta va tariqatlar va diniy oqim, tariqat liderlarining o'rni;
- laitsizm<sup>4</sup>dan uzoqlashgan hukumatning ba'zi a'zolari;
- diniy tariqatlarning homiyligiga tayangan siyosatchilar tadqiqot ishining predmetidir.

**Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari.** Dissertatsiya ishidan ko'zlangan maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- terminologiyada paydo bo'lgan "siyosiy islom"<sup>5</sup> atamasiga tadqiqot asnosida izoh berish;
- Turkiya Respublikaida XX asr 80-90-yillarda ijtimoiy-siyosiy tizimida islom omilini ta'sirini aniq faktlar asosida yoritib berish;

<sup>4</sup> Laitsizm- (yunoncha – xalqchil va dunyoviy) diniy aqidalar va ta'limotlar jamiyat hayotidan ajratilishi. Turkiyada 1924-yilda Otaturkning inqilobiy dasturida laitsizm qaror topgan.

<sup>5</sup> Киреев, Н.Г. К оценке религиозной ситуации в Турции в 90-е годы // Ислам и политика (взаимодействие ислама и политики в странах Ближнего и Среднего Востока, на Кавказе и в Центральной Азии). – Москва: 2001. – 165.c; Aras, B., Caha, O. Fethullah Gulen and His Liberal «Turkish Islam» Movement // MERIA. 2000. Vol. 4, – No. 4, December. – 231.p.

- islomiy oqimlar va tashkilotlar faoliyatini o`rganib tahlil qilish, siyosiy hokimiyatga islom dinining ta`sirini kuchayishi, islomiy islohotlarga urinishlar, harbiylarning islomiy hukumatga munosabatini ochib berish;

- islom dinini qay holda siyosat quroli qilib olinishi masalalarini yoritish;

- ijtimoiy ahvol, diniy ta`limning o`rni, an`anaviy islom jamiyatida ayollar holatini tahlil qilish.

Ustuvor maqsad Turkiyada ijtimoiy va siyosiy hayotining barcha nuqtalarida din omiliga baho berish va holisona tahlil qilish; ilmiy ishning bo`lajak o`quvchiga iloji boricha ushbu tadqiqot borasida umumiy tushuncha va tasavvurni shakllantirish – tadqiqotchining bosh maqsadidir.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Turkiya XX asr 80–90–yillarda ijtimoiy–siyosiy hayotida islom omili muhim rol o`ynagan. Hukumat tarkibiga ham islomiy unsurlar kirib borgan. Diniy tariqatlar va harakatlar siyosatga kirib kela boshlaganligini belgilash mumkin:

- islom diniy an`analarni jamiyat va siyosatdan ajratib bo`lmaslik omilini kuchli bo`lgan;

- mamlakat siyosatida so`l oqimdagi partiyalar (millatchilar va islomiy oqimlar)ni 1980-yilgi harbiy to`ntarishdan so`ng yana hokimiyatga intilishganlar;

- Turkiyadagi islomiy tariqat va oqimlarga xorijiy ekstremistik terrorchi tashkilotlarning ta`siri va homiyligi bo`lgan;

- turkiyzabon respublikalarning mustaqillikka erishganligi tufayli Turkiyada panturkizm va islomiy oqimlar faollashgan;

- Turkiyada islomiy kapitalni kirib kelishi bilan diniy tariqatlar va oqimlar o`z pozitsiyalarini mustahkamlab olgan;

- siyosiy arboblarning diniy tariqat va oqimlar yetakchilaridan o`z manfaatlari yo`lida foydalanishlari va homiyligiga erishishga intilishlarini kuchliligi;

- 1995-yilda Turkiya tarixida ilk bor islomiy partiya hokimiyatga keldi<sup>6</sup>;

- harbiylar dunyoviy davlat tamoyillarini kafolati sifatida namoyon bo`lishgan.

---

<sup>6</sup> [http://www.wikipedia.org/Political\\_Islam\\_in\\_Power:\\_The\\_Welfare Interlude/mht](http://www.wikipedia.org/Political_Islam_in_Power:_The_Welfare_Interlude/mht).

**Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** 80–90–yillar Turkiya tarixida tub burilish yasagan davr hisoblanadi. Shu sabab bu davr tarixchilar va politologlar tomonidan keng va atroflicha o`rganilgan. O`zbekistonda bu mavzu A. M Qosimov, M. Abdurazzakova va boshqa sharqshunos olimlar tomonidan o`rganilgan. Ilmiy ishda siyosiy-ijtimoiy taraflarini ochib berishda V. I Danilov, N.G Kireev va N.G Kondakchyan, Elia Karmonlarning monografiyalaridan foydalanildi. M. Abdurazzakovaning "Politika laitsizma v Turtsii: istoriya i sovremennost"<sup>7</sup> nomli risolasida Turkiyadagi islomiy Refah partiyasi va parlamentar siyosat borasida tahliliy tadqiqotlari keltiriladi. A. M Qosimovning 80–yillarda chop etilgan "Turkiya" risolasida Turkiya haqida umumiy ma`lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, muholifat partiyalarning rasmiy nashrlari bo`lgan "Zaman"<sup>8</sup>, "Jumhuriyet"<sup>9</sup>, "Dunya", "Vatan"<sup>10</sup>, "Radikal"<sup>11</sup>, "Turkish weekly"<sup>12</sup> gazetalaridagi materiallardan foydalanildi.

S.B Drujilovskiyning "Turetskaya Respublika v 80–90–godi"<sup>13</sup> nomli ilmiy ishida ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy jarayonlar yoritilgan. Shu qatorda Turkiyada islomiy partiya hukumatda bo`lgan davrini yoritishda S.B. Drujilovskiy<sup>14</sup>, S.M.Aliyev<sup>15</sup>, H.Gulalp<sup>16</sup>, R. Margulies va R. Yildizoglu<sup>17</sup>, M.H. Yavuz<sup>18</sup>, Y.I. Urazova<sup>19</sup>, larning maqolalari va monografiyalaridan foydalanildi.

<sup>7</sup> М. Абдураззакова. Политика лаицизма в Турции: история и современность. – Тошкент: 2007. – 154.с.

<sup>8</sup> [http://www.zaman.com/zaman\\_newspapers/htm](http://www.zaman.com/zaman_newspapers/htm)

<sup>9</sup> Cumhuriyet // Report of a parliamentary commission /–№33. 2 February. 2000.

<sup>10</sup> Vatan // Turkiye`ye daha buyuk kotuluk yapılamazdı. January 20, 2007.

<sup>11</sup> Radikal // 20 milyon mark hangi siyasi partiye gitti? November 4, 2006.

<sup>12</sup> Turkish Weekly // Turkish Hezbollah (Hizbullah) / Kurdish Hezbollah, – №14. 2003.

<sup>13</sup> Дружиловский С. Б. Турецкая Республика в 80–90 годы. Наука, – Москва: 1998. – 410.с.

<sup>14</sup> Дружиловский, С.Б. О теории и практике исламского правления в странах Среднего Востока (Иран, Афганистан, Турция) // Ислам и политика (взаимодействие ислама и политики в странах Ближнего и Среднего Востока, на Кавказе и в Центральной Азии). – Москва: Институт востоковедения РАН, Крафт+, 2001. – 425.с.; Дружиловский, С.Б. Исламская модель развития // Мусульманские страны у границ СНГ (Афганистан, Пакистан, Иран и Турция – современное состояние, история и перспективы). – Москва: Институт востоковедения РАН, издательство Крафт+, 2002. – 114.с.

<sup>15</sup> Алиев, С. М. Современное исламское возрождение и его особенности (на примере Афганистана, Ирана и Турции) // Ислам и политика. – Москва, 2001. – 374.с.

<sup>16</sup> Gulalp, H. Political Islam in Turkey: The Rise and Fall of the Welfare Party // Muslim World, Vol.89, – No.1, January 1999. – 250.p; Gulalp, H. The Poverty of Democracy in Turkey: The Refah Party Episode // New Perspectives on Turkey. 1999. No. 21, Fall. – 193.p.

<sup>17</sup> Margulies, R., Yildizoglu, E. The Resurgence of Islam and the Welfare Party in Turkey // Political Islam: Essays from Middle East Report. Univ. of California Press, 1996.– 153 p;

<sup>18</sup> Yavuz, M. H. Political Islam and the Welfare (Refah) Party in Turkey // Comparative Politics, Vol.30, –No.1, October 1997. – 156.p.

<sup>19</sup> Уразова, Е. И. К оценке роли исламских идей и капиталов в турецкой экономике // Ближний Восток и современность. Выпуск 9. – Москва, 2000. – 141.с; Уразова, Е. И. Экономические взгляды и практика

**Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.** Tadqiqotning tarixiylik, tadrijiylik, haqqoniylik va ilmiylik prinsiplariga asoslandi. Ilmiy ishimizning yozilishida tadqiqotning tarixni o'rganish zamonaviy uslublaridan imkon darajasida foydalanildi. Hususan Turkiya Ommaviy Axborot Vositalarida berilgan ko'rsatuv va eshittirishlar va matbuot materiallari hamda arxiv fondlarining internet saytlaridagi qimmatli ma'lumotlardan keng, unumli foydalanildi. Turkiyada 80-90-yillardagi ijtimoiy-siyosiy hayotida islom omili qiyosiy va taqqoslash yo'li bilan tadqiq etildi.

Tizimli yondashuv bilan siyosiy islon harakatini turli tashkiliy shakllarda jamiyat siyosiy birligiga taalluqlini tahlil qilish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Istiqlol davrida hayotimizga kirib kelgan demokratik tamoyillar, oshkoralik, yangicha dunyoqarash handa yangicha fikrlash, milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning ma'ruzalari va asarlarida ilgari surilgan milliy mafkura g'oyasi, mustaqillik mafkurasi, halol holislik, haqqoniylik, ilmiylik va tanqidiylik tamoyillari asosida dissertatsiya ishiga yondashish mazkur tadqiqotning uslubiy asoslarini tashkil etadi.

Mazkur dissertatsiya ishining nazariy ahamiyati shundan iboratki, hozirgi kunda mafkuraviy va diniy kurashlar avj olgan bir paytda bir chetdan turib kuzatuvchi sifatida Turkiya Respublikaida XX asrning 80-90-yillarda ijtimoiy-siyosiy tizimida islom omilini holis va haqqoniy baho berish, muammolarni anglamagan shaxslarga mavzu borasida keng tushuncha bergan holda barchaga ishning mohiyatini ayon etishdir. Zero, qimmatli ma'lumotlarni jam qilgan holda o'quvchini masala borasida maksimal ilmni yetkaza olish mukammallikni yuzaga olib keladi. Keyinchalik dissertatsiya ishi bakalavriat va magistratura talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida foyda berishi mumkin. Bizning ilmiy ishimiz din omilini jamiyatlar uchun qanday ta'sir etishi haqida erkin mulohaza va munozara qilishingiz uchun omil bo'lsa, boshqa tarafdin mustaqil fikrlovchi

ilm talab yoshlar bu boradagi bilimlarini shakllantirishda muhim bir vosita bo`lib xizmat qiladi.

80-yillarda amalga oshirilgan islohotlar va siyosiy voqealar natijalari haqida tahliliy fikrlar keltirildi. Shuningdek, islom omilini siyosat olamida yetakchi o`ringa chiqishiga oid fikr va tanqidiy qarashlar berildi. Fikrlar xilma-xilligini ta`minlash uchun dissertatsiya ishiga rus, turk, ingliz tilidagi manbalardan foydalanildi. Har bir manbadagi ma`lumotlar va fikrlar mafkuraviy o`tkazildi. Noholis va fanatik qarashlarga ega ma`lumotlarda ilmiylik bo`lmaganligi sababli foydalanilmadi. Milliy istiqlol g`oyasi tamoyillariga muvofiq, dissertatsiya ishida holisona va obyektiv munosabat ko`rsatildi. Ma`lum bir diniy harakat yoki, ularning aqidalarini ijobiy qilib ko`rsatish harakatlardan holi tarzda tadqiqot ishi yoritildi.

**Dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi.** Ilmiy ishda turk matbuotida tadqiqotimizga oid intervyu va maqolalardan foydalanildi. Ilmiy ishda ilk bora turk ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan ilmiy yangilik sifatida:

- Turkiya televideniyesi ko'rsatuvlari va Turkiya Respublikasida ishlangan kinofilmlar mavzuni yoritishda foydalanildi;
- Turkiya Respublikasi tashkil topganidan keyin dunyoviylashtirish siyosati to'liq amalga oshirilgan bo'lsada, baribir islom omili mamlakat ichki va tashqi siyosatida o`z o`rni borligini ko`rsatdi;
- ilk bor uch tomonlama yondashuv (Yevropa, Rossiya, Turkiya siyosatshunoslari qarashlari) bilan ilmiy tahlili;
- Turk, ingliz, rus tillarida chop qilingan tadqiqotlar ilmiy iste`molga olib kirildi va internet sahifalariga joylashtirilgan maqolalardan foydalanildi;
- o`zbek va turk millatlari o`rtasidagi uzoq tarixiy etnik birlikda islomning o`rni va roli obyektiv, holisona va ilmiy tahlil etishga harakat qilindi;
- O'zbekiston va Turkiya Respublikalaridagi islom omili qiyosiy tahlil qilindi va o`xshash taraflari ochib berildi;
- O`zbekiston va Turkiya Respublikalari o`rtasidagi diniy tashkilotlarning farqlari ochib berildi;

– O`zbekiston va Turkiya hukumatlarini diniy tashkilot va oqimlarga nisbatan olib borayotgan siyosati ilk bor solishtirildi va xulosalar chiqarildi.

Turkiyada islom omilini salbiy va ijobiy taraflariga tahliliy yondashildi. Mustaqil milliy mafkura nuqtai-nazaridan Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy tizimga obyektiv baho berildi.

**Dissertatsiyasi ishining qisqacha tavsifi.** Mazkur dissertatsiya ishi kirish, uch bob, to`qqiz bo`lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Ishning so`nggi ilova qismida Turkiya ijtimoiy-siyosiy, diniy tizimiga oid jadvallar va rasmlar keltirildi.

*Dastlabki I bobda*, Turkiya Respublikasining 1980-yillarning boshlaridagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli haqida to`xtalib o`tilgan. Bunda ayniqsa, 1980-yil sentyabrda harbiylarning hokimiyatni ag`darishlari va harbiy huntaning hukumatni tarqatib hukumatni idora qilish voqealariga alohida urg`u berildi. Bundan tashqari, o`sha yillarda siyosat sahniga islomiy shiorlar bilan chiqib kelgan partiyalar faoliyati borasida so`z boradi. Shu qatorda kurdlar masalasi borasida ham fikrlar keltirildi.

*Ikkinchi bobda*, Turkiya hukumati olib borgan islohotlarni diniy hayotga ta`siri va ular keltirib chiqargan oqibatlar haqida ma`lumotlar mavjud. Shuningdek, islom va demokratiya bir-biriga mos kelish yo, mos kelmasligi, shariat ahkomlarini jamiyat tartibotiga kiritish yo, kiritmaslik o`rtasidagi munozaralari, islomiy jamiyatda ayollar masalasi kabilar ushbu bob paragraflariga kiritilgan.

*Uchinchi bobda*, Turkiya Respublikasida ta`lim va unda diniy ta`limning o`rni, ommaviy axborot vositalari tizimiga islom dinini kirib borishi haqida so`z ketadi.

Ilmiy ish so`nggida xulosa va dissertatsiyaga oid jadvallar keltirildi.

## **I–bob. XX asr 80–90–yillarda Turkiya siyosiy tizimda islom omili**

### **1.1. 1980–yilgi harbiylar davlat to`ntarishi, hokimiyatni fuqarolik boshqaruviga topshirilishi**

Bilamizki, Turkiya musulmon olamida birinchilardan bo`lib, islomiy qadriyatlarni g`arb demokratik prinsiplari bilan bog`lashga harakat qilayotgan ilk davlat hisoblanadi. Turkiyada Otaturk o`z islohotlari bilan mamlakatda dunyoviy prinsiplarga asoslangan zamonaviy yevropacha ko`rinishdagi davlatni qurishni xoxlagan edi. Barcha jabhalarda dunyoviyashtirish jarayonlari boshlanib, maktablar, siyosiy-liberal jamiyatlar va dunyoviy sud–huquq tizimi yaratildi. Lekin islohotlar an`anaviy turk jamiyatini ma`lum bir qismigagina ta`sir etdi va jamiyatning aksari baribir islomiy qadriyatlar ta`sirida qolgan edi<sup>20</sup>. Dunyoviyashtirish jarayonlari paradoksal (umum qoidalarga mos kelmaydigan) natijalarni keltirib chiqardi. Chunki davlat zamonaviylashib dunyoviyashtirishdi, jamiyat esa an`anaviy holda qolaverdi. Yuqoridan dunyoviyashtirish davlatni dixotomiya holatiga olib keldi. Bu dunyoviyashtirish siyosati bilan islomiy institutlar, islomiy ideallar va qadriyatlar yo`qolib ketishini kutilgan edi. Ammo, o`sha davrda kutilgan holat aksi bo`lib chiqdi va biz guvoh bo`lgan bugungi kunlarda yo`q bo`lib ketishi kerak bo`lgan diniy omillar jonlandi va shiddat bilan kuchaymoqda. Tahlilchi Danilov V.I. ning keltirishicha, kamolchilar ikki guruhga: radikal–islohotchilar va tiyiluvchilarga bo`linishgan. Radikal–islohotchilar hokimiyatni egallashib islohotlarni amalga oshirishdi va natijalariga guvoh bo`lib turibmiz. Lekin baribir an`analarda yuzaga kelgan deformatsiyaga jamiyat 90-yillarda Turkiyada "islomiy renessans"i bilan javob qaytardi<sup>21</sup>.

Islomiy guruhlarini hukumatda hokimiyat uchun kurashda ishtirok etishlariga armiya harbiylari jim qarab tura olmadilar va islom omilini siyosatga kirib kelishini biroz ortga surishdi<sup>22</sup>. Lekin Armiya harbiylari bir narsani

<sup>20</sup> Старченков Г. Двести лет вестернизации Турции // Азия и Африка сегодня. 2000. № 6. – С. 26.

<sup>21</sup> Данилов В. И. Религия и политика в мусульманском обществе. Опыт Турции // Ислам и политика. – Москва: 2001.–№15. – С.56.

<sup>22</sup> Алекперов Р. Роль ислама во внутренней и внешней политике Турции после второй мировой войны // [www.Moscow.Lomonosov.University.com./php?](http://www.Moscow.Lomonosov.University.com./php?)

tushinib yetdilarki, Turkiyada dinni jamiyatdan ajratib bo'lmashligini va 60–yil oldin Otaturk dinga nisbatan olib borgan siyosatni utopik ekanligini tan olishdi<sup>23</sup>. Shunday bo'lsada, 1980–yilda Turkiya qurolli kuchlari 12–sentyabr kuni erta tongda hukumatni ag'darishdi. Harbiy hunta davlat boshqaruvini to'la qo'lga oldi. Bosh qo'mondon Kenan Evren Milliy xavfsizlik kengashi yordamida parlamentni tarqatib yubordi. Mamlakatda kommendantlik soati e'lon qilindi. Adolat, Xalq Respublika, Milliy Salomat va MX partiyalarini bosh raislari qamoqqa olindi. To'ntarishdan keyin qonun chiqarish va ijro etish hokimiyatlarini o'z qo'lga olgan Milliy Xavfsizlik Kengashi raisi Kenan Evren prezidenti etib tayinlandi. Hukumatning hokimiyatdan chetlatilishiga rahbarlik qilgan quruqlik qo'shinlari bosh generali Ahmad Kenan Evren mamlakatda faoliyat olib borgan partiyalar laitsizmdan uzoqlashib, davlatchilik asoslariga xavf solganliklari, islom dinini o'z maqsadlarida foydalanishlari oqibatida mamlakatda ijtimoiy–iqtisodiy va siyosiy parokandalik yuzaga kelganligini oqibatida boshqaruv apparatida poraho'rlik va siyosiy fitnalar avj olganligini aytdi. Shuningdek, hukumatdagi partiyalar o'zaro kelishib mamlakatdagi ahvolni o'nglash o'rniga bir-birini aybini qidirib, tortishuvlarga berilib ketishi vaziyatni chigallashtirib yuborishi oqibatida mavjud muammolarni hal etilmay qolib ketaverishligi ta'kidlandi. 1981-yil yanvar oyida chiqish qilgan A.K. Evren diniy ruhoniyatni siyosatga aralashmay aholini diniy ehtiyojini qondirishi kerakligini qat'iy ta'kidladi<sup>24</sup>. A.K. Evrenni 70-yillarda hukumatni ag'dargan general **Jemal Gyursel**ning olib borgan siyosatini o'zginasini takrorlayotgan edi<sup>25</sup>. U ham o'z navbatida mamlakatdagi diniy oqimlar va harakatlarni aholini diniy ehtiyojini ta'min etib, siyosatga aralashmasliklarini talab qilgan.

1980-yil 30-sentyabrda **Turkiya bosh vaziri B. Ulusu** matbuotdagi tezislarda quyidagilar asosiy mezonlar keltirilgan edi:

1) diniy ishlar boshqarmasi va barcha diniy faoliyatlar siyosiy doira va ta'sirdan uzoq bo'lishligi;

<sup>23</sup> Каспарук В. Анкара: можливості ісламської реверанси // Українське слово. 2002. № 46. – С.7.

<sup>24</sup> Kalaycioğlu, Ersin. Elections and Party Preferences in Turkey: Changes and Continuities in the 1990's. – Washington: Comparative Political Studies, C:27, No:3, se.1994. – P.5.

<sup>25</sup> Кондокчян Р. Турция: внутренняя политика и ислам – Ереван: Микоян, 1983. –С.89.

2) Kamolchilikka sodiqlik bilan ta'lim olgan diniy yetakchilarni yetishtirish;

3) vijdon erkinligini zudlik bilan ta'minlash;

4) davlatning dunyoviy hususiyatini saqlab qolishga e'tiborni qaratish zaruriyati.

Sentyabr oyidagi harbiy to'ntarish bilan Turkiyadagi demokratiyani qulashini oldini olishning yo'li sifatida chora edi. Harbiylar mamlakatda siyosiy yoki ijtimoiy va iqtisodiy inqiroz, yoki laitsizmga tahdidlar kuzatilganda o'zining borligini ko'rsatib qo'yishga qodir ekanligini ko'p bora namoyish qilgan. Harbiylar Turkiyaning millat birligini va Otaturk mafkurasini himoyachilari, Respublika butunligini kafolati sifatida ko'rishadi. Turk tarixchisi Ali Karamanogluning fikricha, turk hukumatini tashqi siyosatda islom dinini vosita sifatida qo'llashi pragmatik va deklarativ hususiyatga ega bo'lganligini va shu bilan iqtisodiy va siyosiy sohalarda maksimum foydani olish uchun qilinganligini aytadi. Ichki siyosatda ham harbiylar 1983–yil shunga o'xshash prinsip bilan Milliy Xavfsizlik xizmati islom asoslari bilan qurilgan banklarni ikki arab firmasi **“Al-Barak”** va **”Dar al-Mol al-Islomiy”** ga moliyaviy ishlarni olib borishga ruhsat beradi<sup>26</sup>. Bu ikki firma islom aqidalariga asosan faoliyat olib borsalarda, Turkiya Konstitutsiyasi dunyoviylik prinsiplariga zid edi. Hammaga ma'lumki, islom dinida ribo(foiz) xarom qilingan ya'ni, mehnat qilmay foiz olib daromad qilish qaytarilgan.

Admiral Byulent Ulusu boshchiligida yangi hukumat tuzilgandan keyin, Adolat partiyasida maslahatchi rais bo'lgan, 1980–yil 24–yanvarda iqtisodiy islohot rejalarini tadbqiq qilgan Turg'ut O'zal<sup>27</sup> bosh vazirning birinchi

<sup>26</sup> Аватков В.А. Турецкая демократизация в 90-е – ключ к сегодняшней исламизации Турции // Ближний Восток и современность. – № 45. 2012. – С.1.

<sup>27</sup> Turg'ut O'zal (1927-yil 13-oktyabrda Malatya – 1993-yil 17-aprel Anqara) – Turkiyaning 8-prezidenti. Uning sa'i-harakatlari bilan Turkiyaning iqtisodiy YMM darajasini 1983-yilda Usmoniylar imperiyasining 1908-yilgi darajasiga olib chiqa olgan. 1983-yilda Turkiyaning 45-bosh vaziriga aylanadi. 1989-yil 9-noyabrda rasman Turkiyaning 8-prezidenti etib saylanadi. U iqtisodda Adnan Menderesning siyosatini olib boradi. Turkiya mintaqada yetakchi davlatlar qatroiga kira oladi.  
[http://www.wikipedia.org/Autobiography\\_of\\_Turgut\\_Ozal/index.htm](http://www.wikipedia.org/Autobiography_of_Turgut_Ozal/index.htm)

o`rinbosari bo`ldi<sup>28</sup>. Hukumatdan ag`darilgan Adolat partiyasining so`nggi paytlarda ishlab chiqqan iqtisodiy islohotlari natija bera boshladi.

Yangi konstitutsiyani ishlab chiqish uchun 1981–yil iyun oyida MXK va Maslahat majlisidan iborat yangi Ta`sis majlisini tashkil etilishi haqida qaror qabul qilindi<sup>29</sup>. Maslahat majlisi MXK tomonidan yopib qo`yilgan siyosiy partiyalarning a`zolarini mol–mulklari musodara qilish haqida buyruq berdi.

1982–yil 7–noyabr kuni yangi konstitutsiya xalq muhokamasiga qo`yildi va 91,2% ijobiy natija bilan tasdiqdan o`tdi. Yangi konstitutsiyaga muvofiq, mamlakat prezidenti etib Kenan Evren tayinlandi<sup>30</sup>. Hukumat fuqarolik boshqaruviga topshirilgach, **1983-yil 24-aprelda** "Siyosiy partiyalar" to`g`risida qonun qabul qilindi va partiyalarning tuzilishi va faoliyati muvofiqlashtirilib borildi. **1982-yilgi mamlakat konstitutsiyasida** ommaning siyosiy faolligi qurbon berildi va siyosiy barqarorlikni ta`minlash uchun siyosiy plyuralizm yuzaga keltirildi, turk estabishmentini vakolati kengaytirildi. Bu konstitutsiya oldingilari kabi g`arbcha modelda tuzildi va unda hammaning qonun oldida tengligi, diniy e`tiqodidan qat`iy nazar (10–modda), vijdon erkinligi va din siyosiy vosita bo`la olmasligi (24–modda), biror kishini biror din e`tiqodga majburlash yo`qligi (15–modda) kabi tushunchalar kiritilgan edi<sup>31</sup>.

Islomiy oqimlar faoliyati borasida so`z yuritadigan bo`lsak, 1980–yil harbiylar davlat to`ntarishini uyushtirgach, ular mamlakatda biroz tanaffus qilishlariga to`g`ri kelgan. 1983-yil harbiylar hokimiyatni fuqarolik boshqaruviga topshirishgach, islomiy tashkilotlarda jonlanish bo`ldi. Hususan, Turg`ut O`zal islohotlari shunga yo`l ochib berdi. Mamlakatda keng ijtimoiy–iqtisodiy o`zgarishlar vaqtida Turkiya hududiga islomiy kapitalning kirib kelishi kuzatildi. T.O`zal diniy tashkilot va oqimlar rahnamolari bilan keng aloqalarni yo`lga qo`ydi. U mamlakatning barcha qatlamini ishonchiga kirish yo`lida barcha murosa va choralarni ko`rdi. O`zalning o`zi ham naqshbandiya tariqatini

<sup>28</sup> Kalaycioğlu, Ersin. Elections and Party Prefences in Turkey: Changes and Continuties in the 1990's. Preston: Comperative Political Studies, C:27, No:3, 1994.–P 9.

<sup>29</sup> Hüseyin Batuhan. Laiklik ve Dinî Taassup. – İstanbul: Asya, 1954. –S.51.

<sup>30</sup> Кондокчян Р. Турция: внутренняя политика и ислам – Ереван: Микоян, 1983. –С.55.

<sup>31</sup> <http://www.tbmm.gov.tr/Anayasa.htm> (1982–yilgi Turkiya Konstitutsiyasi.)

xayrixox a`zolaridan biri edi. O`zal mamlakatda kamolizm g`oyalarini susayishi yo`llarini qildi va ateizmga yo`l qo`ymaslikka harakat qildi. U diniy omilni davlatdan ajratish qiyinligi tushunib, din vakillari bilan hamkorlik qilish kerak deb bildi. O`zal diniy harakatlarning rahbarlarini qo`llab-quvvatloviga erishishga harakat qildi. U o`zinining TYP fraksiyasini barqarorligi uchun barcha bilan hamkorlik aloqalarini bog`lashga va iqtisodiy-siyosiy barqarorligi bilan xalqning ishonchiga kirishga intilar edi. Uning 50-yillardagi Demokratik partiya olib borgan liberal islohotlarni davom ettirishi evaziga 1983–87–yillarda oddiy turk fuqarolari moddiy holatlarini yaxshilab oldi.

1983–yilda MXK tomonidan siyosiy partiyalarni tuzilishiga izn bergach, markaz o`ng partiyalar siyosiy oqimida iste`fodagi general Turg`ut Sunalp boshchiligida "12 sentyabr ruhi va falsafasining davomi" deya ta`rifga ega bo`lgan MDP (Millatchi Demokratik partiya) tashkil etildi. Lekin bu partiya saylovlarda yetarli ovoz olmadi va xalq ishonchi doirasida emasligini namoyon etdi.

MXK ikkinchi siyosiy partiyani tuzilishini uncha xushlamasada, 1982–yilda Ulus hukumatidagi T. O`zal buni boshlab berdi. 24–yanvar kuni liberallashtirish va iqtisodiy barqarorlik dasturini davom ettirishi tarafdori sifatida Anavatan partiyasi tashkil etildi. Keyingi tashkil etilgan partiya bu – markaz so`l partiya bo`lmish Xalq partiyasi bo`ldi. Adolat partiyasining davomchisi sifatida chiqqan To`g`ri Yo`l partiyasi va Ismet Ino`nyuning o`g`li Erdal Ino`nyu tarafidan tuzilgan Sotsial Demokratik partiya vujudga keldi. MXK ko`pchilik partiyalarga veto berdi. TYP va SDP mahalliy saylovlarga qo`yilmadi. 1983–yilgi saylovlarda AVP, MDP va XP ishtirok etishdi. Saylovda AVP ga`laba qilib, 45,1% ovoz olib TBMM da raislikni o`z qo`liga oldi. 1983–yil 31–dekabrda AVP partiyasi hukumatni tuzdi va unda bosh vazir etib T. O`zal tayinlandi. T. O`zal bundan keyin ham ikkinchi bor 1987–yilgi saylovlarda g`alaba qilib yana bosh vazir bo`lgan<sup>32</sup>.

---

<sup>32</sup> Kalaycioğlu, Ersin. Elections and Party Preferences in Turkey: Changes and Continuities in the 1990's. Preston: Comparative Political Studies, C:27, No:3, se.P 1994. – P.78.

O`zal bosh vazirligi davrida iqtisodiyotning o`ziga xosligi – uni keskin va ketma–ketlikda amalga oshirilganligida bo`ldi. O`zal "Ulkan transformatsiya" deb nom olgan liberal tadbirlar bilan turk lirasini qiymatini mustahkamlash va mamlakat iqtisodini ko`tarish choralari ko`rdi. Eksport va import uchun keng yo`l ochildi. Erkin valyuta konvertatsiyasi tizimiga o`tildi. Ilgarigi yopiq iqtisodiyot va tizimlangan import o`rnini eksportga ustivorlik beradigan ochiq iqtisodiy siyosat egalladi. Ishlab chiqarish to`la eksportga yo`naltirildi. Tovarlarqa QQS joriy etildi. Davlat mulklari hususiyashtirildi. Bo`shab qolgan valyuta zaxirasi muammosi hal etildi. Turkiyaning Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan yo`lga qo`ygan yaxshi aloqalari tufayli turizm va eksport sohalarida katta daromadlar kela boshladi.

O`zal birinchi bosh vazirlik vaqtida mamlakat siyosiy hayotida o`zgarishlar yuz berib, XP va SDP birlashgan holda Sotsial–Demokratik Xalq partiyasi nomi ostida faoliyat ko`rsata boshlashdi. Faoliyati ta`qiqlangan JXP sobiq raisi B. Edjevit Demokratik so`l partiyani tuzdi. 1986–yil 6–sentyabrdagi referendumlar bilan barcha siyosiy ta`qiqlar olib tashlandi. Shunday qilib, S. Demirel, N. Erboqon, A.Turkesh va B. Edjevit kabi siyosatchilar yana mamlakat siyosiy hayotiga kirib keldilar<sup>33</sup>.

1987–yilgi navbatdan tashqari saylovlarda AVP saylovchilarni 36% ovozini olib yana hukumatni boshqaradigan bo`ldi. Bu saylovlarda SXP – 24,75%, TYP esa 19,15% ovoz olishdi. Qolgan partiyalar 10% lik limit chegaradan o`ta olmay parlamentga kira olishmadi<sup>34</sup>. Prezident Kenan Evrenni lavozim muddati tugashi munosabati bilan 1989–yil 9–noyabrda Turg`ut O`zal mamlakat prezidenti bo`ldi. AVP raisi Yildirim Akbulut bosh vazir etib tayinlandi. Hukumatda turgan AVP ning boshqaruviga Akbulut o`rniga Mesut Yilmaz keldi. Yangi hukumat ham Mesut Yilmaz boshchiligida tuzildi. 1991–yil 21–oktyabrda navbatdan tashqari saylovlar o`tkazilishi haqida qaror chiqdi. Bu

<sup>33</sup> Алиев, С. М. Современное исламское возрождение и его особенности (на примере Афганистана, Ирана и Турции) // Ислам и политика. – Москва: 2001. С.124.

<sup>34</sup> Аватков В.А. Турецкая демократизация в 90–е - ключ к сегодняшней исламизации Турции // Ближний Восток и современность. № 45. 2012. – С.18.

saylovda 27,03% ovoz bilan TYP g'alaba qildi. Undan keyingi o`rinlarda AVP, SXP, RP va DSP egalladi. 1991–yil 20–noyabrda S. Demirel boshchiligda TYP va SXP o`rtasida koalitsion hukumat tuzildi. Bu hukumat davlat xizmatchilarini maoshlarini oshirish va mamlakatda demokratik jarayonlarni o`shirishni ijobiy ta`minlay oldi. 80-yillarda hukumatda TYP va AVP ning davri bo`ldi desak adashmaymiz.

1993–yil 17–aprelda prezident T. O`zal vafot etdi. Uning o`rniga S. Demirel prezident etib saylandi. TYP ga rais va bosh vazir etib Tansu Chiller tayinlandi. Bu Turkiya tarixida birinchi bor ayol kishini bosh vazir bo`lishi edi. Chiller tuzgan TYP va SXP koalitsion hukumati 1993–yil 25–iyundan 1995–yil 25–dekabrigacha faoliyat ko`rsatdi<sup>35</sup>.

Hullas, 80–yillarda turk jamiyati turli sinovlarni o`z boshidan o`tkazdi. Iqtisodiyotni liberallashtirish, erkin tadbirkorlik va soliqlarni kamaytirilishi tufayli aholini moddiy farovonligi biroz bo`lsada ta`minlandi. Xalq farovonligi oshdi. Lekin shu qatorda islomiy oqimlar va tariqatlar siyosatga aralashuvi, hukumat ichida o`z a`zolariga ega bo`lishi, keyinchalik ularni hukumatda muqim joy olishiga qulay sharoitni yaratgan edi. 80–yillardagi islom harakatining faoliyati natijasi, 90–yillar uchun poydevor qo`ydi. Harbiylar faqatgina tashqi siyosatda qurollanish maqsadida AQSh bilan hamkorlik qilishar va mamlakat ichki holatiga AQShni salbiy ta`sir etishi mumkin deb hisoblaganlar. 90-yillarning oxirida harbiylar Turkiyaning Yevropa bilan integratsiyalashuviga to`siq bo`luvchi omil sifatida ko`rilmoqda.

## **1.2. Diniy tariqatlar va islomiy oqimlar faoliyati**

Turkiya hududida turklar bilan bir qatorda boshqa dinga e`tiqod qiluvchi o`zga din vakillari necha asrlarki, tinch va totuvlikda yashab kelishadi. Istambulda Butun dunyo provaslav Konstantinopol patriarxiyasi joylashgan.

---

<sup>35</sup> Eurasia Daily Monitor // Turkish Police No Nearer to Solving Attempted Ankara Bombing. Vol. 4, Issue 172, September 18, 2007.

Bundan tashqari Arman apostol cherkovini Istambul katolikos arxiepiskopi patriarx Kilikiyskiy tomonidan boshqariladi. Shu qatorda Mardin shahrida Oliy ruhoniy vikar boshchiligida siro–katolik va 60 ta assiriy–nestorian cherkovlari oʻz faoliyatlarini erkin olib borishgan<sup>36</sup>. Lekin yevropalik tarixchilar Turkiya hududida mayda din vakillariga nisbatan yaxshi munosabat koʻrsatilmagan deb asossiz dalillarni taqdim qilishadi. Bir narsa aniqki, Usmoniy turk sultonlari nomusulmonlarni ibodatxonalariga daxl qilishmagan va ularga soliq solish bilan cheklanishgan. Hatto Sulton Mehmet Fotih Konstantinopolni fath qilganida shahardagi bironta bino va ibodatxonalarga hamda mahalliy aholiga ziyon yetkazmagan, aksincha oʻz fuqarosi safiga qoʻshgan. Najd va Hijoz hududlari egallangach, diniy mutaasiblik kuchaygan boʻlsada, oʻzga din vakillariga tajovuz kuchaymagan, aksiga soliqlari oshirilgan holos. Turkiya hukumati 70–80–yillarda xristian cherkovlari va ibodatxonalarni restavratsiya qilish toʻgʻrisida qaror chiqarib, butun mamlakatdagi taʼmirga muhtoj imoratlarga katta mablagʻlar ajratilgan edi. Oʻsha payt qilingan ishlar hozir samarasini bermoqda desak adashmaymiz. Chunki millonlab xorijiy sayyohlar Turkiya hududidagi qadimgi ibodatxona va cherkovlarni koʻrish keladilar va Turkiyaning turizm salohiyatini naqadar katta ekanligini namoyon etib katta daromadlarni olib kelmoqda. Bundan tashqari hukumatning xristian dunyosiga katta eʼtibor berishi Turkiyaning Yevropaga yaqinlashuvini yanada mustahkamlaydi. 1974–yilga kelib mamlakat hududida 913 ta provaslav cherkovi va monastirlari mavjudligini olimlar qayd etishgan.

Turkiya hududida 36 ta yahudiy sinagoglari Adana, Anqara, Izmir, Chanakkale, Xatay, Bursa va Kirklareli shaharlarida roʻyhatdan oʻtgan.

XX asrning 60–yillarida Turkiyada 15 mingdan ortiq masjidlar boʻlganligi manbalarda aytiladi. Lekin bu sonlar katta ham boʻlishi mumkin. Mahalliy sharoitda ibodat qilinadigan masjidlar davlat nazoratidan tashqari faoliyat olib borishgan. Usmoniylar davrida koʻplab xristian ibodatxonalari jomeʼ

---

<sup>36</sup> Алекперов Р. Роль ислама во внутренней и внешней политике Турции после второй мировой войны // [www.Moscow.Lomonosov.University.com](http://www.Moscow.Lomonosov.University.com)

masjidlariga aylantirilganligi hujjatlarda keltiriladi. Shu sabab yevropa tarixchi–madaniyatshunoslari Turkiya hududidagi ilk nasroniylik me`moriy obidalari ahvolini salbiy baholashgan edi. Ko`p yillarki, bir imperiya boshqaruvi ostida yashab kelgan xalqlar va mayda etnik guruhlar o`z madaniy va e`tiqodiy turmush tarzini saqlab qolishgan.

XX asr 60–70–yillarda hukumat va harbiylar islomiy harakat vakillaridan mayda etnik guruhlar, eski konservativ liderlar va isyonkor kurd yoshlariga qarshi kurashish maqsadida foydalangan edi. O`sha vaqtlar islom omili katta xavf tug`dirmagan va asosiysi mamlakat hududiy yaxlitligi muhim omil edi.

XX asrning 70–80–yillarda butun dunyoda kolonial siyosiy tuzumga qarshi keng miqyosdagi qarshiliklar davri bo`ldi. Kolonial hududlarda milliy istiqloлчаilik harakatlari jonlana boshlandi. Ayniqsa, islom qaror topgan hududlarda milliy istiqloлчаilik mafkurasi keng yoyildi. Ana shu mafkuraviy jarayonlar ta`siri Turkiyaga ham sezildi. Bunday ruhiyat kayfiyati Turkiyadagi islomiy oqimlarni jonlantirdi.

Turkiyada islomiy ta`limotlar nochor qishloq aholisini, yoshlarni jalb qilar edi. Diniy ta`lim olayotganlarga katta miqdordagi moddiy yordamlar ajratilishiga ana shu qatlamni o`ziga tortardi. Diniy ta`limni o`ziga ehtiyor qilganlarga moddiy yordam berila boshlandi. Diniy maktablarning son dinamikasi o`sib bordi. Bu kabi jarayonlar sekulyarizmni qabul qilmagan va mag`lub bo`lgan shaharlar va qishloqlarda qaror topdi. Ijtimoiy inqiroz aholini diniy ta`limotlarga murojaat qilishiga sabab bo`ldi.

70–yillarning oxirida saylovlardan oldin bosh vazir Sulaymon Demirel saylovchilarning ishonchiga kirish uchun namoyishkorona Qur`on kitobini o`padi<sup>37</sup>. Bosh vazir albatta mamlakatning diniy kayfiyatdagi aholini qo`llab–quvvatlashlariga muhtoj edi. Bosh vazirning bu ishiga javob tariqasida turk g`arbparastlariga G`arb tomonidan moddiy yordam ajratildi. 70–yillarning oxirida harbiy to`ntarish amalga oshirildi va hukumatda turgan partiyalar

---

<sup>37</sup> Kalaycioğlu, Ersin. Elections and Party Prefences in Turkey: Changes and Continuties in the 1990's. – Preston: Comperative Political Studies, C:27, No:3, sep. 1994. – P.45.

faoliyati ta'qiqlandi va uning a'zolariga siyosiy faoliyat bilan 10 yil shug'ullanish faoliyati cheklandi. Hukumatni Milliy Xavfsizlik Kengashi o'z qo'liga oldi. Favqulodda holat e'lon qilindi va matbuotda senzura kuchaytirildi.

Sharq mamlakatlari bilan aloqani qayta bog'lanishiga sabablardan biri bu iqtisodiy muammolardan qutilish edi. Otaturk sharq musulmon mamlakatlari bilan aloqa o'rnatishga qiziqmaganligini asosiy sababi bu davlatlarning ko'pchiligini g'arb kolonial davlatlariga to'liq yoki, qisman qaram ekanligi va iqtisodiyotini kuchsiz ekanligi bilan izohlash mumkin edi. 70–80–yillarda musulmon davlatlarini ko'pchiligi iqtisodiy tomondan rivojlanish yo'liga kirganligi va Sharq musulmon davlatlarida turk tovarlari uchun yangi bozor bo'lishi mumkinligi hisobga olingan holda Turkiya bu davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga intildi. Shunday qilib, turk iqtisodida yangi bir formula “turklarni ishchi kuchi bilan arab kreditlarini g'arb texnologiyasi bilan bog'lash” deb nomlangan rivojlanish prinsipi vujudga keldi. Bundan tashqari turk malakali ishchi–kadrlarini arab davlatlarida mehnat qilishlari manfaat keltirar edi. Turkiya bir tarafdin arab neftini importiga muhtojligi bor edi.

80–yillarda turk hukumatini faoliyati sust olib borilishi tufayli ekstremistik tashkilotlar o'zlarning moliyaviy va insoniy manbalarini tayin qilib olgan edilar. Bu kabi tashkilotlarni chetdan moliyaviy qo'llashga doimo tayyor homiylar topilar edi. Lekin o'sha paytlar turk hukumatini bor e'tibori mamlakat hududiy birligiga xavf soluvchi kuch Kurdiston Ishchi partiyasiga qaratilgan edi<sup>38</sup>. Chunki 80–yillarda separatchi kurdlar harakati jonlanib qolgan va bu turk hukumatini amaliy choralar ko'rishga undar edi.

Turkiyadagi ijtimoiy–siyosiy tizimga ko'ra siyosiy islom harakat maqsadiga ko'ra, ikki yo'nalishga bo'lish mumkin: "radikal islom" va "parlamentar siyosiy islom". Islom dinini turk jamiyatida siyosuvlashuvi 70–yillarni oxirida boshlanganligini payqash mumkin<sup>39</sup>. Ana shu yillarda islomiy oqimlar rasmiy ravishda, qonunga muvofiq tarzda hokimiyatda paydo bo'lgan

<sup>38</sup> Ely Karmon. The demise of radical islam in Turkey. – London: Dr.Middle East Review of International Affairs(MERIA)journal, volume 1. 1990. – P.17.

<sup>39</sup> Данилов, В. И. Турция 80-х: от военного режима до «ограниченной демократии». – Москва: 1991. – С.154.

edi. Misol qilib, "Milliy Nizom partiyasini" keltirish mumkin. Bundan oldin mamlakat hududida faol harakatda bo'lgan "Hizbut tahrir" a'zolari respublika hududiga islomiy konstitutsiyani joriy etishga urinishlari tufayli ular tazyiqqa olinib, qonun oldida javobgarlikka tortilgan edilar<sup>40</sup>.

Xizbulloh (*arabcha–Alloh firqasi*) tashkiloti Turkiya hududida terrorizm urug'ini sochib kelgan. Suriyadagi nomdoshi Xizbullohdan tubdan farq qiladi<sup>41</sup>. Uning dastlabki mafkurasi Islom harakati tashkiloti bilan bir edi. 1979–80–yillarda Diyorbakirda Huseyin Veliog'lu va Fidan Gyunder tarafidan tuzilgan<sup>42</sup>. 1987–yilda Xizbullohdan Tevhid (Mehmet Shahin) va YerYuzu (Burhan Kavunju) guruhlar ajrab chiqdi<sup>43</sup>. Tashkilotning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari asta-sekin o'zgarib, manfaatlar ustunligi oshib bordi. O'lim mashinasi nomini olgan Xizbulloh tashkiloti Turkiyaning janubi–sharqiy hududlarida faoliyati qizg'in kechgan. Uning boshqaruviga ko'p yillar Huseyn Velioglu qo'lida bo'lgan<sup>44</sup>. Huseyin Veliog'lu o'ta shavqatsiz shaxs sifatida ilk faoliyatini 1975–yilda Batman shahrida "Milliy turk talabalari" uyushmasida boshlagan. Keyinchalik ayirmachi kurd guruhlariga qo'shiladi. Shimoliy Iroqda kurdlar yetakchisi Shayx Usmon bilan yaqin munosabat o'rnatadi. 1984–yil Xizbulloh vakillari matbuotda 1979–yil erondagi islom inqilobini qo'llab chiqdilar va bu inqilobni hech bir guruh yoki, millat yo'lida emas, balki Olloh yo'lida amalga oshirilganini ta'kidlashdi. Turkiyadagi radikal islomiy harakatlarning birlashuvi ortida Londondagi islomiy tadqiqot markazlariga aloqasi bo'lgan Kadim Siddiqiy turganligini manbalarda keltiriladi. Hususan Xizbulloh tashkiloti ilk faoliyatini "Siddiqiy izdoshlari" qanoti ostida boshlagan edi. 1984–yil bu tashkilot tomonidan eroniy bir jurnalda nashr qilingan maqolada jamiyatda "shahodat" prinsiplarini tarqatish yo'lida islom inqilobini g'oyalarini tarqatish, islom dinini davlatning asosiy dini darajasiga qanday olib chiqish va islom

<sup>40</sup> Мусульманский мир. // Радикалы Турции. – Москва: В, №6. 1999.

<sup>41</sup> [http://www.kurdishcenter.ru/index.php?option=com\\_content&view=article&id=4616:—&catid=24](http://www.kurdishcenter.ru/index.php?option=com_content&view=article&id=4616:—&catid=24)

<sup>42</sup> Harry W. Kushner. *Turkish Hezbollah*, Encyclopedia of Terrorism, – Hague: Sage Publications Inc, 1993, – P.368–369.

<sup>43</sup> Аватков В.А. Турецкая демократизация в 90–е – ключ к сегодняшней исламизации Турции // Ближний Восток и современность. № 45. 2012. – С.22.

<sup>44</sup> <http://www.terrorism.com> / The Terrorism Research Center / Turkish Hezbollah. 2003

ulamolarini real liderligini ta'minlash bo'yicha islom harakati boshqaruv prinsiplari haqida yozilgan edi. XX asrning so'nggi yilida turk maxsus xizmati bu tashkilotga qarshi keng ko'lamdagi operatsiyalarni olib bordi. Istambuldagi Beykos hududida Xizbullohning qarorgohini shturm qilingan vaqtda H. Velioglu yaralanib halok bo'ladi<sup>45</sup>. Shundan so'ng mamlakatning 44 viloyatida olib borilgan tezkor operatsiyalar natijasida minglab jangarilar va ko'p miqdordagi qurol-yarog'lar qo'lga kiritildi. Jangarilar tomonidan o'g'irlab ketilgan davlat va jamoat arboblari jasadlari topildi. Shuningdek, mamlakat g'arbida faoliyat olib borgan "Islom harakati" va "Islom Direnis" (Islom qarshiligi) kabi guruhlar eronparast Xizbulloh terrorchi tashkilotining bir bo'g'ini ekanligi ma'lum bo'ldi. Keyinchalik bu guruhlar Xizbulloh nomi ostida 90-yillardan boshlab umum tarzda faoliyat olib bora boshlaganlar. Xizbullohning eng mashhur qurboni feminizm harakati faolchisi Koncha Kuris (1960–1998) hisoblanadi. Uni Xizbullohning aqidasini tanqid qilgani uchun 1998–yil o'g'irlab ketishib, Konya shahrida qatl qilishgan<sup>46</sup>.

Sobiq vazir Fikri Saglarning "*Siyah–beyaz*" gazetasiga bergan intervyusida hukumat Xizbullohni 1985–yilda kurdlariga qarshi kurashda moliyalashtirgan va qurol bilan ta'minlab kelgan. Maxsus xizmat va Xizbulloh o'rtasidagi aloqalarni fosh qilgan bir necha jurnalistlar ham o'ldirilgan. 1993–yil Turkiya parlamenti maxsus komessiyasi hisoboti<sup>47</sup> da Batman viloyatida Xizbulloh tashkiloti a'zolari maxsus xizmat rahbariyati tomonidan lagerlarda shug'ullantirilayotganligi haqidagi ma'lumotni yashirdi. 2011–yil istefodagi polkovnik Arif Dog'an Xizbullohni KIP a'zolarini yo'q qilish uchun tuzilganligini tan oldi<sup>48</sup>.

1980–yillarda Turkiya hududida bir necha Iroq, Saudiya va Iordaniyalik diplomatlarning o'ldirilishini o'z bo'yniga olgan "Islom jihodi" nomli terrorchi tashkilot real xavfni keltirib chiqardi. Ushbu guruh 1991–yil Madridda Yaqin Sharq masalasi yuzasidan bo'layotgan sammitga qarshiligini bildirib qo'yish

<sup>45</sup> <http://Radikal.com.tr>. Radikal–online/Türkiye/Türkiye'deki islamci kuruluş ve örgütler. Retrieved on 2011.

<sup>46</sup> Turkish Weekly // Turkish Hezbollah (Hizbullah) / Kurdish Hezbollah, №14. 2003. –P.12

<sup>47</sup> Cumhuriyet // Report of a parliamentary commission / №33. 2 February. 2000. –P.5.

<sup>48</sup> Harry W. Kushner. Turkish Hezbollah. Encyclopedia of Terrorism, – London: Sage Publications Inc, 1993. – P.144.

uchun AQShlik serjantni va bir misrlik diplomatni qatl qilishdi. Dastlab bu jinoyatlarda livandagi shia terrorchi guruhlarini qo`li borligi tahmin qilingan edi. Ammo bu Turkiyadagi "Islom jihodi" tashkilotini ishtiroki borligi oydinlashdi. Bu terrorchi ekstremist guruhlar Turkiya hududida siyosiy arboblardan va tanikli kishilarni o`g`irlab, tovon puli talab qilinar yoki, qatl jarayonini tasmaga muhrlab televideniyeiga jo`natishar edi. Bu albatta qo`rqitish usullaridan edi.

Turkiya hududidagi diniy radikal guruhlar va tashkilotlarning faoliyati turlicha shaklda olib borilgan. Hususan, Xalqaro terrorizm va ekstremizm tashkilotlari muammosi bo`yicha izlanishlar olib borgan isroillik olim E. Karmon o`zining "1968–1990–yillarda Turkiyadagi koalitsion terroristik tashkilotlar" deb nomlangan tadqiqot ishida Turkiyadagi 90–yillargacha terrorchi ekstremistik tashkilotlar borasida tahliliy ma`lumotlarni keltiradi. Uning fikricha, bu davrda yuqoridagi tashkilotlarni asosiy ko`makdoshi, islom inqilobini boshidan o`tkazgan Eron turganligini ta`kidlaydi.

1980–yillarning boshlarida islom harakatining o`ng qanoti vakillari Eron shia rahnamosi oyatullo Humayniy bilan aloqa bog`lashdi. Lekin ularning harakatlari 1980–yilgi harbiylarning davlat to`ntarishi bilan o`ylangan rejalari amalga oshmay qoladi. Islomiy harakatlarning 80–yillarda ko`payib ketishiga sabab, hukumat jamiyatda marksizm va millatchilik urug`ini tarqab ketishiga va ularning tarafdorlarini mavqeyini oshib ketishini oldini olish maqsadida qarshi vosita sifatida islom tendensiyasini oldingi rolga chiqishiga yo`l qo`yib bergan edilar. Bunday erkinlik va qulay muhitdan foydalanib qolgan islom oqimi vakillari o`z pozitsiyalarini mustahkamlab olishga erishdilar.

1980–yillarni boshlarida islom harakati o`ng qanot vakillari sifatida millatchilarni o`z saflariga qo`shib oldilar<sup>49</sup>. Millatchilik islomiy aqidalarga zid bo`lishiga qaramay Turkiya islom harakati istisno tarzida ularni o`z saflariga qo`shgan edilar. Ba`zi turk millatchilari Misrdagi "Musulmon birodarlar" tashkiloti ta`siri ostida edi. Ammo Misrda "Musulmon birodarlar" tashkiloti

---

<sup>49</sup> Ely Karmon. Radical islamic political groups in Turkey. – London: Published by MERIA. Vol.7. Dec. 4. 1997. – P.142.

rahnamosi Sayid Kutba vafot etgach, uning izdoshlari o'z tarkibida millatchi turklarni bo'lishi mantiqqa to'g'ri kelmasligini ta'kidlashib, saflaridan ularni chiqarib tashladilar.

Turkiya maxsus xizmatini 1997–yilgi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat hududidagi radikal islomiy harakatlarning strategik maqsadlari uch bosqichda amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Birinchi bosqichda, insonlarni islomiy chaqiriq bilan da'vat qilinadi va shariat tuzumini joriy etishga g'ayrat qilishga chorlaydilar<sup>50</sup>. Albatta bu targ'ibot–tashviqot ishlari harakatlaridan iborat edi. Ushbu bosqich "tablig'"(arabcha –*yetkazish*) deb nomlanar edi. Ikkinchi bosqich "jamoat" nomi bilan mavjud islomiy jamiyatni tarkibiy jihatdan isloh qilish va shunga moslash, deyarli birinchi bosqichning uzviy davomi hamdir. Oxirgi uchinchi bosqichda "jihod" (arabcha–*kurashish, jahd qilish, qattiq qasd qilish*) islomiy kuch bilan hal qilinadigan element ishga solinishi nazarda tutilgan. Islomiy aqidalarga murojaat qiladigan bo'lsak, jihod e'lon qilish allaqachon shakli o'zgargan. Chunki jihod faqatgina musulmon ahliga tajovuz va qirg'in uyushtirilgan vaqt dushmanga qarshi himoyalaniish uchun jihodga ruhsat beriladi. Hozirgi vaqtda musulmonlarga qarshi hech qanday xavf–xatar mavjud emas. Shu sabab Hazrat Payg'ambarimiz e'tirofiga ko'ra inson endi jihodni o'z "nafsi"ga qaratishi kerakligi anglashiladi. Biz shunday bir kishilik jamiyatda yashamoqdamizki, kuch ishhlatishtish va zo'ravonlik bilan odamlar qalbiga g'ulg'ula solib ularni idora qilib bo'lmaydi. Shu sabab xalqning ishonchiga kirish uchun moddiy va ma'naviy masalalarni hal etish yo'li bilan erishish mumkin.

1991–yil oktyabr oyiga qadar Turkiya hududida o'ndan ortiq islomiy oqimdagi harakatlar ro'yhatga olingan. Bular Islom Ozodlik armiyasi, Islom Ozodlik fronti, Islom Inqilobi kurashchilari, Islom Ozodlik ittifoqi, Shariat dunyosini ozod qilish armiyasi, Turk birlashgan ozodlik kurashchilari armiyasi, Birlashgan qasoskor va birodarlik shariati fronti, Turkiya shariat kurashchilari

<sup>50</sup> Дружиловский, С. Б. О теории и практике исламского правления в странах Среднего Востока (Иран, Афганистан, Турция) // Ислам и политика (взаимодействие ислама и политики в странах Ближнего и Среднего Востока, на Кавказе и в Центральной Азии). – Москва: Институт востоковедения РАН, Крафт+, 2001. –С.233.

va boshqa mayda guruhlar<sup>51</sup>. Turkiyada islomiy oqim yo`nalishidagi yirik siyosiy kuchlaridan biri "*Milli Görüş*" (Milliy Dunyoqarash) tashkilotidir. Ushbu tashkilotning yetakchisi sifatida siyosat sahniga Najmiddin Erboqon o`zining islomiy g`oyalari bilan chiqqan edi. Milliy dunyoqarash tashkiloti nafaqat Turkiya hududida balki, mamlakat tashqarisida o`zining sho`balariga ham ega edi. Misol uchun Yevropani bir qator davlatlarida va uzoq Avstraliyada ham harakat oyog`i yetgan edi. Bu tashkilot qudratli moliyaviy kuchga ega holda katta holdinglar, 27 ta jamg`arma, 34 ta nashr, yuzlab ma`naviy markazlar vositasida musulmon olamidagi millionlab odamlarni ongiga o`z ta`sirini o`tkazmoqda. Bu tashkilotni nomusulmon bo`lgan ba`zi xorijiy tashkilotlar ham qo`llayotganligi haqida manbalar bor. Bundan tashqari 80–90–yillar mobaynida diniy fundamentalist harakatlarga moddiy va ma`naviy yordamni 501 ta diniy fond, shuningdek, 7 mingdan ortiq mahalliy nashrlar, 110 nomdagi jurnal, 51 ta radiostansiya va 20 ta telekanal, mingga yaqin tijoriy firmalar ta`minlab turgan.

2000–yillargacha Konstitutsion Sud tomonidan javobgarlikka tortilishigacha Turkiyada ko`p tarmoqqa ega "IBDA–J" (Buyuk islomiy kurashchilar) islomiy oqimdagi tashkilot mamlakatdagi barcha radikal islomiy guruhlarini har taraflama qo`llaganligi va kurd ayirmachi guruhlariga homiylik qilganligi oshkor bo`ldi.

"IBDA–J" faoliyatida kurash metodi bu kuch ishlatish va terror hisoblanadi. Turkiyaning rivojlanishdan ortda qolgan va ijtimoiy muammolar girdobida qolgan Konya, Kahraman Marash, Erzurum va Gaziantep viloyatlarida anchagina mavqeyga ega bo`lgan "IBDA–J" ning lideri S.I. Erdish hisoblanadi. Tashkilotning asosiy g`oyasi islom halifaligining zamonaviy ko`rinishidagi islom federatsiyasi ostidagi davlatlar birligiga erishishdir.

Turkiyaning sharqiy hududlari islom oqimlariga a`zo bo`luvchi yoshlar soni ko`pchilikni tashkil etadi. Chunki bu hududlarda ishsizlik katta muammo sabab, shahar va qishloqlardagi bekor yoshlar diniy sektalarning safiga moddiy manfaatni ko`zlab kirishmoqda.

---

<sup>51</sup> Ely Karmon. Radical Islamic political groups in Turkey. – London: published by MERIA, 2006.–P.45

Islomiy oqimlarni yoyilishida yana bir uyushma, "tariqat"lar ham katta rol o`ynagan. Bunday tariqatlar safiga "Naqshbandiya", "Sulaymoniya" va "Nurchilar"ni ham kiritish mumkin. Ularning orasida ta`sir kuchi kattasi bu Naqshbandiya tariqati hisoblanadi. Uning a`zolari hukumat boshqaruvida ham faol qatnashadilar. Lekin afsuslar bo`lsinkim, Hazrat Bahouddin Naqshbandning qarashlari turk tariqatchilari tomonidan o`zgartirilib, siyosiy islomning mafkuraviy quroliga aylantirildi. Shayx Sayidning shogirdi Shayx Mehmet Zohid Kutku "Iskandar Poshsho" jamoasiga asos soldi va islomiy oqimlarni siyosat maydoniga kirib borishiga katta turtki berdi. Bu jamoa "Milliy Nizom" Partiyasini hokimiyat boshqaruvida ishtirok etishini ta`minlab, kelajakda Najmiddin Erboqonni siyosat sahnida faoliyat olib borishiga o`z hissasini qo`shgan.

Yevropada o`z shahobchalarini "Islom madaniy markazlari birligi" nomi bilan rasmiylashtirgan Sulaymoniya tariqati Germaniyada ijtimoiy tashkilot sifatida namoyon bo`lgan. Lekin uning mavqeyi Turkiyada unchalik yuqori emas. Uning aksar tarafdorlari xorijda yashovchi muhojir turk fuqarolaridir. Sulaymoniya tariqati XX asrning 40–yillarida paydo bo`lgan va keyinchalik Adolat va Demokratik partiyalarning qo`llab–quvvatlashi va homiyligi ostida bo`lgan. Bu tariqatning asoschisi Sulaymon Hilmiy Tunahan bo`lgan. Radikal islomni Turkiya hududida quloch yoyishida ushbu tariqatning xizmati kattadir.

Xozirda Turkiya hududida faoliyat doirasi miqyosi borasida Nurchilar tariqatiga yetadigani yo`q. Bu diniy sektaning asosi o`tgan asrning 20–yillarida asli millati kurd bo`lgan Badiuzzamon Said Nursiy (1872–1960) tomonidan qo`yilgan. Juda ham murosasiz odam bo`lgani uchun Said Nursiy hamma bilan kelisha olmay ko`p madrasa almashtiradi. U doimo kurash maydonida o`zini ko`rar edi. Bu ishlari uchun uni bir necha bor qamab qo`yishadi. Faqir bo`lgani uchun Bitlis hokimining uyida ishlab yashab yuradi. U juda ko`p kitob mutolaa qilar edi. Shu sabab boshqalardan keskin fikrlashi bilan ajralib turar edi. Bir kuni bir gazetada ingliz parlamenti a`zosini aytgan so`zlarini o`qib qoladi va unda shu so`zlar bitilgan edi: "Biz toki musulmonlar qo`lidan Qur`onni tortib

olmagunimizcha, ularni madaniyatli xalqlar qatoriga qo'sha olmaymiz". Ushbu ifodani ko'rib uning nafrati qo'zadi va bu so'zlar uning qalbida og'ir botadi. U keyingi hayotini Qur'onni mo'jizaviy taraflarini yoritishga bag'ishlashga ont ichadi<sup>52</sup>. Shunday qilib S. Nursiyning ilmiy–ijodiy hayoti boshlanadi. Qamoqda turib ko'plab kitoblar yozadi. Uning muhlislari safi ko'payib boradi. U zamonaviy ilmlar bilan bir qatorda diniy ilmlar bilan ta'lim beradigan oliygoh tuzishni orzu qiladi. Hukumat uning olib borayotgan diniy targ'ibotidan xavfsirab uni 23 yil davomida qamoqda ushlaydilar. 1960–yil mart oyida Said Nursiy qamoqda vafot etadi. uning ilmiy merosi, kitoblarini o'qish ta'qiqlanadi va prokuratura tomonidan ta'qibga olinadi. Nursiydan qolgan ilmiy merosi shogirdlari tomonidan to'planib, "Risolai nur" nomi bilan jamlanib kitob qilinadi va maxsus kurslar ochilib o'qitila boshlandi. Uning shogirdlari Mustafo Sungur va Mehmet Kurdoglu Nurchilar harakatini shakllantirdilar. 1970–yillarning boshlarida Said Nursiyning qarashlarini Izmir masjidi imomi Fathulla Gyulen davom ettira boshladi. Gyulenning faol targ'ibot ishlari tufayli uning atrofida kuchli uyushgan va vertikal boshqaruvga ega tuzulmani vujudga keltirdi. Nurchilar sekta bo'limlariga Mustafo Sungur bevosita Gyulenning ko'rsatmalari bilan boshqaruvni amalga oshira boshladi. Nurchilar sektasining tarkibi iyerarxik kuchli tartibga asoslangan bo'lib, bank–moliya va OAV sohalariga e'tiborni qaratdilar. Chunki OAV Nurchilarning asosiy targ'ibot quroli edi. Turk matbuotining fikr bildirishicha, Fathulla Gyulenning "yulduzli onlari" prezident Turg'ut O'zal davriga to'g'ri keladi. Hukumatning keng qo'llab–quvvatlashlariga erishgan Nurchilar harakati mamlakatda maorif tizimi va biznes sohalarida katta ishlarni amalga oshirdilar. Ko'plab sohalarga kapital kiritdilar. Lekin bu degani Gyulenni bemalol faoliyat olib borganidan darak bermaydi. 1971–yili u 3 yilga ozodlikdan mahrum qilingan edi. Asosiy sabab qilib, Nurchilarning madaniy markazlarida Otaturkni dinning dushmani sifatida ko'rsatib, dinga tayaniv ish ko'ruvchi davlatni tashkil etish g'oyalarini yoshlar

---

<sup>52</sup> Mardin. S. Religion and social change in modern Turkey. The case of Bediuzzaman Said Nursi, – New York: Univcrsity of New York. 1998. – P.15–18.

ongiga singdirish bo'lgani ko'rsatiladi. 1980–yilda Gyulenni yana bir bor qamoqqa olishga urinish bo'ladi, ammo u Istambuldan Erzurumga qochib yashirinishga ulguradi. 1985–yilda Gyulen qidiruvdagi shaxslar ro'yhatida bor edi. 1986–yil Gyulenni xavfsizlik xizmati qo'lga tushiradi, lekin hukumatning yuqori lavozimidagi ba'zi odamlarning hohishiga ko'ra, (balki Turg'ut O'zalning shaxsan buyrug'i bilan) ozodlikka qo'yib yuboriladi. Tahlilchilarning fikricha, Gyulenning kapitali 80–yillarda katta o'sishlarga erishgan. 90–yillarga kelib, butun dunyoda Nurchilarning yillik pul aylanmasi 56 mlrd dollarni tashkil etishi tahmin qilingan edi. Bunday katta mablag'larni o'zlashtirish manbasi sifatida sekta a'zolarini qurol–yarog` va narkotrafik bilan shug'ullanishi tufayli deb ko'rsatilgan. Shuningdek, Nurchilar sektasi 90–yillarda Checheniston va Saudiya Arabistonidagi jangarilar tayyorlash lagerlariga moliyaviy yordam ko'rsatganligi haqida ma'lumotlar ham bor.

2000–yillarning boshlarida Gyulen AQShga qochib ketdi va o'sha yerda yashirilib yuribdi. Uni AQShda MRB (Markaziy Razvedka Boshqarmasi), FQB (Federal Qidiruv Byurosi) va AQSh Departamenti bilan aloqa qilishi haqida ma'lumotlar keltiriladi<sup>53</sup>.

Nurchilarning Turkiyada barcha moliyaviy daromadlari "Ihlas holding" kompaniyasi orqali legallashtirilishi va moliyaviy oqim ta'minlanishi ma'lum bo'ldi. Ba'zi norasmiy manbalarga ko'ra, Nuchilarning daromadi Turkiya yillik YMMning 30% ini tashkil etishi keltiriladi<sup>54</sup>. Bundan tashqari "Ihlas haber ajansi" axborot agentligi, "Turkiye" haftalik nashri, "Saman yolu TV" telekanali, "Hakikat kitap EVI" bosmaxonalar kompleksi va "Zaman" media holdinggi Nurchilar harakatini qo'l ostida ekanligi, ularning nechog'lik katta moliyaviy tizimni tashkil etganliklarini ko'rish mumkin.

1999–yilda Turkiya Konstitutsiyaviy Sudi Nurchilar sektasini faoliyatini qonun doirasidan chetda deb topdi. Mamlakat armiyasi tarkibida nurchilarga aloqador bo'lgan 170 ta ofitser lavozimidan haydaldi. Nurchilarga asosiy ayb

<sup>53</sup> Karpat. K.H. Nursi. Encyclopedia of Islam. –Leiden: New Edition, volume.VIII, Brill:– P.143–144.

<sup>54</sup> Yavuz M.H. Political Islam and the Welfare (Refah) Party in Turkey // Comparative Politics, Vol.30, No.1, October 1997. –P.54.

sifatida mamlakat konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritishga harakatlar va din omilini ko'tarib chiqish deb baholandi. Lekin turk hukumati nurchilarning mamlakat tashqarisidagi faoliyatini strategik jihatdan foydali va Turkiyaning chetda reklama bo'layotganligini, mamlakat maorif tizimi uchun katta ishlarni amalga oshirganligini hisobga olib, Gyulen sud tomonidan oqlandi.

Sobiq Ittifoqi parchalangach, uning janubiy hududlarida mustaqil respublikalar ajralib chiqdi. Mustaqil bo'lgan respublikalarda turkiy xalqlar yashashini hisobga olgan holda nurchilar harakati bu o'lkalarda o'zining ta'lim va ma'orif markazlarini ochdi. Bu ta'lim maskanlarida yashirin tarzda panturkistik va diniy g'oyalar talabalarga singdirilayotganligi ma'lum bo'lgach, markaziy Osiyodagi, hususan bizning respublikamizadagi barcha turk ta'lim markazlari yopildi va mulklari musodara qilindi. Nurchilar Markaziy Osiyodagi davlatlarning boshqaruv asoslariga va hududiy yaxlitligiga taxdid solgan edilar. Said Nursiyning 14 diniy kitobi ekstremistik adabiyot deb e'lon qilindi.

90–yillarda nurchilarning 7 mingdan ziyod odami missionerlik bilan shug'ullangan ekan<sup>55</sup>. Nurchilar harakati boshqa davlatlar hududida tijoriy va maorif ishlarini bahona qilib, kirib oladilar va o'zlarining targ'ibot ishlarini olib boradilar. 90–yillarda dunyoning 56 davlatida nurchilarning 250 dan ortiq ta'lim markazlari faoliyat olib borganligi ma'lum. Shulardan 5 tasi oliy o'quv yurti ekanligini hisobga olsak, ularda 3000 dan ortiq o'qituvchi ishlagan va 400 dan 1600 AQSh dollarigacha maosh olganlar. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 90–yillarning oxirida nurchilar sektasi chet ellarda ta'lim maskanlari ochish uchun 1 mlrd. 250 ming AQSh dollari hajmida mablag' sarflagan<sup>56</sup>. Bunday katta moliyaviy ta'minotni AQSh va arab davlatlaridagi biznesmen va tadbirkorlar yetkazib bergan. Nurchilarning harakatlarini qo'llayotganlar ham va qoralayotganlar ham bor. Ba'zilar nurchilarni turkiy xalqlarni birlashtirishda o'z hissasini qo'shmoqda desalar, ba'zilar esa, diniy mutaasiblikni yoymoqdalar deb fikr bildirmoqda. Qisqacha qilib aytganda, nurchilar sektasi maqsadi turli

<sup>55</sup> Toprak Binnaz. Islam and Democracy in Turkey. – Lebanon: Turkish Studies, Vol.6, No.2, June 2005. –P.14.

<sup>56</sup> Gulalp H. Political Islam in Turkey: The Rise and Fall of the Welfare Party // Muslim World, Vol.89, No.1, January 1999. –P.22–41.

davlatlarning boshqaruviga o'z odamlarini chiqishiga yordam berib, o'z manfaatlarini yo'lida foydalanish ekanligi sir emas.

1986–yilga kelib harbiy to'ntarishdan so'ng, ko'ppartiyaviylik tizimi yana qaror topdi. 1987–yil 6–sentyabr kuni referendum natijalariga ko'ra 1980–yilda faoliyati ta'qiqlangan partiyalarga o'z faoliyatini davom ettirishi uchun ruhsat berildi. Bu o'z navbatida islomiy harakat oqimlari uchun qo'l keldi.

Bu davrda Turkiya siyosiy tizimini uch yo'nalishda kuzatish mumkin edi: 1–Sotsial demokratlar(Sotsial Demokratik partiya, Demokratik so'l partiya); 2–Konservativ (Vatan partiyasi, To'g'ri Yo'l partiyasi); 3–Millatchi(Milliyatchi Harakat partiyasi); 4–Islomiy(Refah partiyasi).

Mamlakatda 80–yillarda hukmron partiya VP va TYP o'rtasida kurashlar kechar edi<sup>57</sup>. Harbiylarning ko'proq etiborini tortgan partiya bu lideri A. Turkesh bo'lgan MHP edi. Bu partiya lideri ko'p bora panturkizm va islomiylikni turk millatini kuch manbai deb ta'kidlagan. Bu partiya sentyabr oyidagi davlat to'ntarishi arafasida mamlakatdagi ko'plab teraktlarni amalga oshirgan edi. Uning qo'l ostida minglab jangarilar mavjud edi.

Mamlakatdan tashqarida ikki yirik islomiy terrorchi tashkilotlar qanoti yuzaga keladi. Biri N. Erboqon boshchiligidagi Milliy Go'rush bo'lib, Yevropada ko'plab tayyorgarlik lagerlari va diniy maktablari va moliyaviy tashkilotlariga ega edi; biri 1985–yil boshqaruvni qo'lga olgan Jamoliddin Kaplan boshchiligidagi “Islom jamiyati va jamoalari ittifoqi” edi. 1992–yil aprelda J. Kaplan qo'l ostidagi tarafdorlari Anatoliya Federativ Islom davlatini tuzganligini e'lon qilishdi<sup>58</sup>. J. Kaplan hokimiyat Allohga tegishli ekanligini va asosiy qomus bu Qur'on ekanligini, bugungi Turkiya–Makkadir deb ta'kidlagan edi. J.Kaplanni vafotidan keyin tashkilot boshqaruvini o'g'li Metin o'z qo'lga oldi.

Turkiya hududida 90–yillarda Xezbolloh va Al–Qoida tashkilotlarini ta'siri va faoliyati aktivlashdi. Misol uchun Xezbollohnin Adana, Sakarya,

<sup>57</sup> Metin Heper and Ahmet Evin. The State, Politics and Religion in Turkey, in State, Democracy and the Military. Turkey in the 1980s. – Berlin/New York: Walter de Gruyter, 1988. –P.14.

<sup>58</sup> [http://www.terrorism.com/The Terrorism Research Center/Turkish Hezbollah\(2003\)](http://www.terrorism.com/The Terrorism Research Center/Turkish Hezbollah(2003))

Diyorbakir, Ankara, Konya, Izmir kabi shaharlarda ta'siri bor edi. Bundan tashqari "Xizb ut-savashjilar" nomli turk terrorchi tashkiloti ham mavjud edi<sup>59</sup>.

Dunyoviylik tarafdorlarining tan olishicha, 80–90–yillarda siyosiy islom harakati oldida harbiylar va dunyoviylik himoyachilari biror chora ko'ra olmaganliklarini ta'kidlashadilar. Siyosiy islom xavf tug'diradigan jihatlarini hisobga oladigan bo'lsak, birinchi navbatda mamlakatning taniqli biznesmenlar, katta holdinglar va shirkatlar rahbarlari, biznesning elita qatlami turar edi. Bilamizki, ana shu elita qatlam vakillarini qonida grek qoni oqadi. Garchand otasi musulmon, onasi grek bo'lsada, reaksiya islomni qabul qilishlari mumkin emas edi. Agarda Turkiyada islom shariati qaror topadigan bo'lsa, birinchi navbatda mamlakatning dunyoviy elita qatlamini chetlab o'tmas edi. Ular bunday tuzumda yashay olmasliklari oydin edi. Huddi Eronda islom inqilobidan so'ng, mamlakatdan katta boy zodagonlar tashlab chiqib ketgan edilar. Islom shariati o'rnatilgan taqdirda, uning qonun–qoidalariga itoat etishlik ular uchun oson ish emas.

Bu paytlar turk jamiyatida ijtimoiy guruhlar o'rtasida birlik yo'q edi. Hatto, harbiylar orasida islomiychilikka xayrixox harbiylar akademiyalarda, harbiy bo'linmalarda, harbiy qismlarda uchrab turar va ular omma oldida namoyishkorona safdan haydalar edilar. Harbiylar orasida siyosiy islomning ilk bor uchrashi bu Gulxona harbiy tibbiyot akademiyasi yetakchi bo'lgan. Chunki birinchi bor shu akademiyada islomiy kayfiyatdagi harbiylar chiqqan edi.

Intelligensiya orasida ham ijobiy munosabatlar mavjud emas edi. Islomchilar asosan diniy fakultet talabalariga e'tiborlarini qaratgan edilar. Ana shunday diniy fakultet faollaridan **Yashar Nuriy O'zturk**(Istambul universitetining diniy fakulteti dekani) va **Fahmiy Baykan**(Anqara shahridagi Xojatepa Universiteti Adabiyot falsafasi bo'limi islomshunos professori) edi. O'zturk islom dinini isloh qilish yaxshi ish emasligini aytgan edi. Otaturk mafkurasi asosida davlat rusumidagi dinni millat uchun taqdim etish va sindirish va radikal islomdan voz kechish avvaldan mavjud reja edi. **Professor Baykan**

<sup>59</sup> Bayramoğlu Ali. Türkiye'de İslami Hareket. 1.baskı. – İstanbul: Patika yayıncılık, 2001. –S.45.

dinni davlatdan ajratishda g`arb namunasidan o`rnak olmaslikka chaqirdi<sup>60</sup>. Uning bu gaplarida adolat bor edi. Chunki Yevropada cherkov davlatdan alohida bir jamiyat instituti sifatida ajratilgan edi.

### **1.3. Islomiy siyosiy partiyalar va tashkilotlarning faoliyati, ularning siyosatga ta`siri**

1962–yilgi qabul qilingan mamlakatning uchinchi konstitutsiyasida 19–moddasida alohida shaxslar yoki partiyalar tomonidan dinni siyosiy maqsadda foydalanishi ta`qiqlangan edi. 1980–yil may oyidagi davlat to`ntarishini amalga oshirgan harbiylar mamlakatda ateizmni qaror topishiga qarshi ekanligini ta`kidlashgan edi. Xudosizlik xalq uchun zararli ekanligini turk harbiylari yaxshi bilar edilar. Chunki turk jamiyatini qadriyatlarini va millat birligini saqlashda dinni o`rni muhimligini ma`lum edi. Turk jamiyatida radikal islomni kirib kelishini oldini olish harbiylar uchun asosiy vazifa edi. Shu sabab Oliy Diniy kengash tashkil etildi. Bu o`z navbatida mamlakatdagi barcha diniy faoliyat va diniy ta`limni nazoratga olish va ularning ishlarini muvofiqlashtirib turish kengashning asosiy vazifasi edi. Shu qatorda diniy ruhoniyyat va diniy arboblarning soni yildan–yilga oshib bordi.

Ilk siyosiy islomiy partiyalarni tashkil etilishini birinchi etapi taxminan 1945–69–yillarni `oz ichiga olib, aniq oriyentatsiyaga ega emasdilar. Ikkinchi etap 1970–yillardan boshlanib, mamlakat ichki siyosiy hayotiga islom ta`sirini kuchayishi bilan belgilash mumkin. Turkiyada ilk tashkil topgan islomiy partiya **Millatchi Respublika Dehqonlar partiyasi** bo`lib, keyingi paydo bo`ladigan diniy harakat va partiyalarning tamal toshi edi. 1969–yil bu partiya Millatchi Harakat partiyasi deb nomi o`zgartirildi. 1970–yillarda lideri N. Erboqon bo`lgan Milliy Nizom partiyasi vujudga kelgan edi. Bu partiyaning asosiy maqsadi jamiyatning ijtimoiy kayfiyati darajasini ko`tarish va g`arb

---

<sup>60</sup> Duman Doğan. Demokrasi Sürecinde Türkiye’de İslamcılık. 2.baskı. – İzmir: Dokuz Eylül Yayınları, 1999. – S.56.

madaniyatini urf bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kabi mezonlardan iborat edi. Milliy Nizom partiyasi 1980–yili Milliy Qutqarish partiyasi, 1983–yildan 1998–yilgacha Refah nomi ostida faoliyat olib bordi<sup>61</sup>.

**1971–yil 12–mart** kuni navbatdagi davlat to'ntarishi tarixchilarning ta'kidlashicha “yumshoq” to'ntarish amalga oshirildi. S. Demirelning hukumati majburan istefoga jo'natildi. Armiya tarkibidagi xavfli sanalgan ofitserlar armiya tarkibidan tozalandi. Bir partiyali hukumat tashkil qilinib, 1961–yilgi mamlakat konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritildi. Konsititutsiya o'zgartirishlari tufayli huquq va erkinliklar kamaytirildi, ijro etuvchi hokimiyat vakolatlari kengaytirildi, lekin sud hokimiyatini uning ustidan nazorati saqlanib qoldi. OAV ustidan nazorat o'rnatildi va laitsizmga zid bo'lgan partiyalar yopildi.

Mart oyidagi davlat to'ntarishidan keyin siyosat maydoniga yangi islomiy partiya yuzaga keldi. Bu **Milliy Najot partiyasi** bo'lib, uning asosiy g'oyasi tarixiy millatchilik va islom tamaddunini o'rnatish edi. Bu harakat vakillarining fikricha, shunday katta imperiyaning qulashining asosiy sababi sifatida g'arb davlatlari bilan qilingan aloqalar deb bilishdi. G'arb bilan munosabatlar bilan dunyoviylik ortidan islomiy qadriyatlar unut bo'lganini ta'kidlashadi. Bu partiya mamlakat taraqqiyotini mafkura modeli sifatida davlat hokimiyatini islom ittifoqi asosida boshqarishni taklif etadilar. Shuningdek, Konstitutsiya o'rnida Qur'onni, huquq tizimini shariat tashkil etishi asos bo'lishi kerak edi. Shu takliflar ortidan mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etish mumkin deb hisoblashdi. Turkiya hududida g'arbcha tipdagi madaniy va ma'rifiy ko'rinishlarni ta'qiqlashga harakat qilishdi.

70–yillarda Turkiyada iqtisodiy–ijtimoiy inqiroz kuzatila boshlandi. Mamlakat iqtisodiyoti zarar ko'rishidan o'rta qatlam va pastki qatlamdagi aholini jabr ko'rishi kuzatildi. Islomiy harakatning ijtimoiy bazasi bo'lgan bu o'rta qatlamni asosini ishchi–xizmatchilar, talabalar, dehqonlar, qishloq aholisi,

---

<sup>61</sup> Nimet Arsan. Atatürk'ün Söylev ve Demeçleri. İkinci Baskı. – Ankara: İnkılâp Tarihi Enstitüsü Yayını, 1961. –S.61.

o`rta shahar qatlami inqiroz tufayli zarar ko`rdi. Bu paytlar mamlakatdagi aholi g`arblashishi tufayli yoshlar qatlami islomiy kayfiyatda emas edilar.

1970–yillarda Turkiyada katta sanoat burjuaziyasi va kichik sanoat burjuaziyasi o`rtasida tushunmovchiliklar chiqishi, kichik sarmoya egalarini daromadlarini himoya qilinmaganligi va hukumatning hech bir chora qo`llamaganligi tufayli yana bir siyosiy kuchning yuzaga kelishiga asos bo`ldi. 1961–yilgi konstitutsiyaning keng erkinliklar berilishi ortidan millatchi mafkura qatorida diniy mafkura namoyondalari vujudga keldi. Yangi paydo bo`lgan islomiy harakatlar hukumat ishlariga bir partiya ichida faoliyat olib borishni istamay, o`zlari mustaqil faoliyatlarini boshlashni xoxladilar. Iskandar Poshsho islomiy jamoati lideri Zahid Kotku Anavatan partiyasi uning umidlarini puchga chiqarganligidan o`zi mustaqil tarzda Milliy Nizom deb nomlangan partiyani tashkil etdi<sup>62</sup>. O`zi esa bu partiyani rahbari etib Najmiddin Erboqonni tayinladi. MHP o`z atrofida kichik burjuaziya vakillari, g`arblashishga qarshi kishilarni, mayda savdogarlarni birlashtirdi. Hullas MHP 1970–yil 26–yanvarda tashkil topdi. Turkiyada ratsizm 70–80–yillarda o`zini namoyon qila boshlagan. Shu sabab harbiylarning 1980–yil 12–sentyabrdagi hokimiyatni ag`darilishi zamirida ham millatchilik va islomiy oqimlar, harakatlarga qarshi chora qo`llash masalasi ko`ndalang turgan edi. Milliy Harakat partiyasi(MHP)ning lideri A. Turkeshga nisbatan harbiylar qattiq choralar ko`rgan edi. Unga qo`yilgan asosiy ayblar 1981–yil yoz oyida matbuotda e`lon qilindi. Unga ko`ra Turkeshning qo`l ostida yaxshi tartibga ega rahbariyat birligi mavjud bo`lgan. Ayblov xulosalarida keltirilishicha, Turkeshning partiyasi koalitsion hukumat tarkibida bo`lgan paytlarda Ispaniya, Italiya va Germaniyada mavjud bo`lgani kabi fashistik tipdagi diktaturani Turkiya hududida qo`llashni kelishishgan. 1980–yilgi harbiy to`ntarishga qadar turkeshchilar qo`l ostida 1700 dan ortiq qonuniy g`oyaviy markazlari bo`lib, ularda 200 mingdan ortiq a`zolari va millionga yaqin tarafdorlari bo`lgan<sup>63</sup>. MHP qo`l ostida shuningdek, harbiylashgan qurolli

<sup>62</sup> Arab News // Top Turkish General Warns of Islamist Threat. September 25, 2001.

<sup>63</sup> [http://www.terrorism.com/The Terrorism Research Center/Turkish Hezbollah\(2003\)](http://www.terrorism.com/The Terrorism Research Center/Turkish Hezbollah(2003))

tayyorgarlik lagerlari va radiostansiyalar mavjud bo'lgan. Yakuniy ayblov jarayonida MHP ga moddiy ko'mak bergan holdinglar, pul o'tkazib turgan firmalar va ularning egalari nomi birma-bir keltirib o'tildi. Ko'plab mablag'lar qo'rqituv yo'li bilan o'zlashtirilgan. Siyosiy beqarorlik va chegara hududlarida vaziyatlardan unumli foydalanib kelingan. MHP ning eng katta rejasi bu– “bir millat va bir davlat” tamaliga asoslangan “Turon”davlatini qurish edi. Bu kabi davlatni vujudga keltirishda “kulrang bo'rilar” deb nomlangan jangarilarning faoliyati va hissasi ham inobatga olingan.

MHP tashkil topishidan to Konstitutsion Sud tomonidan yopilishiga qadar dunyoviy hukumatga qarshi gaplarni hech ikkilanmay, ochiqchasiga namoyon qilgan edi. MHP Turkiyada ilk siyosiy mustaqil islom harakati sifatida chiqqan ilk partiya bo'ldi. MHP o'z dasturlarida mamlakatni qanday islomiy rejimda boshqarishni keltirmagan va aniq bir reja ham bo'lmagan. Islomiy islohotlar faqat og'izlarda qolib ketdi. Turkiya Jazo kodeksiga ko'ra 163–moddasi bilan MHP ga ayb qo'yildi<sup>64</sup>. MHP mamlakatda o'rta ta'limga diniy fanni kiritish, halifalikni qumsash, diniy asoslarga tayangan holda faoliyat olib borganlik va Respublikaning oxirgi 50 yili zalolatda o'tganligini ta'kidlaganliklari tufayli ayblov xulosalari qo'yildi.

80–yillarda harbiylarni davlat to'ntarishi uyushtirishi va keyinchalik fuqarolik boshqaruviga topshirilishi mamlakatda yangi ijtimoiy–iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni olib keldi. Hususan bu diniy prinsipdagi siyosiy birlashmalar edi. Ana shunday tipdagi siyosiy arbob Turg'ut O'zal Turkiya davlatchiligini bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqaruvchi jamiyatga aylantira oldi. Hech kim e'tiborga olmagan dindorlar qatlami bozor iqtisodiyotining anonim ishtirokchilari edilar. Shu bilan bechora va faqirlarning soni ortishi Refah partiyasini potensialini belgilab berdi. Ikkinchi respublika borasida bahslar jamiyatda katta bir ziyolilar qatlamini shakllanishiga olib keldi. Ularning orasida birinchi respublikaning qadriyatlarini qulatishga tayyorlari ham bor di. Din hayotida erkinlik yangi bir liberal musulmon ziyolilar doirasini yuzaga keltirdi.

<sup>64</sup> Turkish Daily News // April 21, 2006

Ular guruh va fuqarolik jamiyati, ko'pchilik manfaatini himoyasiga tayyor, ammo tariqat va jamoat degan tushunchalardan mustaqil edilar. Ularning orasida Sulaymon Atesh, Istanbul munitsipaliteti rahbari bo'lgan Erdog'onni maslahatchisi Ali Bulach ham bor. Bu kabilar Menderesning Demokratik partiyasida, Yusuf O'zalni va Jem Boynerning partiyasida hamda Refah partiyalarida shakllangandilar<sup>65</sup>.

**Refah partiyasining yuzaga kelishi.** Bu jarayonlar Refah partiyaning (keyingi o'rinlarda RP) ko'rinishini o'zgartirib yubordi. MNP va MSP ham diniy tariqatlar tarafidan shakllantirilgan edi. Sharqiy Anatoliya hududlari ular uchun qo'llab-quvvatlovchi kuch va tayanch edi. 80-yillarda partiyalar dunyoviylasha bordi. Halifalikni qurish da'vosi va diniy muammolar, ishsizlik muammosi kabilarga nisbatan betaraflasha borish, RP ning ijtimoiy va siyosiy qarashlariga ta'sir etmas edi. Zero 80-yillardan boshlab RP konservativ islomiy harakatlardan voz kechib, o'zining partiyaviy yo'lini tanladi. RP da ikki qanot: "An'anaviychilar" va "Islohotchilar" yuzaga keldi.

"An'anaviy" qanotini tashkil qilganlar o'z diniy mafkurasini ilgari surib, Sharqiy Anatoliya hududlaridan tayanch olardilar. "Yangilik" tarafdori bo'lgan islohotchilar esa Tayyip Erdog'on boshchiligida katta shaharlarni vakillari edilar. Ular konservativ an'anachilarga nisbatan ancha demokrat va dunyoviyroq edi. O'ta reaksiya radikal islomiy shaklda emas edilar. Bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlab, diniy motivlardan voz kechishlari ham bor gap edi.

Refah partiyasi Milli Selamet Partiyasi harbiylar tomonidan yopilgandan keyin Milli Görüş harakati asosida 1980-yil 12-sentyabr davlat to'ntarishidan so'ng tuzilgan edi. Milliy Xavfsizlik Kengashini siyosiy partiyalarning faoliyatiga ruxsat bergach, 1983-yil 19-iyulda advokat Ali Turkman rahbarligida Refah partiyasi MSP ning davomchisi sifatida tashkil etiladi<sup>66</sup>. Bu partiyaning ilk yetakchisi Ahmet Tekdal bo'lib, undan so'ng 1987 yildan to

<sup>65</sup> Киреев, Н. Г. К оценке религиозной ситуации в Турции в 90-е годы // Ислам и политика (взаимодействие ислама и политики в странах Ближнего и Среднего Востока, на Кавказе и в Центральной Азии). – Москва: 2001. –С.111.

<sup>66</sup> Aras B., Caha O. Fethullah Gulen and His Liberal «Turkish Islam» Movement // Middle East Review of International Affairs. – London: 2000. Vol. 4, No. 4, December. –P.231.

partiyaning yopilishigacha boʻlgan davrda Najmiddin Erboqon rahbarlik qilgan. 1983 yilgi saylovlarda Milliy Xavfsizlik Kengashi tarafidan siyosiy faoliyati taʼqiqlangan partiya aʼzolari tufayli partiya saylovlarga qoʻyilmaydi. Shundan soʻng, partiyaga faoliyati taʼqiqlanmagan Ahmet Tekdal lider etib saylanadi.

RP qisqa muddat ichida mamlakat ichida oʻz boʻlimlarini ochdi. Oʻz dasturida maʼnaviy rivojlanish va sanoatlashish murakkablik tugʻdirishiga urgʻu berib, MSPning konservativ diniy asosiga tayana boshladi. Ilk bor 1984 yil 25 martda Ahmet Tekdal boshchiligida mahalliy saylovlarda qatnashdi. Urfa va Van viloyatlarida umumiy 4.44% ovoz bilan yutib chiqishdi<sup>67</sup>. 1986–yilda RP ning 36 ming nafar doimiy aʼzosi mavjud edi. Partiya 1986 yil 28 iyulda 11 viloyat(il)da deputatlik saylovlarida qatnashdi va 4.76 % ovoz oldi. 1987 yil 6 sentyabrda referendum oʻtkazilib, baʼzi faoliyati taʼqiqlangan siyosiy arboblarga faoliyatini yuritishiga ruxsat berildi.

Shu sabab 1987 yil 11 oktyabrda sobiq MSP rahbari Najmiddin Erboqon<sup>68</sup> RP rahbari etib saylandi.

1987 yilda muddatdan oldingi deputatlik saylovlarida RP Najmiddin Erboqon boshchiligida ishtirok etishdi. Jami ovozning 7.16%iga egalik qilishdi. 10% dan ortiq ovoz toʻplay olmaganligi uchun deputatlik mandatiga berilmadi. Partiya 1989 yil mart oyida viloyat mahalliy deputatlik oʻrinlari uchun saylovlarda 9.8% ovoz bilan Qahraman–marash, Sivas, Shanli–urfa, Van va Konya viloyatlarida gʻalaba qozondi. 1991-yil 20-oktyabrda TBMM ga

<sup>67</sup> Vatan // Turkiye'ye daha buyuk kotuluk yapılamazdı. January 20, 2007.

<sup>68</sup> Hokimiyatga qonuniy yoʻl bilan kelgan islomiy liderlardan biri boʻlgan Najmiddin Erboqon 1926–yil Istambulda tavallud topgan. 1948–yil Istanbul Texnika Universitetini bitirib, muhandis – mexanik diplomini oladi. Undan soʻng, Aahen (Germaniya) Oliy Texnika maktabini tamomlagan. 1954–yilda dotsent unvonini olib, 1964–yilgacha kichik "Gyumush motor" dizel dvigatellari zavodida bosh direktor lavozimida ishlaydi. 1965–yilda professor unvonini olib, mamlakatning hususiy sektori manfaatlarini namoyon qiluvchi Turkiya Tovar–sanoatchilar ittifoqi palata–birjasida ishlaydi. Yuqori lavozimlarni egallagan holda, katta sanoatchilar va savdogarlarni tanqidchisi, anatoliya mayda sanoatchilar va savdogarlarning himoyachisi sifatida barchani oʻz eʼtiboriga tortadi. Bunday qoʻllashlardan keyin 1969–yil palata ittifoqini bosh boshqaruvchisiga aylandi. Biroq hukumat uni vakolatini tan olmadi va oʻzlarini nomzodini qoʻllay boshladi. Oʻz kabinetida qoʻriqchilari bilan bir necha kun bosh boshqaruvchini kursisini ushlab turadi. Anqaradagi Palata ittifoqi binosidan kuch bilan tashqariga chiqarilib yuboriladi. Shunday qilib, OAV oldida katta sanoatchi kapitalchilardan kichik tadbirkorlarning himoyachisi sifatida nom qozonadi. 1969–yil Konyada majlisga mustaqil deputat boʻlib saylanadi. 1970–yili yanva oyida oʻzining 17 tarafdorlari bilan Milliy Nizom partiyasini tuzadi. Partiya dasturida laitsizmni inkor etgan holda, islom mafkurasini asosiy deb biladi. Dasturning oltinchi boʻlimida Turkiyadagi dunyoviylik ochiqchasiga tanqid qilgan. Erboqonning "Turkiya va Umumiy bozor", "Islom va fan – Islomdagi ayol–sanoatimiz muammolari" va "Milliy qarash" nomli asarlari mavjud. [http://www.wikipedia.org/Political\\_Islam\\_in\\_Power:\\_The\\_Welfare Interlude/mht](http://www.wikipedia.org/Political_Islam_in_Power:_The_Welfare_Interlude/mht).

saylovlarda Millatchi Harakat partiyasi va Islohotchi Demokratik partiya bilan koalitsion hukumat bilan parlamentda deputatlik mandatlariga ega bo'ldi. 1995 yilgi saylovlarda yaqqol o'rinni olib, parlamentni asosiy o'rinlariga ega chiqdi. Shu saylovlar orqali RP TBMM da 16.90% ovoz bilan 62 deputatlik mandatiga ega bo'ldi. Bu esa TBMM da o'z deputatlik o'rniga ega to'rt partiyalardan biri RP edi. Keyinchalik faoliyatiga ruhsat berilib, qaytadan ochilgan MSP RPga qo'shildi. 1994 yil mahalliy saylovlarda RP katta sakrash qildi. Yuzdan 19.14% ovoz olib Istanbul va Anqara shaharlari vakillik o'rinlarini qo'lga kiritdi<sup>69</sup>. RPning bu g'alabasini "Intermedia" turk agentligi 1994–yil yakunlariga ko'ra, "turk jamiyatida katta sakrash" deb baholadi. RP mamlakatning markaziy–sharqiy va janubi–sharqiy provinsiyalarda katta ovozlarni to'plashiga sabab sifatida Demokratik partiyaning saylovlarda qatnashmaganligida deb ko'rsatildi. Demokratik partiya ayirmachi kurdlar bilan aloqadorlikda ayblanib, tergov jarayonlari ketmoqda edi. RPning o'z tarafdorlarini ko'paytirishda o'z imidjini "Turkiyada qat'iy intizom" saylov dasturi ham muhim rol o'ynadi. Mamlakat siyosiy elitasi davr talablaridan kelib chiqqan holda islohot rejalarini ishlb chiqa olmay, o'ng markazchilarning inqiroz vaqtida hech bir chora–tadbirlarni ilgari sura olmaganliklari ham RPni saylovlarda g'alabaga olib kelganligi haqida fikrlar mavjud. 1995 yil 24 dekabr saylovlarida 21.38% ovoz olib 550 ta o'rindan 158 deputatlik o'rinni qo'lga kiritdi. [ilovada jadval №4 ga qarang] Undan so'ng, Vatan partiyasi 19.65%, To'g'ri Yo'l partiyasi 19.19%, Demokratik so'l partiya 14.64%, Xalq Respublika partiyasi 10.71% ovoz bilan parlamentdan joy olishdi. Bundan tashqari 8 partiya umumsaylovchilarni 10% dan ortiq ovozini ololmay parlamentga kira olishmadi. Hullas bir yo'la uch partiya 5 mlndan ortiq saylovchini ishonchiga kira oldi. "Dunya" gazetasi muhbiri M. Melenning yozishicha, saylov natijalari mashmashasi hech bir samara keltirmadi, aksincha, qalloblik, poraxo'rlik va inflyatsiyani kuchayishiga olib keldi va xalqning masjidlardan boshqa umidi qolmadi. Lekin RP rahbariyati diniy omillarga ko'ra saylovlarda g'alaba qilganliklarini rad etdilar.

<sup>69</sup> [http://www.wikipedia.org/Political\\_Islam\\_in\\_Power:\\_The\\_Welfare\\_Interlude/mht](http://www.wikipedia.org/Political_Islam_in_Power:_The_Welfare_Interlude/mht).

Parlamentda RP guruhini ilk majlisi Qur'on tilovat bilan boshlandi. O'zining chiqishida Erboqon Turkiya Buyuk Millat Majlisining ilk yig'ilishi 70–yil oldin Anqarada Qur'on tilovati bilan boshlanganligini alohida ta'kidlab o'tdi. U shuningdek, RP mafkurasi kamolizm bilan mos tushishligini aytib o'tdi. Lekin partiya a'zolari Konstitutsiyaning 2–moddasida Turkiya demokratik, ijtimoiy, huquqiy va dunyoviy davlat ekanligi haqidagi bandini sharhlashga shoshilishmaydi va bu moddani o'zgaritirish borasida lom–mim og'iz ochishmadi. Lekin bu moddadagi termindan voz kechishning boshqa yo'li ham bor. 4–moddadagi demokratiyaga zid bandni bekor qilish evaziga 1–moddadagi terminni olib tashlash mumkin<sup>70</sup>.

Ma'lumki, keyingi yillar dunyoda diniy to'qnashuvlar, etnik muammolar va tabiiy resurslar uchun kurashlar ketishi ochiq haqiqatga aylanmoqda. Diniy konfliktlar ortida qanday maqsadlar yashiringanligini bilib olish mushkuldir. Turkiyada diniy siyosatni olib borgan partiyalarni tarixda qanday qismat bilan yuzlashganligini bilamiz.

Hullas, 1995–yildan 1998–yilgacha koalitsion hukumatni boshqarib turgan Refah partiyasi mamlakatda iqtisodiy inqirozni yengish uchun Adolatli Iqtisodiy Tartib (turkcha–adil do'zen)dasturi ishlab chiqildi<sup>71</sup>. Mamlakatdagi mavjud adolatsiz iqtisodiyot deb baholagan Refah partiyasi asosiy inqiroz sababi deb, foizli mablag', adolatsiz soliqlar, valyuta ayirboshlash tizimi, pul monetar siyosati va bank tizimini keltirib o'tdi. RP ning bu dasturini harbiylar, yuqori elita qatlami fantaziya va populizm sifatida qabul qildilar. Lekin RPni qo'llagan ijtimoiy qatlam bu partiyaning dasturini katta ishtiyoq bilan kutib oldilar va saylovlarda g'alaba qilishiga sababchi bo'ldilar.

Majlis deputati RP a'zosi E. Yulek "Dunya" gazetasiga shunday deb bildirdi: "Bizning bosh vazifamiz–inflyatsiyani tushirishdir. VP va TYP bilan tuzilajak koalitsion hukumat bilan inflyatsiyani yiliga 50% gacha tushirishimiz mumkin." Mamlakatda kambag'allar kambag'allasha bordi, boylar boyligini

<sup>70</sup> Абдураззакова. М. Политика лаицизма в Турции: история и современность. – Ташкент: 2007. – С.25.

<sup>71</sup> Данилов, В. И. Турция 80-х: от военного режима до «ограниченной демократии». – Москва: 1991. – С.54

oshibirib ola boshlagan edilar. Shu sabab, chet el kapitallarini kirib kelishi va kafolatli bo'lishi shubha ostida qoldi. Aholini ijtimoiy himoya qilish, ishsizlik muammosi va milliy soliq ulushi buzilgan edi. RP inflyatsiyani tushirishning Isroil qo'llagan metodni nima uchun hukumat ishga solmaganligini savol tarzida hukumatga ayb qo'ygan edi. Yulekning aytishicha<sup>72</sup>, hukumat olib borayotgan privatizatsiya siyosati bilan monopoliyani cheklashi va yangi texnologiyalarni qo'llashi kerak. Hukumatning hususiylashtirish siyosati ko'proq "sotaman—u — ketaman" qabilidagi harakatga o'xshab qolgan edi. Davlat mulklari sotilishi ortidan ichki va tashqi qarzlardan qutilish naqsad qilindi. Davlat tashkilotlarini avvalo o'sha tashkilot ishchilariga, yoki mahalliy aholiga, undan so'ng boshqa provinsiyalardagi fuqarolarga va eng oxirida mamlakat tashqarisidagi haridorlarga sotish kerak edi. Hukumat bunday qilmadi. Mamlakatning katta sement zavodlari fransuz monopolistlariga sotildi. Davlat hususiy monopoliya ustidan o'z monopoliyasini o'rnatishi kerak edi.

Normativ huquqqa ko'ra, prezident yangi hukumatni shakllantirishni ko'proq mandatga ega partiya lideriga topshiradi. Vaziyatdan kelib chiqadigan bo'lsak, gap koalitsion hukumat haqida ketayotgan edi. Dastlab hech kim islomiy partiya bilan hamkorlik qilishni istamadi. Saylovlardan keyin To'g'ri Yo'l partiysi lideri Tansu Chiller o'z chiqishida Erboqon kabi mamlakat bilan savdolashmasligini va u hech qachon hamkorlikdagi koalitsiyada kelisha olmasligini aytadi. Biroq hech vaqt o'tmasdan o'zining g'azabli chiqishini unutgan T. Chiller islomchilar bilan hukumat stolida o'tirgan edi.

Saylovlardan so'ng, koalitsion hukumatni shakllantirish borasida uzoq kelishuvlar boshlandi (Erboqon hukumatni faqat o'zining partiya vakillaridan tuza olmas edi). 1996-yil fevralda Anavatan partiyasi lideri Mesut Yilmaz bilan kelishishga yaqin turganda ularning ittifoqi uzildi. Shunda prezident Sulaymon Demirel yangi hukumatni tuzishni Mesut Yilmazga topshirdi. Lekin uning partiyasi parlamentda ko'p o'ringa emas edi. Shu tufayli 1996-yil iyunda u tuzgan hukumat tarqab ketdi. Bu safar endi S. Demirel yangi hukumatni

---

<sup>72</sup> Vatan // Turkiye'ye daha buyuk kotuluk yapilamazdi. January 20, 2007.

shakllantirish uchun Erboqonga murojaat qiladi. Erboqon 1996–yil 28-iyunda T. Chiller bilan koalition hukumatni tuzishga kelishadilar. 28-fevralda To'g'ri Yo'l partiyasi bilan tuzgan koalitsion hukumati 1996–yil 28-iyunga TBMM da ishonch votumini oldi<sup>73</sup>. N.Erboqon bosh vazir bo'ldi. Majlis deputatlarini 550 tasidan 278 tasi bu koalitsion hukumatni yoqlab ovoz berdi. Tahlilchilarning fikricha, bunday bir–biriga qarama–qarshi alliyans liderlari parda ortida bir maqsad bilan kelishishganligi va bu orqali T. Chillerni bosh vazirlik vaqtidagi korrupsiya jinoyatlari va Erboqonni Bosniya uchun yig'ilgan 10 mln. marka mablag'ni yo'qolganligi borasidagi mashmashalarni parlament tergovini o'tkazilmasligi va ishni Konstitutsion Sudga ko'rilishidan qochish deb baholashdi.

O'tkan asrning 70–yillarida muholifat vakillari Erboqonni tarvuzga o'xshatishgan: “sirti–yashil, ichidan –qizil”. Bu RP ni nafaqat islomiy partiya ekanligiga, balki u turk jamiyatini antikapitalistik kayfiyatga yo'naltirishga harakat qilganligida namoyon bo'lgan. Turkiya parlamentida islomchilar faqat Erboqonni partiyasidan bo'lmagan. 1995 yilgi dekabr saylovlarida M. Yilmaz partiyasi bilan bir koalitsiyada Buyuk Birlik partiyasi ham qatnashgan. Saylov natijalariga ko'ra ular parlamentda 8 o'rinni olishgan. Keyinchalik koalitsiya parchalandi. Buyuk Birlik partiyasi 1993–yil A. Turkeshning Milliy Harakat o'ng partiyasidan ajralib chiqib faoliyatini boshlagan edi. Partiya asosi millatchilik va islomchilikka asoslangan edi.

Erboqon bosh vazir etib tayinlanishi bilanoq, jandarmeriya va harbiylar, davlat xizmatchilarini maoshlarini 50%ga oshirib, sahovatpesha ekanligini namoyish qilishga harakat qildi. Erboqon muholifatdaligidayoq, mamlakatda “dinor” valyutasiga o'tish va butun musulmon davlatlarini ushbu pul birligiga o'tishi uning g'oyalaridan biri edi. Ayollarga nisbatan islom shariatiga asosan muomala qilish nazarda tutilgan edi. Shu sabab RP tarkibida birorta ayol a'zosi mavjud emas edi. Erboqon “Adolatli islom tartibotini” joriy etishga, NATO, Yevropa Ittifoqi va BMT ga o'xshash islomiy tashkilotlarni tashkil etishni va

<sup>73</sup> The Guardian // Turkish Islamists aim for power, November 27, 1995.

miqyos darajasi Qozog'istondan tortib to Marokash hududlarigacha yoyilishi maqsad qilingan edi.

Erboqon bundan tashqari kurd separatçilariga qarshi kurash ketayotgan hududlarda favqulodda holat e'lon qilingan 10 viloyat sonini 5 viloyatga tushirishni taklif etadi. Bu esa aksarini harbiylar tashkil etadigan Milliy Xavfsizlik Kengashini e'tiroziga sabab bo'ldi. Bundan tashqari RP Anqara va Istanbulda islom aqidaparast guruhlarini noqonuniy namoyishiga ruhsat berdi. Bu RPning o'ziga ochiq dushman orttirib borishi bo'ldi. RP hokimiyatda turgan paytda vazifasidan tushirilgan ba'zi siyosatchilarni mamlakatning janubi-sharqiy viloyatlarga hokim qilib yuborgan. Bu viloyatlarga hokim qilib yuborilgan shaxslar separatçi kurd jangarilariga qarshi Xizbulloh terrorchi guruhlardan foydalanishga harakat qilganliklari haqida ma'lumotlar bor. Erboqonni o'zi ham 1993–yilda islom birodarligi bilan kurd jangarilariga qarshi kurashish mumkin deb aytgan, lekin o'sha islom birodarligi bo'lgan terrorchi guruhlarini qilmishlari haqida eslab o'tirmagan ham. 1995–yilgi saylovoldi kompaniyasi oldidan RP dan bo'lgan vakil Abdulla Gul matbuotda chiqish qilib partiyaning hech qaysi terrorchi guruhlar bilan munosabat o'rnatilmaganligini va bu partiyaning saylovoldi jarayonlariga salbiy ta'sir o'tkazishga harakat deb baholadi. Boshqa bir partiya a'zosi bu bo'htonni g'arbning provokatsiyasi deb atadi.

RPning islomlashtirishda olib borgan yana bir siyosati bu Ayo Sofiya muzeyini masjidga aylantirish haqida 1996 yil oktyabrdagi qonunni ko'rsatish mumkin. Bu haqda RP a'zosi vazir Ahmet Jamil Tunjning rasmiy chiqishida Ayo Sofiya muzeyini masjidga aylantirish ishlari boshlanganligini ma'lum qildi.

1997 yil 21 may oyida Turkiya Kassatsion Sudi bosh prokurori Vural Savash RP ga nisbatan “respublika laitsizm shioriga zid xatti–harakatlar”ga oid da'voni ko'tarib chiqdi. 8 oy davom etgan sud jarayonidan keyin 1998 yil 16 yanvarda Konsitutsion Sud tomonidan RP yopildi. Najmiddin Erboqon, Shevket Kazan, Ahmet Tekdal, Shevki Yilmaz, Hasan Husayn Jeylan va Ibrahim Halil Cheliklar 5 yil muddatga siyosaydan chetlatildilar. Asosiy ayblov davlat

kamolchilik prinsiplarini buzulishi, hijob masalasi va shariat ahkomlarini mamlakatda joriy etishga urinish deb baholandi. Bundan tashqari partiya dasturida Turkiyani ma'naviy rivojlanishini ta'minlash, odil tartibotni o'rnatish, og'ir sanoatni rivojlantirish, islom mamlakatlari bilan aloqani mustaxkamlash, foiz tizimini bekor qilish, Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga kirishi befoyda ekanligi kabi diniy tamal qo'yilgan edi.

1997–yil boshlarida RP a'zosi bo'lgan vazir Abdulloh Gul huddi Yevroparlamentga o'xshash “aralash turk parlament”i loyihasini taklif etdi. Bu o'z navbatida islomiy fikr emas, balki panturkistik g'oya edi.

Islomiy hukumatning ishlariga harbiylarning aralashuvi ilk bor 1996 yil kuzida boshlangan edi. Genshtab rahbari Ismoil Hakki Karadayi Turkiyada islomchilarni ko'payib ketayotganidan xulosa chiqarish vaqti kelganini aytdi.

1996–yil sentyabrida vazirlar kengashini Iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari yig'ilishida T. Chiller Eron tashqi ishlari vaziri Veloyatidan Kurdiston Ishchi partiyasiga qarshi chora ko'rishni talab qildi va bu bilan Turkiyaning Eron chegaralarida harbiy operatsiyalarni olib borishga tayyor ekanligini ko'rsatdi. T. Chiller “do'stlik faqat so'zlarda qolib ketmaslik kerakligini, yoki amaliy harakatni biz boshlaymiz” –degan gaplarni bildirgan ham edi.

Eron hukumati Suriya va Eronni bog'lab turuvchi Shimoliy Iroq hududidan avtomagistral qurilishini boshlashi turk hukumatini havotirga solib qo'ydi. General shtab bu hududda yo'l qurilishini oldini olishda to'g'ri kelsa, harbiy kuchni qo'llashni prezident S. Demirelga taklif qilishdi. Chunki bu hududlarda 3 mingga yaqin jangarilar joylashishgan va bu qurilajak avtomagistral ularni harakatini qulaylashtiradi.

Harbiylarning Erboqonga nisbatan noroziliklarini turlicha ifodalay boshlashdi. 1996–yil avgust oyida Erboqon harbiy tibbiyot akademiyasida diplom topshirish marosimiga borganida uning shaxsiy tansoqchilari soqol qo'yganliklari uchun kiritilmagan.

Hukumatning koalitsion kuchlari Erboqonni istefosiga qadar ko'plab siyosatchilar tezda istefo berib Sud javobgarligidan qutilib qolishga harakat

qildilar. Erboqonni Makkaga qilgan 25 – hajini armiya generallari tanqid qilib dunyoviy davlat ildiziga zahar tushurganligini bildirib bunga qarshi kurashda hech nimani ayamasliklarini aytishdi.

Erboqon hukumati mamlakatda iqtisodiy islohotlari natija bermagach, inflyatsiya va byudjet defitsiti tufayli Turkiya inqirozga keta boshladi.

Erboqon hukumatini harbiylar tomonidan 1997–yil 18 iyunda chetlatilgach, RP hokimiyatda boʻlgan vaqt oraligʻida Turkiya tashqi qarzi 73.3 mlrd AQSh dollarini tashkil etardi. Ichki qarz miqdori 4 kvadrillon liraga teng edi. Byudjet kamomadi rekord daraja 1.2 trln ga va 1997–yil 520 trln liraga yetgan edi. Asosiy oziq ovqat mahsulotlariga boʻlgan narx sakkiz barbar oʻsdi. Reja qilingan sanoatlashish darajasi meyoridan ikki barobar kam mablagʻ foydani keltirdi.

Erboqonning hokimiyatda turgan vaqtida unga qarshi siyosiy ayblovlar qoʻyila boshlandi. Xalq Respublika partiyasi lideri Deniz Baykalning bildirishicha, 1989–yil saylovlarida N.Erboqon mahalliy vakillik organlariga boʻlgan saylovlar vaqti Livianinig islomiy tashkilotidan 500 ming dollar miqdorda yordam pulini olganligini keltirib oʻtdi. Turkiya qonunchiligi boʻyicha mamlakat siyosiy partiyalari xorijiy tashkilotlardan yordam puli olishi mumkin emas.

Oʻzining yetmish yoshda ekanligiga qaramay N. Erboqon 1996–yil oktyabrda boʻlgan RP taʼsis syezdida beshinchi bor partiya liderligiga saylandi. Bu syezdda chiqish qilgan Erboqon saylovchilarning aksari ularning tarafida ekanligini va hech qanday saylovlardan qoʻrqmasligini taʼkidladi. RP ga oʻxshash shiorlarni mamlakatda shuningdek “Adjizmendi” soʻfiylik tariqati rahbari Muslim Gyunduz ham hech yashirmasdan matbuot orqali chiqish qilib, oʻzining “Milliyet” gazetasiga bergan intervyusida Afgʻonistonda toliblarni hokimiyatda shariatni joriy qilganliklarini maqtagan. Bundan tashqari u Jazoir, Sudanda, Chechenistonda, Pokistonda shariatni davlat boshqaruviga joriy etishda harakatlarni ijobiy baholagan. Bu harakatni Turkiyada boshlashning vaqti kelganligini ham taʼkidlagan. Agar xalq shariatga nisbatan

ragʻbat qilsa, uni armiya ham toʻxtata olmasligini aytgan edi. Bunga misol qilib Eron islom inqilobini keltirgan. Lekin armiya generallarini sabr kosasi toʻlgan edi. 1996–yil oxiriga kelib qonun doirasidan chiqmasdan islomiy hukumatga qarshi harakatni boshlab yubordilar. Mamlakatning ichki va tashqi siyosatini general Chevik Bir keskin tanqid qilib chiqdi. 1997–yil fevral oyida prezident huzuridagi Milliy Xavfsizlik kengashi 9 soat davomida Turkiya davlati asoslariga xavf tugʻdirayotgan islom radikallari faoliyati borasidagi masala koʻrib chiqildi. Bu majlisning uyushtirilishiga RP ning ayollarning davlat muassasalarida hijob kiyib yurishlari masalasini koʻtarib chiqishlari sabab boʻldi. Bundan tashqari islom harakati vakillari Istambulning Taksim maydoni oldida va Anqarada prezident saroyi oldida masjid qurish rejasi bilan chiqqan edilar. Harakat vakillari parlament majlisida poytaxtni Anqaradan Erzurum yoki Diyorbakirga koʻchirish masalasini koʻtarib chiqdilar. Bu ikki shahar sharqda joylashgan boʻlib, RP aʼzosi deputat Mustafo Kamalakning fikricha, bu Turkiyaning sharqqa intilishini ramziy maʼnosini bildiradi. Armiyaning sabr chegarasini bosib oʻtishida RP ning yana bir uyushtirgan tadbiri katalizator vazifasini oʻtab berdi. Anqaraga yaqin Sinjon shahrida “Quddus kechasi”ni uyushtirilgan tadbirda Eron elchisi Turkiyada shariat tartibotini oʻrnatishga ochiqcha daʼvat qilgan edi. Shundan soʻng General shtab zudlik bilan tashqi ishlar vaziri birinchi oʻrinbosari Onur Oymenni chaqirib, tezda Eron elchisi Muhammad Rizo Bageriyni mamlakatdan chiqarib yuborilishini ultimatum tarzida oʻrtaga tashladi. Eron elchisi esa oʻz mamlakatiga Tehronga konsultatsiyaga yuborildi. Turkiya generaliteti tezda “mamlakatda kim xoʻjayin” ekanligini koʻrsatib qoʻyish maqsadida va islom harakatini “olov bilan oʻynashmaslik”ni ogohlantiruv sifatida Sinjon shahriga harbiy mashgʻulotlarni uyushtirish niyati ila namoyishkorona harbiy texnikalar koʻchalardan oʻtkazildi. Harbiylarni bu “kesatishi” ortida tarixda Turkiya uch bora harbiy toʻntarishni koʻrganligi yotar edi. Milliy Xavfsizlik kengashi hukumatni yashil bayroqlardan va arabcha yozuvdagi shiorlardan siyosiy maqsadda foydalanishni va yangi diniy litseylarni qurishni taʼqiqlab qoʻydi. Oʻsha paytlarda Turkiyada 600 dan

ortiq diniy o`quv yurtlari mavjud edi. Bu tahdidlarga javob tariqasida Erboqon generallarni mana 15 yildirki kurdlar masalasini qurolli kuch bilan hal eta olmayotganliklarini va agarda uning partiyasi bilan muammoni keltirib chiqarishsa, mamlakat aholisini yarmi bilan kurashishlariga to`g`ri kelishini aytgan edi.

RP deputati Shevki Yilmaz o`z partiyasini xorijdagi islom guruhlariga munosabati haqida to`xtalib, Falastindagi Xamas guruhini terrorchi guruh deb atamadi. U bu guruhni huddi 70 yil oldin Turkiya kabi vatan ozodligi uchun kurashayotganligini aytdi. Isroildagi bomba portlashlarida Xamasning emas Mossadning qo`li borligini va bunda barcha ayblarni musulmonlarga yuklayotganligini ta`kidladi. Sh. Yilmaz Isroil degan davlatni umuman tan olmasligini bildirdi.

1997–yil bahorida vaziyat jiddiylashdi. Aprel oyida Erzurum viloyati divizion qo`shin generali, jandarm qo`shinlari qo`mondoni Usmon O`zbek Erboqonni 25–bor bajo qilayotgan Makka hajini tanqid qildi va Saudiya qiroli manziliga qarshi hurmatsizlikni bayon qildi. General to`g`ridan–to`g`ri Erboqon bilan kurashishga tayyor ekanligini aytdi. Yana bir general Kenan Deniz 29–aprelda islom harakati bilan jonga–jon bilan kurashishga chaqirdi. Harbiylarni davlat to`ntarishiga tayyorgarliklari borasida matbuotda xabarlar tarqala boshladi. Turkiya prezidenti mamlakatda harbiy kuchlarni va davlat boshqaruv institutlarini nizoga borishini oldini olish harakatini muhim hisoblab chiqish qildi.

Koalitsion hukumatda Erboqon va Chiller tandemiga darz keta boshladi. Chiller va uning safdoshlari mamlakatda 10 yillik majburiy ta`limni joriy etishni va ta`lim tizimini isloh qilishni taklif etganda bu RP a`zolari tomonidan qabul qilinmadi.

Asta sekin mamlakatning ichki va tashqi siyosatining muhim masalalarini hal etish general shtab va prezident qo`liga o`ta boshladi. Parlamentda mavjud hukumatga ishonchsizlik votumini berish uchun shunga xayrihoh deputatlar

guruhi yig`ila boshlandi. Keyin esa, hukumat a`zolari va vazirlarni ishdan olish va iste`foga chiqarishning ssenariylari ishlab chiqila boshlandi.

Harbiylar Erboqonni qonuniy yo`l bilan siqishga harakat qilib, iloji boricha Turkiyaning xalqaro maydonda harbiy to`ntarish uning YI ga a`zoligi yo`liga nuqta qo`ymasligi uchun ehtiyotkorlik choralari ko`rildi.

1997–yil Chillerning yaqin safdoshlari bo`lgan ikki vazir hukumatning qulashini tezlatish uchun istefo berishdi. Bu ish Milliy Xavfsizlik kengashini yig`ilishiga ikki soat qolganida qilindi. Kengash yig`ilishida esa Turkiya islom harakatiga nuqta qo`yilish zarbasi berilgan edi.

Bunday harbiylarning dadil harakatidan ilhomlangan muholifat partiyalar vaziyatdan foydalanib, 16–may kuni parlament ishiga hukumatga ishonchsizlik votumini berish masalasini kiritdi. Biroq 20–may kungi parlament majlisida bu masalani amalga oshirishga deputatlarning 11 ovozi yetmadi (265 kishi –“ha”, 276 kishi–“qarshi”). Bu Erboqon hukumatiga parlament orqali ishonchsizlik votumini berishni 12–bor urinish edi<sup>74</sup>. Muholif Mesut Yilmazning parlament minbarida turib, ovoz berish jarayonidan oldin “Otaturkning dushmanlari bilan Turkiya genshtabi kelisha olmaydi”– degan gapidan keyin janjal boshlanib ketishiga sal qoldi.

Harbiylar Erboqonni yoz oyida bo`lishi reja qilingan O`rta Yer dengizida Turkiya Harbiy Dengiz Kuchlarini Isroil va AQSh bilan hamkorlikdagi o`quv–mashg`ulotlarini noma`lum muddatga ko`chirishiga g`azablanishdi<sup>75</sup>. Bosh vazir esa bunga sabab qilib Isroilni AQShdan qurol–yarog` olishini motiv qilib ko`rsatdi. Harbiylar esa Isroilni Turkiyaning potensial raqiblari Suriya, Gretsiya, Eron va Iroqqa qarshi turishda asosiy hamkor kuch sifatida ko`rishar edi.

7–may kuni yana bir vazir istefoga chiqdi. Unig ketidan Turkiya Appelyatsion Sud prokuraturasi davlatni dunyoviy poydevoriga zarar yetkazganligi va konstitutsiyasiga qarshi harakatlar tufayli RP ni yopilishi borasidagi ishni qo`zg`adi.

<sup>74</sup> М. Абдураззакова. Политика лаицизма в Турции: история и современность. – Тошкент: ООН, 2007. – С.45.

<sup>75</sup> [http://www.wikipedia.org/ Political\\_Islam\\_in\\_Power:\\_The\\_Welfare Interlude/mht](http://www.wikipedia.org/ Political_Islam_in_Power:_The_Welfare_Interlude/mht).

Erboqon real hokimiyatni qoʻldan boy bera boshladi. May oyi oxirida Erboqon harbiylarni siquvi bilan armiya tarkibida 161 harbiy xizmatchini diniy targʻiboti uchun haydalishi haqidagi hujjatga imzo chekishga majbur boʻldi. Chiller ham yangi saylovlarni oʻtkazish haqida chiqishlar qila boshladi. 1–iyunda Erboqon yangi salovlar oʻtkazishga rozilik berdi. Koalitsion hukumat shartiga koʻra Erboqon bosh vazirlikni T. Chillerga topshirishi kerak edi. 4–iyunda Erboqon kechiktirgan Harbiy Dengiz Kuchlarini mashgʻulotlari boshlab yuborildi. Shunday sharoitda Erboqon “Islom sakkizlik” davlatlari sammitida tashkilot mavqeyini oshirishga harakat qildi, ammo bu uchrashuvlar natija keltirmadi. 13–iyun kuni yana bir vazir istefo berdi.

Harbiylar ochiqdan–ochiq endi Erboqonga tahdid qila boshlashdi. Respublikani xavf ostida qolganligini va harakatni boshlash kerakligini Genshtabning birinchi oʻrinbosari Chevik Bir gapirib oʻtdi. Matbuot markazlarida va briffinglarda harbiy generallar mamlakatda 30 dan ortiq islomiy radikal tashkilotlar mavjudligini va ular hohlagan payti terrorga borishlari mumkinligini taʼkidlashdi. Harbiylarning soʻziga koʻra, davlat boshqaruvining barcha jabhalariga islom harakati vakillari kirib borganliklarini va bu Erboqonni bosh vazir boʻlgandan soʻng yuz berganligini aytishdi. Matbuotda islom harakati 19 gazeta, 110 jurnal, 51 radio, 20 telekanal, 500 ta fond, 1000 ta firma va 800 ta oʻquv yurtlari mavjudligi koʻrsatib oʻtildi. Islom harakatiga qarshi Genshtabda mahsus “Gʻarbiy ishchi guruh” tuzildi.

Harbiylar maqsadlariga erishdilar. 1997–yil 18–iyunda Erboqon istefo berishga majbur boʻldi. Erboqonni 11 oylik bosh vazirligi davomida Turkiya tashqi qarzi 793.3 mlrd dollar, ichki qarz 4 kvadrillion liraga yetgandi. Byudjet defitsiti 1996–yil iyunda 1.2 trln lira boʻlgan boʻlsa, 1997–yil mayga qadar 520 trln liraga yetgan<sup>76</sup>. Yoqilgʻi narxi sakkiz barobar, oziq–ovqat ikki barobar oshgan. Mavjud sanoat korxonalarini sogʻlomlashtirish uchun ajratilgan 30 mlrd dollar mablagʻ foyda keltirmadi.

<sup>76</sup> <http://cdy.sagepub.com/cgi/content/abstract/17/2/107>

Prezident Demirel koalitsion hukumat shartlariga ko'ra hukumatni shakllantirishni Chilleriga topshirmadi, aksincha Mesut Yilmazga vazirlar kengashini tuzishni topshirdi. Yilmaz ikki sotsial–demokrat partiyalarning ko'magiga tayana boshladi. Shunda ham hukumatda korrupsiya va josuslik kabi ayblovlarchiqa boshladi.

1997–yil 30–iyunda prezident Sulaymon Demirel Vatan, Demokratik so'l va Demokratik Turkiya uchun partiyalari asosida shakllantirilgan yangi hukumatni tasdiqladi (bu tarixda 55–hukumat edi).

Turkiyada Yevropaning liberal demokratiyasi “sharqona” shaklda namoyon bo'ladi. Otaturkning qattiqqo'l pragmatik bo'lganligi uchun hozirgi Turkiyani ko'rishimiz mumkin. 1922–yil 1–noyabr kuni Buyuk Millat majlisida Turkiyaning suvereniteti e'lon qilinayotgan paytda Otaturk minbarda turib shunday degan edi: “Boshqaruv Alloh tomonidan berilgan. U kuch–qudratga tayanadi...va faqat shu kuch–qudrat orqali erishish mumkin”.

Prezident S. Demirel 1994–yildayoq Turkiyaning qulay hamkorlik mintaqada ekanligini va qanchalik musulmon konservatizmidan uzoq ekanligini aytgan edi. Ammo keyinchalik o'zi hukumatni islomiy partiyaga topshirishi hayoliga ham kelmagan bo'lsa kerak. Turkiyadagi vaziyat shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tish va laitsizmni ushlab turish kabilar ko'pchilik tomonidan qabul qilinishi qiyin bo'lishini ko'rsatmoqda.

1999-yil aprel oyidagi parlament saylovlari kutilmagan natijalarni keltirdi. Saylov natijalariga ko'ra, Demokratik so'l partiya 22,1% ovoz bilan birinchi, undan keyin 17,9% ovoz bilan Milliy harakat(MHP) partiyasi va uchinchi bo'lib, konstitutsion sud tomonidan yopilgan Refah partiyasining merosxo'ri sifatida Fazilat partiyasi 15,5% ovoz bilan refahning oldingi deputatlik o'rinlarini saqlab qoldi. Fazilat partiyasining bu g'alabasini ag'darilgan Refahdan so'ng, tahsinga loyiq ko'rish mumkin. Markazchi partiyalar so'nggi 20 yil ichida o'zlarining kutilmagan mag'lubiyatlarini qabul qilib olishdi. Hatto mamlakatning obro'li Xalq Respublika va Sotsial Demokratlar 10% ovoz ham ololmay, parlamentga kira olishmadi. Ammo keyinchalik Fazilat partiyasini

"mamlakat dunyoviylik tamoyillarini buzishlik"da ayblanib Konstitutsion Sud tarafidan yopildi. Fazilat partiyasi yopilgach, partiya ikkiga: Saodat(lideri Rejai Kutan) va Adolat va Taraqqiyot partiya(lideri R. T. Erdog'on)lariga ajradi. idan keyin tuzilgan Saodat partiyasini qismati Fazilat partiyasi kabi bo'ldi. Adolat va Taraqqiyot partiyasi o'z yo'nalishini o'zgartirib, 2002-yilda hokimiyatga erishdi.

**Kurdlar muammosi.** Turkiyada mana 80 yildirki, o'z mustaqilligi uchun kurash olib borayotgan etnik toifa – kurdlar muammosi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Turk hukumati va Kurdiston Ishchi partiyasi o'rtasidagi kurash 1984–yildan beri tingani yo'q. XX asrda kurdlar ko'p sonli xalq sifatida o'z mustaqil davlatiga ega emaslar. 1920–yil Sevr shartnomasiga ko'ra Turkiya Antanta bilan mustaqil Kurdiston davlatini tuzilishi kerak edi. Lekin shu reja Lozanna shartnomasi (1923) tufayli bekor bo'ldi. 1920–30–yillarda kurdlar bir necha bora isyon ko'tardilar, ammo omadsizlikka uchradilar. Kurdlar asosan Turkiyaning janubi–sharqiy hududlarida 230 ming kv.km. maydonni egallagan mintaqada yashashadi<sup>77</sup>. Kurdlar Agri, Bitlis, Van, Gaziantep, Diyarbakir, Kare, Kahramanmarash, Malatya, Mardin, Mush, Siirt, Urfa, Xakkara, Elyazik, Erzinjon va Erzurum provinsiyalarida, Istambul va Anqara shaharlarida istiqomat qilishadi.

Kurd millatchiligini kuchayishi bilan 1978–yil Kurdiston Ishchi partiyasini vujudga keltirdi<sup>78</sup>. KIP kurashining birinchi bosqichida (1984–1993) Turkiya hududida mustaqil Kurdistonni barpo etish bo'lgan. Keyinchalik bu Turkiya hududida kurd avtonomiyasini tashkil etish bilan o'zgartirildi. Bu davrlarda kurdlar millat sifatida tan olinmadi (turk hukumati kurdnlarni "tog'lik turklar deb atashadi")va kurd tilidan foydalanish ta'qiqlangan edi<sup>79</sup>. 1984–yil 15–avgustdan boshlab kurdlar Turkiyaning janubi–sharqiy provinsiyalarida partizanlik kurashlarini boshlab yubordilar. 1987–yilda turklarning muntazam armiyasi

<sup>77</sup> Kirişçi Kemal. Winrow Gareth. The Kurdish Question and Turkey: An Example of a Trans–State Ethnic Conflict. – London: Frank Cass, 1997. – P.65.

<sup>78</sup> <http://www.kurdishcenter.ru/index.php?option>

<sup>79</sup> Metin Heper and Ahmet Evin. The State, Politics and Religion in Turkey, in State, Democracy and the Military. Turkey in the 1980s. – Berlin/New York: Walter de Gruyter, 1988. – P.14

kurashga tashlandi. Kurdlar asosan Shimoliy Iroq hududlaridagi lagerlardan Turkiya hududiga kirib borardilar. Kurd partizanlariga qarshi kurash maqsadida turk armiyasi 1995–1997–yillarda Iroq hududida yirik harbiy operatsiyalarni uyushtirdi.

Kurdlarga qarshi kurashda Turkiyaning erishgan katta yutuqlaridan biri KIPning yetakchisi Abdullah Odjalanni 1999–yil 15–fevralda Keniyada AQSh va Isroil maxsus xizmati tomonidan qoʻlga olinishi boʻldi<sup>80</sup>. A. Odjalan qoʻlga tushishidan oldin KIPga tinchlik kelishuviga chaqirgan edi. U qoʻlga tushgach, hamma qurolli kurd kuchlarini butun shimoliy iroq hududlariga tortib chiqishni buyurdi. Shundan boshlab kurdلarni partizanlik harakatlarida susayish yuz berdi. 2000–yilga kelib barcha harbiy harakatlar deyarli toʻxtadi.

---

<sup>80</sup> Kirişçi Kemal. Winrow Garet. The Kurdish Question and Turkey: An Example of a Trans–State Ethnic Conflict. –London: Frank Cass, 1997. P14

## **II–bob. Turkiya ijtimoiy tizimida islom omili**

### **2.1. Ijtimoiy–siyosiy islohotlar va uning diniy hayotga taʼsiri**

1996–yil Turkiya prezidenti Sulaymon Demirel rasmiy tashrif bilan AQShga borgan vaqti gʻurur bilan Turkiyani mintaqada yagona demokratik dunyoviy davlat ekanligini taʼkidlagan edi. Darhaqiqat, Demirel haq soʻzni aytgan edi. Chunki 1925–yildayoq Konstitutsiya 2–moddasida Turkiyaning dunyoviy davlat ekanligiga urgʻu berilgan edi. Tarixchilarning taʼkidlashlaricha, Turkiyada dunyoviylik prinsipi gʻarb davlatlariga qaraganda evolyutsion tarzda emas, balki toʻgʻridan-toʻgʻri inqilobiy entuziazm harakati ila katta elita, davlat byurokratiyasi va yosh armiya ofitserlari tomonidan qilingan ishlar natijasida oʻrnatilgan edi. Dunyoviylik prinsipi oʻrnatilishida qanchadan–qancha islom ulamolarini qurbon boʻlganligi barchaga maʼlum. Dunyoviylikka qarshi barcha islomchilarning kallasi boshidan judo etilgan. Turk tarix adabiyotlarida kamolchilar harakatini shariat tuzumi himoyachilariga nisbatan qilgan shavqatsizliklari haqida hech nima deyilmaydi. 1994–yil rejissyor Metin Chamurjuning Otaturk haqidagi filmi mamlakatdagi elita intelligensiyasi orasida norozilikni keltirib chiqardi. Goʻyoki, bu film Otaturk xotirasiga nisbatan dushmanlik deb baholandi. Bu ayblovlarga javoban film rejissyori fimdagi barcha voqeylik tirik tarix: soqoli kesilgan shayxlar, qabri qazib olinib tahqirlangan diniy olimlar mayitlari kabi hodisotlar deb tasdiqladi. Bunday shavqatsiz davr haqiqatlariga yetishishga harakat qilayotgan hozirgi yosh turk tarixchilari Otaturkning oʻzi diniy eʼtiqodni rad etgan degan xulosaga ham kelmoqdalar. Tarixchi J. Dyundar oʻzining Otaturk haqidagi maqolasida Otaturk general K. Karabekir bilan suhbatida "avvalo diniy fikrlashni yoʻq qilish kerak" deb aytgan ekan. Yana bir ingliz jurnalistiga "butun dunyodagi dinlarni dengiz tubida koʻrishni xoxlashini" goʻyoki aytgan. Otaturkni xudosizlik ayblovlarini rad etgan holda, 1989–yilda professor I. Giritli "Istambul Tijaret" gazetasida taniqli din arbobi M. Jinniyning "Otaturkchalik hali hech kim dinga xizmat

qilmagan<sup>81</sup> degan soʻzlarini keltiradi. Giritlining taʼkidlashicha, Otaturk va turk millati butun bir musulmon olamiga va zalolatdagi xalqlarga najot yoʻlini koʻrsatdi. Fanatizm va aqidaparastlik avj olgan jamiyatlarga rivojlanishning yangicha fikrlarini namuna qildi. Otaturkni ateizmga qarshi boʻlganligi va din siyosat quroli boʻlishini istamagan. Otaturkning dushmanlari qatorida dindorlardan tashqari Yevropa kapitalistlari bilan aloqada boʻlgan arman, yunon, yahudiy savdogarlari va Istambulning yirik burjuaziyasi vakillari bor edi. Keyinchalik II-jahon urushi yakunidan keyin yirik burjuaziya yordami bilan Turkiyaning ilk liberal harakati vakillari Jelal Bayar boshchiligida hokimiyatga keldi. Panturkistik va panturonistik pozitsiyada turganlar oʻz oʻrinlarini liberallarga boʻshatib berdi. Liberallarga asosiy raqib Ismet Inoʻnyu boshchiligidagi Xalq Respublika partiyasi edi. Liberallar burjuaziya vakillari talablariga koʻra, AQSh va NATO aʼzolari bilan aloqalarni mustahkamlash va xorijiy kapitallarni jalb etish, davlat mulklarini hususiyalashtirish, erkin eksport-import masalalarini yoʻlga qoʻyish kerak edi. Demokratik partiya Jelal Bayar va Ednan Menderes boshchiligida diniy erkinlik (masjidlarda azonni arabcha aytish va ayollarni hijobda bemalol yurishlari) yoʻli bilan millatchilikni diniylik bilan sintez qilib, oʻsib borayotgan kommunistikga qarshi kurashishda yordam beradi degan fikrda edilar. Muholifat DPning faoliyatini harbiylar koʻmagida olib tashladi. Keyinchalik, 1965-yilda DPning merosxoʻri Adolat partiyasi hokimiyatga keldi. U ham liberal siyosatni olib bordi. Mamlakatda soʻl terrorchi oqimlar kuchayib ketishi natijasida siyosiy beqarorlik vujudga keldi. 1970-yilda harbiylar yana hukumatni tarqatib yubordi. Endi soʻl markazchilar XJP lideri yosh siyosatchi Byulent Edjevit boshchiligida hukumatni yangi dastur ishlab chiqib boshqarayotgan edi. Lekin ular ham tez orada hokimiyatni boʻlishishga toʻgʻri keladi. 1977-yilgi saylovga Adolat partiyasi XJP bilan teng ovoz toʻplab koalitsion hukumatni boshqaradilar.

---

<sup>81</sup> Eurasianet // Turkey: Religious Minorities Watch Closely as Election Day Approaches. – July 19, 2007. – P.16.

80–yillarning boshlarida islom iqtisodchilari Mehmet Dog`an va A. Debbagoglu Turkiyaning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishida islom iqtisodi prinsiplarini o`z kitoblarida keltirishdi. Mehmet Dog`an panturkizm va g`arblashtirish jarayonlari mafkurasini tanqid qildi va asriy islomiy an`analarga daxl qilinganligini aytib o`tdi. Mualliflardan biri O. Aldikachning aytishicha, taraqqiy etishi uchun yevropaga yaqinlashuvi zarur ekan. Bunga zid ravishda professor N. Yalchintash Turkiya o`z rivojlanish yo`llarini g`arblashtirishdan qidirib adashadi. U taraqqiyotni islom qadriyatlar tizimidan qidirish kerakligini va Turkiyani g`arblashtirish taqliddan boshqa narsa emasligini ta`kidlagan. Uning fikricha, Turkiya mintaqadagi potensialidan foydalanib, o`z atrofida islom davlatlari birlashmasini vujudga keltirishi maqsadga muvofiq. Yevropa lotin, yunon va xristian madaniyatlari asosiga qurilgan. Turkiyaning o`rni islom dunyosida. Yevropa Ittifoqi Turkiyani o`z eshiklari oldida kutib turishini hali uzoq vaqt kuzatamiz degan fikrlarni Yalchintash o`z kitobida keltiradi. Alternativ tarzda Yevropa bilan strategik munosabatlarni o`rnatishni taklif qilgan va rivojlanishning islomiy yo`l tarafdori muallif bo`lgan A.Dilipak o`zining 1988–yilda nashr qilingan "Turkiya qay tomon ketmoqda?" kitobida shu borada fikr yuritgan.

Ilk Respublika davrida jinoyat kodeksida 141–142 va 163–moddalarida dinni siyosiy qurol qilib olish ta`qiqlanishi bildirilgan. Bu moddalar 1991–yilga qadar o`z kuchida qolgan edi. Lekin 70–80–yillarda Turkiyadagi diniy hayotda islom fundamentalistlari renessans davrini o`tkazayotgan paytda 163–modda o`z kuchida edi. Bu moddani bu islom harakatidagilarga qo`llab bo`lmasdi. Chunki ular hali islom konsepsiyalari borasida bahslar va qaysi konsepsiya Turkiya ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyoti uchun mos tushishi va yo`llari muammolari bilan band edilar.

80–yillar oxiri va 90–yillarning boshida islomiy doiralarda ayniqsa, universitetlarda diniy atributlar ko`zga tashlana boshladi. Islomiy jamiyat fondlari faoliyati aktivlashdi. Ayniqsa ular ichida Konyada tashkil topgan Turk–anatoliya hayriya fondi edi. Bu fond moliyaviy asosi odamlar hayrihoh ulush

tarzida musulmonlarni "zakot" mablag`lari tashkil etgan. Bu fond ta`sischilari "Biz kam ta`minlanganlar, haqiqiy ilmni olayotgan talabalar va o`z yurtini yaxshi ko`radigan vatandoshlarga yordam beramiz" – degan so`zlar bilan o`z faoliyatlarini olib borardilar. Bu fond Konyada ko`plab o`quv yotoqxonolari, imom–xatiblar tayyorlanadigan o`quv binolariga egalik qilar edi. Yuzlab talabalarga maxsus stipendiyalar va o`qituvchilar uchun fondlar joriy etildi. Bu holat boshqa shaharlarda ham mavjud edi. Bu imkoniyatlardan sobiq SSSR turkiy respublikalardan kelib o`qiyotgan talabalar ham foydalanar edilar.

Xorij OAVlarida Turkiyadagi politsiya va xavfsizlik xizmatida islom harakati a`zolari muhim pozitsiyalarni egallab olganliklari haqida gapiriladi. Turkiyada chiqadigan "Nokta" jurnalida 1990–yil iyun oyidagi bir maqolada xavfsizlik xizmatidagi kadrlarni islomlashganligini va juma ibodatidan tashqari kunlik besh vaqt ibodatni qilayotganliklari haqida tashvish bilan keltirilgan edi<sup>82</sup>. 1992–yil 10–mart kuni Xavfsizlik bosh boshqarmasida "Xavfsizlik boshqarmasi xizmatchilarini noqonuniy faoliyati" deb nomlangan ma`ruza tayyorlandi va unda 120 ta noqonuniy tashkilotlarga boshqarma xizmatchilarini aloqadorligi ma`lum qilingan. Xavfsizlik xizmati vakillarini asosiy qismi Fathulla Gyulenni "Fathullachilar" guruhi bilan aloqadorligi ko`rsatib o`tiladi. Bundan tashqari Fathullachilar oqimi a`zolari mamlakatdagi turli sohalarda, politsiya kollejlari, oliy o`quv yurtlarida va harbiy maktablarda o`qituvchi va talabalar orasida tarqalgan. Guruh a`zolari o`rtasidagi aloqalar telefon yoki pochta orqali emas, balki, maxsus agent kur`yerlar yordamida amalga oshiriladi.

O`zalni hukumatda turgan vaqtlarda boshqaruvdan harbiylar ketgach, ularning o`rnini "islom–turk sintezi" g`oyasi tarafdorlari bo`lgan millatchi va islomchilar tarafdorlari o`zlarini namoyon qila boshlagan edilar. Bu g`oyalar ortidan islomizm yoki turkizm mafkurasini qay biri maqbul ekanligi borasida kurash kechayotgan edi.

---

<sup>82</sup> Tosun Tanju. The July 22 Elections: A Chart for the Future of Turkish Politics. – Istanbul: Private View, No. 12, Autumn 2007. – P.641.

1995–yil avgust oyida Turkiyalik to'rt fuqaroni narkotik moddalarni kontrabandasi uchun Saudiya Arabistonda qatl qilingani uchun norozilik bilan "Respublika" gazetasida Hikmat Chetinkayaning "Bo'yinni qilich kesmoqda" nomli maqolasi chiqdi<sup>83</sup>. Shu voqea sabab, Saudiya va Turkiya islomiy harakatlari o'rtasida sovuqchilik kelib chiqqan edi. Turkiya hududida masjidlar qurilishiga Saudiyaning "Feysal faynens" moliya shirkati kapital kiritganini maqola muallifi "Sabah" gazetasida ma'lum qilgan edi. Turkiyada Eron va Saudiya islom harakati vakillari o'rtasida kurash kechmoqda edi. Turg'ut O'zal mamlakatdagi islomiy oqimlarni o'zining Vatan partiyasini qo'llab quvvatlashiga erishish uchun ularning faoliyatiga ba'zi erkinliklarni bergan. Turg'ut O'zal Refah partiyasini islom harakatlari bilan aloqasini mustahkamlanib, ularning homiyligiga erishishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qildi. Shu sabab T. O'zal mamlakat hududida Saudiya banklarini faoliyatiga izn berdi. 80–yillarda Saudiyalik tadbirkorlar va banklar "Rabitai zanjiri" nomli mahfiy doirada ish olib borar edilar<sup>84</sup>. "Rabitai zanjiri" tashkiloti Vatan partiyasini har tomonlama qo'llab keldi. Lekin eronlik islomiy harakatlarni moliyaviy "izlari" Turkiya hududida saudianikiga nisbatan deyarli kam edi. Matbuotda Xizbulloh tashkilotini mamlakatning bir necha provinsiyalarida jangarilar tayyorgarlik lagerlari mavjud ekanligi ma'lum qilingan. Bu lagerlarda eron diniy targ'ibot ishlari Eron shia rahnamosi oyatullo Humayniyning inqilobni eksport qilish bo'yicha ko'rsatmalari amalga oshirilgan. Ana shunday guruhlardan biri Jyuzdje shahrida 15 kishi qo'lga olingan va ular orasida 5 nafari Refah partiyasining a'zolari bo'lib chiqdi<sup>85</sup>. Xizbulloh tashkilotini Turkiyaning sharqiy rayonlarida shia kurd mustaqil islomiy davlatni qurish rejasi sud olib borgan taftish ishlaridan ma'lum bo'ldi.

90–yillarning boshida Turk ideologiyasi va islomiy harakatlari uchun tarixiy burilish yuz berdi. Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlarida siyosiy o'zgarishlar yuz berdi. Ulkan "Qizil imperiya" SSSR quladi. Uning tarkibidagi

<sup>83</sup> Cumhuriyet // Report of a parliamentary commission /№33. 2 February. 2000.

<sup>84</sup> Hüseyin Batuhan. Laiklik ve Dinî Taassup. – İstanbul: Asya, 1954. –S.98.

<sup>85</sup> Nimet Arsan. Atatürk'ün Söylev ve Demeçleri. İkinci Baskı. – Ankara: İnkılâp Tarihi Enstitüsü Yayını, 1961. – S.69.

turkiy respublikalar mustaqil bo`lib ajralib chiqishdi. Kavkazda islomiy harakatlar qimirlab qolishdi. Aksarida musulmon etiqoddagi fuqarolar yashaydigan bu hududlarda turkiy zabon xalqlar yashardi.

SSSR ning qulashi Turkiya panturkistik ideogiyasiga yaxshi stimul turtkisini berdi. Lekin Turkiyaning g`arblashish jarayoniga, yevropalashishiga SSSRning parchalanishi salbiy ko`rinishlarga olib keldi. Dunyoviy davlat sari ketayotgan Turkiya birdan islomiy va panturkistik g`oyalar iskanjasida qoldi. Mamlakatda millatchi turkiy oqimlar jonlanib qolishdi. Ular markaziy osiyo respublikalarida o`zlarining ta`sir doiralarini o`tkazishga harakat qila boshlashdi. Taniqli jurnalist Sami Koenning aytishicha<sup>86</sup>, endilikda dunyoda yangicha bir ahamiyatga molik tushuncha paydo bo`ldi...bu Turkiyadan tashqarida yashovchi turklarda “turkiy kuch” paydo bo`ldi va o`zini Bolqondan to Sibirgacha bo`lgan keng hududlarga daxldor ekanligini bildirib boshladi. Muallifning fikricha, bunday holatda Turkiya chetda turishini tasavvur qilish mumkin emas edi. Jurnalist Ali Birandning ta`kidlashicha, hozir hamma Turkiyani turkiy xalqlarga qiziqishi katta ekanlikda ayblashmoqda va g`arb davlatlari tashqi turklarning lideri sifatida bizni ko`rayotganlini bildirdi.

Dunyoda 200 mln dan ortiq turkiy xalqlar mavjudligini hisobga oladigan bo`lsak, ularning diniy, madaniy jihatdan bir–biriga yaqinligini ko`rish mumkin. Shu tufayli Turkiya ushbu hududlardan o`z manfaatlarini yo`lida foydalanishni maqsad qilgan edi. Turkiy xalqlar yashovchi hududlarda foydali qazilmalar, gaz–neft, geografik qulay savdo va sotiq uchun erkin zona hisoblanadi. Shu sabab bu mamlakatlar bilan mavjud barcha aloqalar bog`landi.

Markaziy Osiyo davlatlari Eron yoki arab davlatlariga emas, balki o`zlarini Turkiyaga yaqin deb bilishadi. Turkiya birinchilar qatorida ushbu respublikalarning suverenitetini tan oldi. Turkiy qavmlar ichida turklar birinchi bo`lib, demokratiya, bozor iqtisodiyoti, ko`p partiyaviylik degan tushunchalar bilan tanish edilar. Shu sabab Turkiyaning bu boradagi tajribasidan namuna

---

<sup>86</sup> The Probe // Turkey irked by Gaza offensive but not prompted to reverse ties to Israel, May 30, 2004.

olishga harakat qila boshladilar. Markaziy Osiyo respublikalarining davlat rahbarlari ilk rasmiy tashriflarini Turkiyaga uyushtirishgan edi.

Bilamizki, Turkiyada davlat manfaatlari ustun turadi va yuz yillardan beri g'arblashish va islomlashish kabi jarayonlarni nazorat qiladi. Turkiyadagi islom harakati Kavkaz va Markaziy Osiyoda ham o'z ta'sir doiralarini kengaytirishga harakat qilmoqda. Ma'lumki, SSSRning qulashi Turkiyadagi diniy hayotga o'zgacha ta'sir etdi. Milliy ruhiyatni butun jamiyatda ko'tarilishi diniy kayfiyat bilan eyforiya holatida mamlakatda diniy sektalar va guruhlarini faollashib, legalizatsiya jarayonlariga kirishgan holda va yangi yuzaga kelgan Kavkaz va Markaziy Osiyo davlatlarida islomiy musulmon an'analarini qo'zg'ashga intilish kuchaydi. 90–yillarning boshida missionerlik ruhiyati bilan poytaxti Olma–ota bo'lgan Turkiston islom respublikasini barpo etish haqidagi o'y–hayollar va puch rejalar eshitilib turar edi. Ba'zida Turkiya tashqi siyosatida aholisi musulmon bo'lgan davlatlar bilan diniy munosabatlar ham aralashib ketar edi. Dunyoviy Turkiya hukumati boshqa davlatlarning turk bo'lmagan musulmon aholisini Turkiyadagi islomiy harakatlar doirasiga tortishiga xayrixoh ekanligini ko'rish mumkin. Turkiya islomiy harakati guruhlaridan Fathullachilar chet ellardagi o'quv markazlarini bir–nechasiga Tansu Chillerning nomini berish haqida aytib o'tgan edilar<sup>87</sup>. "Milliyet" gazetasida yozishicha, bu harakat Fathullachilarning o'zlarining diniy faoliyatlariga davlat maqomini ham ilib olish va bosh vazir T. Chillerning nomini islom olamida mashhur qilishga intilish deb baholandi. Boshqa hududlarda "turkcha mutadil islom"ni yoyishda Turkiya dunyoviy hukumatidan tashabbuslar chiqishi taajjublantirmaydi. Chunki bu payt hukumatda Turg'ut O'zaldek liderni turishi hech qanday shubhani qoldirmaydi.

1994–1995–yillarda mamlakat ichki siyosiy hayotida Tansu Chiller va Najmiddin Erboqon o'rtasidagi kurashlarga boy bo'ldi. Bu vaqtda Otaturk davridagi ijtimoiy–siyosiy kuchlarning o'zaro munosabatlaridan farq qilar edi.

---

<sup>87</sup> Duman Doğan. Demokrasi Sürecinde Türkiye'de İslamcılık . 2.baskı. – İzmir: Dokuz Eylül Yayınları, 1999. S.313.

Chiller saylovoldi jarayonlarida "laitsizm mamlakat uchun kerakli unsur ekanligini va u hech qachon dinsizlikni targ'ib qilmaydi, aksincha e'tiqod erkinligini himoya qiladi"— degan so'zlarni aytgan edi<sup>88</sup>. U shuningdek, laitsizmga zarba— Turkiya musulmonlariga zarba bo'lishini alohida ta'kidladi. Yevropa bilan integratsiyalashuviga qarshi Refah partiyasiga muholif To'g'ri Yo'l partiyasi Refah liderlarini antikamolchilikda, moliyaviy tovlamachilik ayblovlari qo'ydilar. Lekin To'g'ri Yo'l partiyasi ham anti-islom hatti-harakatlariga qaramay o'z vaqtida mamlakat diniy ulamolari va shayxlari bilan aloqalarni bo'glashga intilganlar va ularning qo'llab-quvvatlovlariga erishishga harakat qilganlar. Bunday tariqatlar va islomiy oqimlar na sunniy va na shia islomiy oqimlarini aniq biriga mansub ekanligi belgilab olinmagan. Aksariyat oqimlar alaviyya tariqatini namoyon qilishadi. Bu islomning xristian dini bilan o'ta tolerantligi bilan ajralib turadi. Alaviylar Hazrat Muhammad (S.A.V) va u kishining safdoshi Hazrat Alini tan olishadi. Bu qarashdan ularni shialarga yaqin deb hisoblash mumkin.

1994–yil oxirlarida dunyoviy demokratik so'l markaz doiralari T. Chillerning muholifat Refah partiyasi bilan aloqalariga qarshi chiqishdi. "Jumhuriyet" gazetasida T. Chiller va TYP ni diniy sektalarni ta'qiqlashning an'anaviyligidan chetlashganlikda ayblovlar qo'yildi. Gazeta isbot sifatida T. Chiller va uning eri, taniqli biznesmen Ozar Chillerning Refah partiyasiga aloqador Fathulla Gyulen, Mehmet Kutlular va Fevzittin Erol bilan bo'lgan uchrashuvlari keltiriladi. "Zaman", "Turkiye" va "Milliyet" gazetalarida T. Chillerni Fathulla Gyulen bilan suhbat qurganligi va bu suhbat mazmunida terrorism va hukumatning unga qarshi chora-tadbirlari haqida kechganligi ma'lum qilindi. Milliyet gazetasi esa, bosh vazir T. Chiller islomiy harakat vakillari bilan uchrashishdan og'magan holda, o'zining dunyoviy siyosat imidjini xavf ostida qoldirib, tavakkalchilikda qo'l urayotganligini yozib chiqardi. Matbuotning fikricha, hukumat odamlari bilan uchrashuvlar

---

<sup>88</sup> Киреев, Н. Г. К оценке религиозной ситуации в Турции в 90–е годы // Ислам и политика (взаимодействие ислама и политики в странах Ближнего и Среднего Востока, на Кавказе и в Центральной Азии). – Москва: 2001. – С.33.

uyushtirilishi, islomiy harakatlarni legallashtirishga olib keladi. 80–yillarda diniy radikalizm oqim tarafdorlarini bir o`quv markazini 200 nafar tinglovchisi 1995–yil yozida sud tomonidan jazoga tortilishi arafasida T. Chillerning aralashuvi bilan ular ozod qilingan<sup>89</sup>. Respublika gazetasida "Tansu honim shayx va uning muridlari bosimi ostida ular bilan savdolashmoqda..." – degan fikrlar keltirilgan edi. To`g`ri Yo`l partiyasining diniy shayx va Erboqonni raqobatchisi bo`lgan Fathulla xo`jaga bo`lgan qiziqish bekorga emas edi. Fathulla Gyulen bilan "Respublika" gazetasi suhbat uyushtirib, uning o`zi haqida avtobiografik ma`lumotlarni ommaga taqdim etdi. Unga ko`ra xo`ja Erzurumda tug`ilib, Izmirda masjidda diniy faoliyatini boshlagan va Qur`on kurslarini tashkil qilgan. Uning tasarrufida "Zaman" gazetasi, "Saman yolu" televideniyesi, ko`plab litseylar va davlat idoralarida o`z odamlariga egalik qiladi.

Saylovlar yaqinlashishi bilan T. Chiller o`z partiyasining dinga tolerantligini namoyish qilishga va islomda turli–xillikka erishishga harakat qildi. Saylovchilar bilan Erzurumdagi uchrashuvlarni birida Chiller Erboqonni kurd ayirmachilarini yetakchisi Ojalanga qiyoslagan. Bundan tashqari u bo`lajak koalitsion hukumatdagi sherigi Vatan partiyasi lideri M. Yilmazni ham tanqid qilib o`tdi. Erzurumda Erboqonni tarafdorlari ko`p bo`lgani bois, ko`pchilik Chillerni so`zlarini hushtakbozlik bilan qabul etdilar.

TYP sini saylov oldi jarayonlari payti Erboqon raqobatchilari bilan aloqa bog`lashlari dunyoviy davlat so`l markaz doiradagilarni noroziligini keltirib chiqardi. Demokratik so`l partiya lideri B. Ejevit diniy sektalarga qarshi emasligini, ammo ularni siyosatga aralashishi mumkin emas deb ta`kidladi. Bu yo`l Allohga emas, hokimiyat sari yo`ldir. Dindorlar uchun gunoh ish va siyosatchilar uchun isnoddir. Chiller ana shu demokratiyaning sustlashishi va dinni siyosiy manfaat yo`lida ekpluatatsiya qiluvchi karvonga qo`shilib olganligini ko`rmoqdamiz– degan so`zlar Ejevitdan yangradi.

<sup>89</sup> Kurtoğlu Zerrin. İslam Düşüncesinin Siyasal Ufku. 1.baskı. – İstanbul: İletişim yayınları, 1996. – S.3.

Liberal-demokratlar dunyoviylik doirasidagi Chillarning turk jamiyatini ma'naviy va madaniy hayoti xususiyatlarini namoyon etuvchi, siyosiy bahs va muammolarga unchalik aralashmaydigan shia va alaviylar bilan yaqinlashishga intilish harakatlariga qarshi emaslar. Bu usul ila mamlakatdan tashqarisidagi etno–diniy missionerlik bilan shug'ullanayotganlarning fikricha, Turkiyadan turib butun dunyodagi turkiy xalqlarning diniy–madaniy integratsiyalashuviga impuls bo'lishini ta'kidlashdi.

Islom dunyosidagi aynan shunday plyuralizm dunyoviylik prinsiplarini uzmaydi, aksincha, Refah partiyasini mamlakat diniy hayotidagi monopoliyasiga chek qo'yadi, – degan qarash mavjud<sup>90</sup>. Hukumatning bu boradagi ilk qadamlaridan deb, 1995-yil 16-mart kuni Din ishlari bo'yicha vazirlikning juma ibodati vaqtida butun Turkiya bo'ylab ilk bor Navruz bayramini keng nishonlanishi haqidagi tabrik va da'vat matnini yuborilishida ko'rish mumkin. Bu matnda barcha musulmonlarni birdamlikka chaqirish va mamlakatdagi turli etnik va diniy xilma–xillik bo'lsada, buni muammolar uchun manba bo'la olmasligini, aksincha madaniyatni to'ldiradi va boyitishi kabi da'vatlar keltiriladi. Juma xutbasida Turkiyaning ichki va tashqi dushmanlariga diniy va milliyatchilikni unuttirishga yo'l qo'ymaslik belgilangan edi.

O'sha navruz bayrami arafasida Istanbul shahridagi alaviylarga qarshi qirg'inni uyushtirilishida 60–yillarda o'nglar va so'llarning o'rtasidagi kurashdan foydalanishga urinish, hozirda sunniylar va alaviylar o'rtasida ziddiyatlarni chiqarib, foydalanib qolishga urinishlar bo'lmoqda –degan fikrni Din ishlari vaziri M. N. Yilmaz aytib o'tdi. 1996-yil 15-martdan 23-martgacha Navro'z bayrami ikkinchi bor keng nishonlandi. Turkiya tashqi ishlar vazirligining nashri "Yevroosiyo dunyosi" byullitenida yozilishicha, butun turk dunyosi ushbu bayramni nishonlashi, ularning an'ana jihatidan bir–birlariga ancha yaqin jamiyatlar ekanligi aytiladi. Turk dunyosining birligi ifodasi o'laroq

<sup>90</sup> Turan İlter. Turkey Watch/Politics: Uncertainties of Turkish Politics. – Istanbul: Private View, No.12, Autumn 2007. – P.91.

barcha turkiy davlatlardan delegatsiyalar Anqaraga tashrif buyurishib, katta tantanalarning shohidi bo'lishdi.

Istambuldagi alaviylar qirg'iniga keladigan bo'lsak, surishturuv ishlarini olib borgan "Respublika" gazetasining mustaqil fikriga ko'ra, bu qirg'inni shariat himoyachilari uyushtirishgan va alaviylarni politsiya bilan to'qnashuviga sabab bo'lgan deyiladi. G'oziusmontepa tumanini Go'ziy kvartalida politsiya bir necha qandolatchilik va qahvaxonalarda tintuv o'tkazayotgan vaqtda 30 kishi o'ldirilgan. Shunda o'xshash alaviylarni qatli 1987–yili Qahramanmarashda "Kulrang bo'rilar" nomli guruh tomonidan 100 dan ortiq alaviylar o'ldirilishi bilan amalga oshirilgan. Alaviylar<sup>91</sup>da "*dedelik*"(diniy yetakchi), "*zakirlik*"(diniy unvon), "*on iki hizmet*"(ibodat amallari) kabi boshqa musulmon oqimlaridan farq qiluvchi o'z institutlari mavjud. Alaviylarning "*cem evleri*" (alaviylarda masjid bo'lmaydi, ularning maxsus yig'ilib turadigan joylari) oldida aholi barrikadalar qilib politsiya bilan otishmalar bo'lib o'tgan. Bu voqealardan oldin Istanbul masjidlarida afg'onistonlik, pokistonlik, saudiyalik va jazoirliklarni paydo bo'lganligini gazeta yozadi. Gazeta bu jihatdakilarni Turkiyaga qanday kelib qolganligi haqida savolni o'rta tashlagan edi.

Taniqli publitsist Ilhan Seljuk "Jumhuriyet" gazetasida o'zining maqolasida yozishicha, anatoliya alaviylari ham Allohga ishonishadi, Payg'ambariga va Hazrat Ali (r.a)ni sevishadi, haj, namoz, ro'za amallarini ado etishadi, lekin o'z masjidlariga ega emaslar. Ular Otaturk halifalikni qulatgach, erkinlikka erishdilar. Turkiya respublikasida bosh vazir yoki prezident sunniylarning biron–bir tadbirlarida ishtirok etishlari, ularning imom–hatib maktablarini kengaytirishga va shariat prinsiplarini tarqalishiga olib keladi va o'z – o'zidan alaviylarga nisbatan hujumlar sonini ortishiga olib keladi.

Siyosiy nayranglar saylovoldi arafasida nomzodlarning ovoz to'plash ortidan quvish kabilar alaviylarga bevosita ta'sir qildi. 1960–yillardan boshlab

<sup>91</sup> Alaviylar– Bektoshiya tariqati maktablaridan biri bo'lib, Suriyadagi alaviylardan tubdan farq qiladi. XVI asrda Antaliya hududlarida paydo bo'lgan va keng yoyilgan. Alavizm din emas, balki ijtimoiy guruh tarzida 90–yillarda o'zini namoyon qilgan. Ular siyosatda ko'proq Respublika Xalq partiyasini qo'llab–quvvatlashgan. O'zlem Go'ner, The Transformation of the Alevi Collective Identity, Cultural Dynamics, Vol. 17, No. 2, 2005, P.132, fn 14, at <http://cdy.sagepub.com/cgi/content/abstract/17/2/107>

Alaviylar soʻl markazchilarni qoʻllab quvvatlardilar. Ularning koʻmagida 1995–yil noyabr oyida Istambulda ilk alaviylarning "Muloqot va madaniyat" uyi (Jemeviyye) qurilishi boshlandi. Qurilish Shishli tumanida alaviylar vaqfi mablagʻlariga qurila boshlandi. Qurilish ishlariga ilk gʻisht qoʻyish marosimida deyarli barcha siyosiy partiyalar liderlari, alaviy jamoalari shayxlari hamda Refah partiyasi aʼzolari ham qatnashishdi. Tadbirda Vatan partiyasi lideri Mesut Yilmazni qurilish uchun 25 mln. lira ajratganligini eʼlon qilindi.

Alaviylar vaqf kengashi bosh kotibi Ahmad Shahin tantanali majlisda alaviylar jamoat uyida diniy, dahriy, irqiy va maʼnaviy toʻqnashuvlar joyi boʻlmasligini, alaviylar Otaturk qurgan dunyoviylik prinsipidan ogʻmagan holda reaksionist yoki boshqalar qoʻlida alternativ vosita boʻlmasligini taʼkidlab oʻtdi. Alaviylarning boshqa bir aʼzosi Vatan partiyasi deputati F. Altun yuz yillar mobaynida quvgʻunda boʻlgan alaviylar nihoyat ozodlikka erishib, eʼtiqod va fikr erkinligini qoʻlga kiritganligi va mamlakat birligi va hududiy yahlitligiga hech ham rahna solmasligini alohida soʻz bilan izohlab oʻtdi. Anqarada 1995–yil noyabr oyida olti ming alaviylar ishtirokida parlament saylovlari oldidan Birinchi Milliy Syezd "Demokratik dunyo uchun harakat" nomi ostida boʻlib oʻtdi<sup>92</sup>. Bu syezdda "Yevropa alaviylar ittifoqi federatsiyasi" va "Hoji Bektosh Vali jamiyati" tashkilotlari tashkil etilishi tashabbusi koʻtarildi. Alaviylar jamiyati mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishga harakat qila boshlashdi. Turkiya parlamentida 50 ga yaqin deputat alaviylardan edi. Lekin alaviylarning alohida partiyasini tuzilishini qoʻllashmadi. Faqatgina mavjud partiyalarni, hususan soʻl markazchi Ishchi partiyani qoʻllashda davom etishni afzal bildilar.

Alaviylardan tashqari Turkiyada yana bir ijtimoiy guruh – kurdlar ham bor. Kurdarning asosiy qismi unchalik rivojlanmagan janubi–sharqiy hududlarda yashashadi. 19 ta provinsiyada professor Gasratyan M. A ning hisob–kitobiga koʻra, 1985–yilda 9 mln. 350 ming, 1990–yilda 10 mln. 392 ming va 1997–yilga kelib 11 mln. 700 ming nafar kurd millatiga oid kishilar umum mamlakat

<sup>92</sup> Çakır Ruşen. Ayet ve Slogan Türkiye’de İslami Oluşumlar. 9.baskı. – İstanbul: Metis yayınları, 2001. – S.412.

aholisini (1996–yilda Turkiyada 62,7 mln aholi boʻlgan)18%ini tashkil qilgan. Bundan tashqari yirik shaharlarda 3 mln.dan ortiq kurdlar yashashgan. Kurd manbalariga koʻra hamma kurdlar ham oʻzini kurd millatidaligini oshkor etishmaydi. Shu sabab kurdلarni aniq hisobini aniqlash mushkul. Kurdلarning oʻzlari keltirgan maʼlumotlarga koʻra, Turkiya hududida 20 mln kurd bor. Kurdلarga tazyiq koʻp boʻlganligi uchun koʻplab kurdلar oʻzlarini turk millatidan deb tanishtirishadi. Kurdلar 1986–yildan 1990–yillar davomida yiliga 2,2% dan koʻpayib borgan va bu koʻrsatkich keyinchalik ham oʻzgarmagan. Kurdلarni harbiy harakatlarda yoʻqotishlari va bolalar oʻlimi darajasini koʻp tugʻilishlik koeffisienti qoplab ketadi. Kurdلar orasida oʻlim koʻrsatkichi yuqori. Oʻrtacha umr koʻrish (1990) 42 yoshni tashkil etadi<sup>93</sup>. Ogʻir ijtimoiy–iqtisodiy holat shunga olib kelmoqda. Ijtimoiy himoya deyarli boʻlmagan. 90–yillarda 14 ming kurdga bitta vrach toʻgʻri kelgan. Turkلarga esa, 5,2 ming aholiga bir vrach toʻgʻri kelgan. Savodlilik darajasi erkaklarda –69%, ayollarda–49% ni koʻrsatkichga ega. Turkلarda bu koʻrsatkich 1987–yilda 78% da boʻlgan. Hukumat deyarli kurdلarni savodli boʻlishiga eʼtibor bermagan. 80–90–yillarda 70% kurdلar turk tilini bilmagan va oʻz ona tilida gapirishgan. Kurdلar islomning sunniy mazhabida boʻlib kam soni 2 mln. kurd shia va 250–300 ming nafari yezidizmga eʼtiqod qilishadi.

Oxirgi oʻttiz yil ichida Turkiyada diniy (soʻfiylik)tariqatlar va diniy–madaniy jamoatlar oʻsishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari ular sarhadlardan chiqib, postsovet davlatlari hududlarida kirib borishga harakat qilmoqda.

Diniy jamoat birlashmalarini faoliyatini kengayishi bir necha omillarga bogʻliq. Ularning poydevori albatta, oddiy diniy hayot va anʼanaviy islom aqidalari asos boʻlgan edi. Keyinchalik ularning mafkiurasi yoniga panturkizm ham qoʻshildi. Dastlab kamol inqilobidan soʻng, mamlakatda laitsizm<sup>94</sup>ni qaror topishi va islom institutlarini mavqeyi pasayishi kutilgan edi, ammo xalq orasida islomning konservatsiyasi yuz berdi. Kamolchilik millatchiligi mamlakatda

<sup>93</sup> Kurtoğlu Zerrin. İslam Düşüncesinin Siyasal Ufku. 1.baskı. – İstanbul: İletişim yayınları, 1996. – S.41.

<sup>94</sup> Laitsizm–(fr) dunyoviy davlat qurish siyosati. Kamolchilikning asosiy prinsiplaridan biri boʻlib, diniy institutlar, musulmon ruhoniylari ustidan toʻla nazorat oʻrnatishni, yevropacha huquq normalarini kiritishni nazarda tutgan.

diniy tariqat va harakatlarni faoliyatini cheklagan edi. O`sha paytlar tariqatlar va diniy harakatlar boshida obro`li shayxlar va mavqeyi baland imomlar atrofida birlashgan edi. 80–90–yillarda turj hukumatini olib borgan siyosati tufayli diniy birlashmalarni faollashuviga olib keldi. 1980–yil 12–sentyabr davlat to`ntarishidan so`ng, hukumatda turgan elita qatlami turk an`anaviy qadriyatlarni shakllantirib, uni o`ng g`oyalarga qarshi turishi mumkin deb o`ylashdi. Turg`ut O`zal hukumati (1983–1989) davrida mamlakatdagi diniy harakat vakillarini taqib qilishni to`xtatib ularni erkin faoliyat olib borishiga imkon berish va rivojlanishiga yo`l ochib berish kerak degan fikrlar ko`p uchragan. Shu sabab hukumat bu boradagi chora–tadbirlar uchun mablag`lar ajrata boshladi. Bu kabi dinga homiylik so`nggi bor Usmoniylar davrida amalga oshirilgan edi. Hukumat diniy jamoatlarni kengayishiga va Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlaridan musulmon kapital manbalarini jalb qilishni foydali deb bildi. 1980–yillardan boshlab, musulmon kapitallariga tayanib o`zgacha tadbirkorlik qatlamini vujudga keltirdi va bu turk matbuotida "*yashil kapital*" deb nom qozondi. 1990–yillarning boshlarida bu musulmon kapitali turk iqtisodida muhim o`rinni egallagan edi.

Diniy jamiyatlarning iqtisodiy o`sishida bevosita nodavlat fondlar yoki, vaqflarning o`rni bor edi. Bunday vaqf fondlari kamolchilik harakati boshlangan paytlarda davlat nazorati ostida ham mavjud edi, ammo bu vaqflar diniy normalarga asoslanmaganligi va millatchi Anatoliya hududlarida o`z qadrini yo`qotgan va yopilib ketgan. 1970–yillarda Turkiyadagi musulmon hayriya fondlari ehtiyotkor faoliyat ko`rsartishar va dastlab turk burjuaziyasiga undan so`ng 1990–yillardan Saudiya va Quvaytlik moliya kompaniyalari homiyligiga tayanishar edi. Vaqf fondlari diniy harakatlar va tariqatlar tomonidan keng foydalanildi va rivojlanishi va o`sishi siyosiy konyunkturaning (siyosiy sharoit) o`zgarishiga ham bog`liq bo`ldi.

Mamlakatda tadbirkorlik elitasi orasida ham ma`lum bir sabab ostida birlashish yuzaga keldi. 1971–yilda Ishbilarmonlar va Turk sanoatchilar jamiyati tashkil topdi. 90–yillarda liberal iqtisodchilar tashkilotiga muholif Mustaqil

tadbirkorlar jamiyati yuzaga keldi va bu jamiyat musulmon iqtisodini o`rnatilishiga norasmiy tarzda intilar edilar.

Hozirgi kunda vaqf fondlari moliyalashtirgan diniy maktablar bitiruvchilari nafaqat masjidlarda, ilm–fan, biznes va hukumat tizimi sohalarida faoliyat olib borishmoqda. Islom harakati vakillari foydalanadigan vaqf instituti jamiyat birligi va ijtimoiylashuvda muhim rolni bajarib qolmasdan, balki davlat ta`lim tizimi va davlat diniy isntitutlari noma`lum sabablarga ko`ra uddalay olmaydigan funksiyalarni ham olib bora oladi. "Diniy klientalizm"<sup>95</sup> tizimiga yondashuv hususan konservativ partiyalar hususiyatiga singib ketgan edi.

1993–yil yirik turk sanoatchilari tuzgan 16 ta vaqflar birlashib, "Turkiya Uchinchi vaqf sektori" (TUSEV–Turkiye ucuncu sektor vakfi) tashkilotini tuzdilar. Hozirgi kunda TUSEV 120 dan ortiq hayriya fondlar, assotsatsiyalar, nodavlat jamoat tashkilotlari birlashtirgan holda o`zini fuqarolik jamiyatini shakllantirishda, turk jamiyatini modernizatsiyasida va Turkiyani Yevropa Ittifoqiga a`zo bo`lishida avangard harakat deb biladi<sup>96</sup>. Vaqf instituti turk jamiyatini tashkiliy unsurlaridan biri ekanligini ko`rsatib qo`ydi.

Turk "islom" tadbirkorlik tizimi "Mustaqil musulmon tadbirkor va sanoatchilar assotsatsiyasi" (MUSIAD) atrofida birlashishdi. Yuqoridagi ikki assotsatsiyalarning mamlakatning iqtisodiy tizimidagi faoliyatida musulmon kapitalini o`rni borligini ko`rsatdi va mamlakatdagi turk biznesda o`z o`rniga ega eski Respublika burjuaziyasi (Istambul, Izmir va Anqara) tomonidan tashkil etilgan "Turkiya sanoatchilari va tadbirkorlari jamiyati" (TUSIAD) darajasi bilan tenglashdi.

O`zining keng va aniq saylovchilar elektoratiga ega bo`lmagan hamda ijtimoiy–iqtisodiy dasturlarga e`tibor berishda siyosiy partiyalarni o`rni pastligi, fuqarolik jamiyatini subyektlari va mexanizmlari – kasaba uyushmalari va jamiyat birlashmalari shakllanmagan bir sharoitda TUSIAD, MUSIAD va islom

<sup>95</sup> Klientalizm– (lotincha) ijtimoiy qaramlilik, quloq osishlik, bo`ysunishlik, turli munosabatlarda jamoaviy yoki shaxsiy tarzda urug` boshiga bo`ysunish. Filosofiya lug`ati. – Toshkent: Fan, – B.385.

<sup>96</sup> [http://www.tusev.org.tr/ekonomi\\_cereyan/index.htm](http://www.tusev.org.tr/ekonomi_cereyan/index.htm)

vaqfi omadli tarzda faoliyat olib borishib, o`z lobbisiga ega tashkilotlatga aylanishdi.

"Musulmon" kapitallari mamlakatda va tashqarida tekstil mahsulotlari eksporti va Bolqon, Yaqin Sharq, Kavkaz va markaziy Osiyo hududlarida qurilish tashkilotlari tarzida namoyon bo`lishdi. "Yipmash" va "Kombassan" holdinglari (1982– va 1985–yillarda tuzilgan) "yashil kapital"ni kiritishda birinchilardan biri bo`lgan holda yillar davomida ularga o`xshagan holdinglar ko`payib bordi. Bu kabi korporatsiyalar va holdinglar "Ihlas", "Anadolu", "Ulker", "Ittifak", "Ikram" milliy chegaralardan ham oshib Yevropadan tortib Osiyo hududlari miqyosida faoliyat olib borishmoqda. Islom holdinglari nafaqat qurilish va savdo sanoatida balki, media va axborot targ`ibot biznesida ham faol ishtirok etishmoqda. Ular eng so`nggi rusumdagi poligrafiya va nashr ishi texnologiyalari, moliya va kredit sohasidagi yutuqlardan foydalanib globalizatsiya sharoitida tarqalmoqdalar.

Prezident O`zal davridan beri mamlakatda Saudiyaning "Feysal Faynens" va "Al-Baraka" moliya tashkilotlari faoliyat olib boradi. Islom Taraqqiyoti bankining turk filiali ba`zi jabhalarda Turkiyadagi islom tashkilotlari bilan bog`liq joyi bor. 90–yillarda Turkiyadagi islom holdinglari chet eldagi immigrant turklar kiritgan investitsiyalar tufayli gullab–yashnay boshladi. "Yashil kapitalga"<sup>97</sup> ega holdinglar katta mablag`larni Yevropada yashovchi musulmon turklar uchun mahsulot va xizmat ko`rsatuvchi fabrikalar va zavodlar, markazlar qurilishi uchun sarflashdi. Yevropada yashovchi turklar topgan pullariga Turkiyadagi "*yashil holding*"larni moliyalashtirmoqdalar.

Deetatizatsiya jarayonlari tufayli sekin asta davlat iqtisodiy va ijtimoiy doiradan chiqib ketmoqda va bunda diniy birlashmalarning fondlari kengayishi bilan ifodalash mumkin. Bu diniy birlashmalar davlat bo`shatib qo`ygan sohalar –ilm–fan va ta`lim tizimini to`ldirmoqda.

---

<sup>97</sup> Turan İlter. Turkey Watch/Politics: Uncertainties of Turkish Politics. – Istanbul: Private View, No.12, Autumn 2007. – P.88.

Turkiya diniy–madaniy merosiga qiziqishlarni uygʻotgan islomiy birlashma–tariqatlar oʻzining siyosatga aralashuvi va turli moliyaviy koʻmaklarni olayotganligi bilan oʻzining naqadar taʼsir kuchiga ega ekanligini koʻrsatmoqda. 1925–yil Respublika diniy sektalar va tariqatlarning mol–mulkini musodara qilib, faoliyatini taʼqiqlagan edi. 80–90–yillarda diniy harakatlarga nisbatan munosabat oʻzgargan boʻlsada, tariqatlar faoliyat olib borishlik taʼqiqi 2003–yilgacha saqlanib qoldi. Shungacha deyarli barcha diniy jamiyatlar jinoiy javobgarlikka tortilgan va mustaqil jamiyat tashkiloti sifatida qaror topmagan edi. 2003–yil Turkiya Sud tizimi va qonunchiligini qayta koʻrib chiqishgandan soʻng, yevropa talablariga javob beradigan qonun oʻzgarishlari tufayli jamiyatlar va fondlar toʻgʻrisidagi qonunni yangilanishi bilan ularning faoliyati legallashtirildi hamda erkin uyushish, jamlanish huquqi kengaydi<sup>98</sup>. Tariqatlar Usmoniylar davrida siyosatning muhim bir subyektlaridan biri hisoblangan. Misol uchun, yanicharlar korpusini deyarli barchasini "bektoshiylik" tariqatiga aʼzo boʻlishgan. Bu kabi tariqat birlashmasi vakillari (tekke) imperiya viloyatlarida katta huquq va imtiyozlarga ega boʻlishgan. Ilk Respublika davrlarida soʻfiylik tariqatlari taʼqibga uchragan boʻlsada, jamiyatda ijtimoiy tizimni diniy va madaniy, kommunikativ funksiyalarini bajargan. 50–yillarda Demokratik partiya hokimiyatda turgan vaqtlarda soʻfiylik tariqatlarini faoliyatini jonlanishi va yangilarini vujudga kelishiga zamin yaratdi. Oʻsha vaqtlarda bosh vazir Ednan Menderes mamlakatda kengroq tarafdorlari qatlamini vujudga keltirish uchun barcha diniy faoliyat turlariga erkinlik bergan edi. Turgʻut Oʻzal davridagi liberalizatsiya jarayonlari tufayli bu kabi tariqatlar mamlakat iqtisodiyotini muhim subyekti sifatida siyosat maydoniga chiqqan edilar. Maʼlumki, ilk bor tariqat vakillaridan iborat boʻlgan Refah partiyasi Toʻgʻri Yoʻl partiyasi bilan koalitsion hukumatni 1996–yil mart oyida shakllantirishgan edi. 90–yillarning oʻrtalarida Turkiyada oʻndan ortiq tariqatlar, shu jumladan, Mevlaviyya, Qodiriyya, Halvatiyya, Sulaymonchilik, Biberiy va Tijjaniy kabilari turli yoʻnalishda faoliyat olib borishgan. Ularning orasida eng

<sup>98</sup> [http://www.belgenet.com.tr/belgeler\\_arsivi/sifre:468789](http://www.belgenet.com.tr/belgeler_arsivi/sifre:468789)

keng tarqalgani Nurchilar va Naqshbandiyya tariqatidir. Aynan Naqshbandiyya tariqati vakili Mehmet Zahit Kotkuning qo'llashi evaziga 80–yillarda N. Erboqon siyosat maydoniga kirib kelgan. Bundan tashqari bu tariqatning taniqli a'zolar safida Turg'ut O'zal, Kotku O'zal, R.T. Erdog'onni ko'rishimiz mumkin. 80–yillarda aynan naqshbandiyya tariqati vakillari Turg'ut O'zalning hukumati tarkibida bo'lishgan. Keyinchalik K. O'zal tominidan tuzilgan "Yagona vaqf birligi" tashkiloti tariqatning konservativ va diniy kuchlarini birlashtirib, hozirgi Adolat va Taraqqiyot partiyasini shakllanishida ishtiro etgan. Yana bir Iskandar Poshsho boshchiligidagi jamoat hozirgda katta moliya fondlariga egalik qiladi va R.T. Erdog'onni ustoz hisoblanadi. Hozir mamlakatda moliyaviy kuchi jihatidan eng quvvatli harakat bu – Nurchilar tariqati hisoblanadi. Uning tarkibida 20 dan ortiq jamiyat, 200 dan ortiq firmalar millionlab kapitalga ega. Nurchilarning taniqli "Akiyazlin" fondi o'nlab maktablar, talabalar turar joylarini va 300 dan ortiq hayriya ishlariga mablag' ajratadi. 1980–yillarda Nurchilarning rahbari F. Gyulen T. O'zalning "Anavatan" partiyasi o'ng markazchilarini qo'llab–quvvatlar va hech qachon N. Erboqon tarafdori bo'lmagan edi. 1997–yil Erboqonni partiyasi harbiylar tomonidan yopilgach, Gyulen o'zining barcha media resurslari bilan Erboqonga homiylik qila boshladi.

Nurchilar harakati "*Avraam*" yo'lidagi<sup>99</sup> dinlar orasidagi muloqotni tashkil etishga va yaxshi munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun seminarlar va konferensiyalar tashkil etib turadi. Nurchilar harakati mamlakat tashqarisida ta'lim markazlari bunyod etish va moliyalashtirish asosiy faoliyati hisoblanadi<sup>100</sup>.

<sup>99</sup> Avraam yo'lidagi dinlar (Ibrohim a.s) –Xristian aqidasi (tushunchasi) ko'ra, yaratguvchini bitta deb bilgan din vakillari Iudaizm, Islom va Xristian dinlari, musulmonlarda bu aqida "Ahli Kitoblar" deb keltiriladi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Xadis va hayot. – Toshkent: Hilol nashriyoti, 12–jild, – B.45.

<sup>100</sup> <http://www.iimes.ru/> Давидов М. Н. Деятельность турецкой религиозной секты Нуржулар. 2007

1999–yil Anqara davlat xavfsizlik Sudi Nurchilar yetakchisi Gyulenni jinoyat kodeksiga ko`ra, 312–va 313–moddalariga bilan "*dunyoviylik prinsiplarini buzishga intilish*" aybi qo`yildi<sup>101</sup>.

Nurchilar guruhini siyosiy islomni tadbiq qilishda yosh intellektuallardan foydalanib, ularga diniy ta`limni sindirish kabi harakatlari tufayli ayblar qo`yiladi. Lekin Gyulenni harakatini to`la islomiy oqim deb nomlab bo`lmaydi. Chunki ular mamlakatda to`liq teokratik hokimiyatni o`rnatish yo`lidan emas balki, Turkiya Respublikasida usmoniylarning konfessional plyuralizm va tolerantlikning modelini tarqatishga urinadilar.

Taniqli turk sotsiologi Hakan Yavuz Nurchilar harakatini mamlakat hayotida o`rnini muhim deb aytadi<sup>102</sup>.

N. Erboqonni "Milliy Go`rush" harakati Turkiya hududida faoliyati to`l ravishda ta`qiqlangan bo`lsada, Yevropada keng tarmoqqa ega va Germaniyada shtab kvartirasi joylashgan. Bu tashkilot Germaniyada "Islom Assotsatsiyasi" nomi bilan faoliyat olib boradi. Yevropada islomiy harakatlarning faoliyatini tadqiq qilgan Metin Gyurning hisoblashicha, bu assotsatsiya yevropaning 250 dan ortiq shaharlarida diniy shariat va siyosiy islom targ`ib qiluvchi maktablari bo`lgan va Erboqonni Fazilat partiyasi deputatlari ma`ruza o`qiganliklari haqida ma`lumotlarni keltiradi<sup>103</sup>. Germaniya maxsus xizmati Milliy Go`rush tashkiloti mamlakatlaridagi ishsiz yoshlarni safiga qo`shib olib, ekstremistik ruhiyatni singdirmoqda degan fikrda. Lekin bu tashkilotning Germaniyadagi faoliyatida qonun buzilishlari borasidagi ayblov o`z isbotini topmagan<sup>104</sup>. Lekin uning hatti–harakatlarini va faoliyatini kuzatish huquqni muhofaza qilish organlariga topshirildi.

<sup>101</sup> Hozirda Gyulen AQShda istiqomat qiladi. 2006–yil Gyulen Turkiya konstitutsiyasiga o`zgartirishlar kiritilganidan so`ng oqlangan edi. Ammo Turkiya Prokuraturasi bir nech appelyatsiyalarga qaramay, yana 2007–yil unga qarshi ish ochdi. Lekin Turkiya prokuraturasi uni topshirishni AQShdan talab qilmagan.[http://interfax.tr/adelet\\_mahkemesi/index.htm](http://interfax.tr/adelet_mahkemesi/index.htm)

<sup>102</sup> [http://www.google.ru/books?id=hqqxvm472VAC&dq/Hakan Yavuz. Islamic Political Identity in Turkey.](http://www.google.ru/books?id=hqqxvm472VAC&dq/Hakan+Yavuz+Islamic+Political+Identity+in+Turkey) Oxford University Press, 2003, – P.11.

<sup>103</sup> Celal Ates. // Islam Avrupada ne yapiyor? – Istanbul:Cumhuriyet, №8.2000

<sup>104</sup> Germaniya Reyn–Vestfaliya Federal yeri sudi 2005–yil noyabrda "Milliy Go`rush" tashkilotiga qarshi biron bir dalil topa olmaganligi uchun tergov jarayonlarini to`xtatgan. Celal Ates. // Islam Avrupada ne yapiyor? – Istanbul:Cumhuriyet, №8.2000

Hozirgi kunda Turkiyada davlatga qarshi ekstremistik tashkilotlarni qo'llab-quvvatlaydigan aholi deyarli kam. Chunki Respublikaning davlatdan dinni ajratilishi siyosati va usmoniylar davrida turklarni tarixiy diniy dunyoqarash tolerantlik hususiyati bilan siyosatga bo'lgan masofani saqlab keladilar<sup>105</sup>.

Mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar tufayli islom jamiyatlari bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashib o'zlarining moliyaviy manbalariga ega bo'lmoqda. Islomiy tariqatlar 80–90–yillarda hech bir davlat ko'magisiz turk jamiyatida o'z o'rniga ega bo'ldi. Kattaroq ta'sirga ega bo'lganlari tor doiradagi diniy faoliyatdan keng ijtimoiy jamoatlarga aylanib murakkab boshqaruvga ega va katta daromadlarni tasarruf etadigan moliya korporatsiyalariga egadir. Hozirda diniy oqimlar ochiq terror va ekstremizm yo'lidan borishmaydi. Aksari siyosiy maydonda baxslarga kirishishni afzal bilib, hozirgi hukumat bilan muholiflik qilishga harakat qilishmoqda. Bundan tashqari diniy tariqatlar davlatning dunyoviylik prinsiplariga daxl qilishni ancha kamaytirishgan.

Katta mavqeyga ega davlat liderlari tariqat rahnamolarini homiyligiga erishishga harakat qilishadi. Ular o'zaro so'fiylik tariqati bilan kelishishga va shu bilan moliyaviy ko'mak hamda o'z elektoratini kengayishiga erishishga harakat qilishadi. Bunday siyosiy holat turk politologi **Mehmet Arisan** fikricha, yaxshi tomonlari mavjud. Uning fikricha, siyosiy partiyalarning o'rniga, aynan tariqatlar sabab jamiyat ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy holatini o'zgarishlarga olib kelgan omil hisoblanadi<sup>106</sup>.

Davlat hokimiyati vakillarini jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligi tufayli potensial ziddiyatlardan qochishga yordam beradi, chunki o'sha diniy jamoatlar va ular tuzgan nodavlat tashkilotlar fuqarolik jamiyatini protoelementlari hisoblanadi hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi samarali aloqa o'rnatish vositasidir. Bunday samarali aloqa Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga a'zolik arafasida hali fuqarolik siyosiy qarashlariga va o'z qarashlarini ifoda

<sup>105</sup> <http://www.turkishweekly.net/articles.php?id=178/> Bacik Gokhan. Mystery of Turkish Hizballah // Middle East Policy 2002. – P.156.

<sup>106</sup> [http://www.turkishdailynews.com.tr/Arisan Mehmet. A General history of the Politicization of Islam in Turkey//27.07.1996.](http://www.turkishdailynews.com.tr/Arisan%20Mehmet.%20A%20General%20history%20of%20the%20Politicization%20of%20Islam%20in%20Turkey//27.07.1996.)

etish malakasiga ega bo'lmagan, zamonaviy demokratiya jarayon namunalariga qarshilik qilishga ulgurmagan an'anaviy ommani nazorat qilish uchun zarur.

## **2.2. Islomiy demokratiya, ijtimoiy islohotlar va ayollar masalasi**

Turkiyada demokratlashtirish jarayonida ko'plab siyosiy nayranglar va ko'r-ko'rona yolg'on va'dalarni bergan siyosatchilar, laitsizm himoyachilari armiya kabilar doim oldingi qatorga chiqadi. Qisqa vaqt ichida hurmat va obro' qozongan shaxslar uchun Turkiya maqsadga erishish yo'lida hokimiyat dastagi bo'lib qolgan edi.

90-yillarda Turkiyada demokratlashtirish yo'lida katta qadamlarni tashlay boshladi. Fuqarolik huquqi, demokratik institutlarni mustahkamlanishi, Yevropa bilan o'zaro hamkorlikni o'sishi, hokimiyat bo'linish prinsiplarini mustahkamlanishi va liberallashtirish jarayonlari jadal olib borildi. Lekin demokratlashtirish jarayoni 90-yillardagi davlat to'ntarilishidan so'ng boshqacha manzara kasb eta boshladi. Eng avvalo Turkiyada demokratlashtirish bu Yevropa Ittifoqiga a'zolik yo'lida qilinayotgan chora-tadbirlardan biri hisoblanar edi.

SSSR kabi davlatning parchalanishidan so'ng, Turkiyaning sovetlarga qarshi asosiy platsdarm vazifasini bajarishi keyingi o'ringa tushdi. Yevropa endi sovetlar xavfini emas, balki AQShdek katta bir gegemon davlatga har tomonlama qarshi turishi lozim edi. Shu sabab Yevropa davlatlari kengashlari ittifoq tuzishga kirishdilar. Turkiya o'z navbatida bir chetda yakkalanib qolishni istamas edi. 90-yillarda hokimiyatda turgan birinchi ayol bosh vazir Tansu Chiller mamlakatni demokratiyalashtirishning ilk odimlarini tashlagan edi. Uning boshchiligida fuqarolik huquq, erkinliklarini mustahkamlanishi va armiyaning hukumat ishlariga aralashishini maksimum darajada kamayishiga erishdi.

Turkiyada 90-yillarda demokratlashtirish jarayonida harbiylar va fuqarolar o'rtasidagi balans muvozanatni ushlab turilishi, siyosiy partiyalarning faolligi va

ularning mamlakatning barcha jabhalariga kirib borishi, fuqarolar orasida siyosiy faollikni oshishi, Yevropa Ittifoqi bilan muzokaralarni aktivlanishi va mayda etnik guruhlarini huquq va erkinliklarini ta'minlanishi kabilarni alohida ko'rsatish mumkin.

Mamlakatdagi 90–yillar demokratiyasi albatta 80–yillardagi jiddiy siyosiy voqealar bilan chambarchas bog'liq. 1980–yildagi harbiylarni davlar to'ntarishidan keyin oliy ofitserlar tarkibi tahmin qilganidek Otaturk o'rnatgan davlat laitsizm tamaliga putur yetkazayotgan islomiy harakatlar tinchigandek bo'ldi<sup>107</sup>. Ammo harbiy kutilgan rejadagidek voqealar rivoji bo'lmadi. Harbiylar 1982–yil Konstitutsiyaning qabul qilinishi bilan hokimiyatni fuqarolik boshqaruviga topshirdi. Hokimiyatga saylovlarga qo'yilgan va harbiylarga bog'liqligi bo'lmagan Vatan partiyasi keldi.

1980–yilgacha mavjud bo'lgan barcha siyosiy partiyalar qayta tiklandi. N.Erboqon Refah partiyasiga, A.Turkesh esa Milliy Harakat partiyasiga rahbarlik qila boshladilar. 1991–yil 20–oktyabrdagi saylovlar natijalari shuni ko'rsatdiki, fuqarolar hokimiyatga islomiy partiyaning kelishiga xayrihoh ekanligini namoyon etdi.

SSSR qulaguniga qadar G'arbiy blokda o'zining alishtirib bo'lmas o'rniga ega edi. Lekin SSSR qulagach, g'arb uchun antikommunistik mazmun yo'qoldi. Shu sabab xalqaro maydonda Turkiyaning mavqeyini ushlash maqsadida sobiq sovet respublikalari bilan mavjud barcha aloqlarni bog'lashga intilish kuchaydi. Qardosh turk respublikalarida siyosiy islomni yoyishga intilgan, lideri Fathulla Gyulen bo'lgan “Nurchilar” sektasi zo'r berib targ'ibot ishlarini boshlab yuborgan edi. Germaniyaga migratsiya qilgan turklar orasida N. Erboqoning Milliy Go'rush harakati faol propaganda ishlarini olib bordi.

Dunyoda va xalqaro munosabatlarda bipolyar qarama–qarshiliklar tugagach, Turkiya o'zining g'arb bilan munosabatlarini yanada kuchaytirishga harakat qildi.

<sup>107</sup> В. И. Данилов. Турция 80–х: от военного режима до «ограниченной демократии». – Москва: Наука, 1991. – С.181.

Hullas 90–yillarda Turkiyada demokratlashtirish jarayonida inson huquq va erkinliklari, mayda etnik birliklarning huquqlari, ko`ppartiyaviylik, islomiy harakatlarning mustahkamlanib olishlari, harbiylarning ta'sirini kamayishi va Turkiyaning mintaqada har taraflama mustaqil ekanligini ko`rsatdi.

Turkiyada demokratlashtirishda mamlakatdagi ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy holat, sud tizimi, harbiy kuchlar, etnik birliklar va vesternlashtirish, islom omili hisobga olinishi kerak edi. Demokratik normalarni turk jamiyatida adaptatsiya qilishi va g`arbcha shaklga kirishi ma`lum sabablarga ko`ra amalga oshirilishi mumkin edi.

Shu paytgacha qabul qilingan Turkiya Konstitutsiyalarini asosida davlat unitar hisoblangan. Biroq mamlakatda turli turli xil etnik kamchiliklar kabi, ruslar, kurdlar, armanlar, forslar, kavkaz xalqlari istiqomat qilishadi va ularning haq–huquqlari holati borasida demokratik maydonda muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki qabul qilingan har qanday qonun hamma uchun to`g`ri kelavermasligi mumkin. Shu sababdan Turkiya Konstitutsiyasining 66–moddasida «*Türk Devletine vatandaşlık bağı ile bağlı olan herkes Türktür*»<sup>108</sup>, ya`ni “*turk davlati fuqarosi bo`lganlarni barchasi turkdir*” degan asosni turk integratsiyasini 90–yillarda boshqa xalqlarga singdirish deb bilish mumkin. Mamlakatda arman va kurd millat vakillari o`zliklarini himoyasini daxlsizligini ta`min etish yo`lida kurashmoqdalar.

O`zlarining haq–huquqlarini himoya qilishda aktiv etnik birlik bu kurdlar hisoblanadi. Kurdlar Turkiya hududidan tashqari qo`shni hududlarda ham yashashadi va fors tiliga yaqin zaza va kermanji tilida so`zlashadilar<sup>109</sup>.

80–yillarni o`rtalaridan Kurdiston ishchi partiyasi o`z mustaqil davlatini tuzishni maqsad qilib qurolli kurashni boshlab yuborishdi. Shu asnoda mamlakatning janubi–sharqiy hududlarida ko`plab qonli to`qnashuvlar hukumat va KIP o`rtasida kechdi.

<sup>108</sup><http://www.tbmm.gov.tr/anayasa/anayasa82.htm>

<sup>109</sup>Дружиловский С. Б. Турецкая республика в 80–е - 90–е гг. – Москва: 1998. – С.91.

Turkiyada etnik kamchiliklarning muammolari hal etishda hukumat 90–yillarda “*soft power*” kuch usulidan foydalanar edi. Lekin haligacha “*smart power*” usulini demokratik mezonini qoʻllashga harakat ham boʻlgani yoʻq.

90–yillarda Turkiyada siyosiy partiyalarning mafkuraviy asosida islom omili yotishi hech kimga sir emas edi. Bu kabi partiyalar sud qarori bilan yopilsada, keyinchalik yana oʻz faoliyatini yuritib yangicha shiorlarni koʻtarib chiqardilar.

90–yillarda musulmon Turkiyada siyosiy islom tarafdorlari va ularga qarshi boʻlganlar oʻrtasida toʻqnashuvlar boʻlib turar edi. Davlat qurulishi asoslarini yaratgan Otaturk ham dinni davlatdan toʻla ajrata olmagan.

Turkiya hududidagi radikal islom harakatlarini arab islomiy tashkilotlar tomonidan moddiy va maʼnaviy taʼminlanishi va Turkiyaning YI ga aʼzo boʻlishida toʻsiq boʻlmoqda.

Turkiya respublikasining siyosiy hayotida harbiylarning oʻrni muhim sanaladi. Armiyaning oʻrni Konstitutsiyada belgilab qoʻyilgan boʻlib, mamlakatda olib borilayotgan siyosatga toʻgʻridan–toʻgʻri aralashish va tashqi siyosatni belgilashda yetakchi hisoblangan.

Bir narsani aniq belgilash mumkinki, Turkiya armiyasi NATO blokida qoʻshin soni boʻyicha AQShdan soʻng ikkinchi oʻrinda turadi. Armiya eng soʻnggi rusumdagi qurollar bilan taʼminlangan va Yaqin Sharq, Janubiy Kavkaz, Kaspiy–Qora dengiz hudud miqyosida jangovar qudratga ega zamonaviy taktik koʻrinishlarni oʻzida jamlagan. Otaturk davridan beri armiya dunyoviy davlatning himoyasi va kafolati boʻlib kelmoqda. Armiya bir necha bor hukumatga kelgan islomiy hukumatni ogʻdarib, hokimiyatni dunyoviy boshqaruvga topshirgan.

Yevropalik siyosatchilarning taʼkidlashicha, Turkiyada “harbiylarni – kazarmalarga, siyosatchilarni sahnaga” prinsipiga rioya etish vaqti kelganligini

aytishadi<sup>110</sup>. Har safar ham armiya generallarini siyosatga aralashaverishlari demokratiyani bug`ishi mumkin degantalqinlar mavjud.

Turkiyaning g`arb bilan yaqinlashuvining birinchi qadami bu 1952–yil Turkiyaning NATOga a`zo bo`lishi edi. Turkiyaning tashqi siyosatining asosiy yo`nalishi YI ga a`zo bo`lish bilan bir qatorda mintaqada yetakchi davlat maqomiga ega bo`lish edi.

1987–yil 14–aprelda Turkiya ilk bor YI ga a`zo bo`lish uchun ariza berdi. Bu Turkiyaning demokratlashtirilishi borasidagi katta qadamlardan biri bo`ldi. Turkiyaning YI ga qabul qilinishi borasida mahsus komessiya ish olib bordi. 1992–yil Lissabonda Yevropa Kengashi bilan o`tkazilgan rasmiy uchrashuvlarda YI ga a`zo bo`lishga nomzod mamlakatlarga qo`yiladigan talablar ishlab chiqildi. Bundan tashqari Maastrixt bitimlari ham nomzod mamlakatlarga a`zolik mezonlarini ishlab chiqdi.

1993–yil Kopengagenda Yevropa Kengashi mahsus kreteriyalarni ishlab chiqdi. Unga ko`ra nomzod bo`lmoqni istagan mamlakat o`z hududida demokratik jarayonlarni kafolatlashi, inson haq–huquq va erkinliklarini ta`minlashi, bozor iqtisodiyotini shakllantirishi, siyosiy birlikka erishganlik va valyuta fondi kelishuvlari, mayda etnik guruhlarini haq–huquqlari ta`minlanishi, YI ga a`zo davlatlar iqtisodiyoti bilan bimalol raqobatlasha olishi lozimligi kabi talablar qo`yildi<sup>111</sup>.

1993–yil noyabr oyida Turkiya Xalqaro Bojxona ittifoqiga a`zo bo`lishi, uning hududida bojxona kodeksi, sog`lom raqobat, mualliflik huquqi himoyasi, iste`molchi huquqi kabi normalarga amal qilishi ta`minlandi. 1995–yilda Yevrokomessiyaning dokladida Turkiyaga qo`yiladigan asosiy talablar orasida 1982–yilgi Konstitutsiyada inson huquqlari borasidagi va kurdlar masalasini ko`rib chiqish kabi muammolarni hal etish talablari ketirib o`tildi<sup>112</sup>.

<sup>110</sup> Аватков В.А. Турецкая демократизация в 90-е – ключ к сегодняшней исламизации Турции // Ближний Восток и современность. 2012. № 45. – С.78.

<sup>111</sup> Cagaptay S. The November 2002 Elections and Turkey's New Political Era // <http://www.washingtoninstitute.org/>

<sup>112</sup> Cagaptay S. US–Turkish Military Cooperation in Iraq: The Next Step // Zaman Daily. August 13.2003.

1999–yil Xelsinkida Yevropa Kengashining majlisida Turkiyaning rasman nomzodligi tasdiqlandi. Turkiya hukumati mavjud talablarni qabul qilishini ammo Gretsiya bilan muammoli holatlar borasida kelisha olmasligini bildirdi<sup>113</sup>.

Sekin asta Kopengagen kreteriyalarini bajarishni oʻz boʻyniga olgan Turkiya YI ga aʼzo boʻlishda oʻzining qonunchilik doirasini oʻzgartirishi va qayta koʻrib chiqishi kerak edi. 2000–yil Nittsa shahrida sammitda Turkiyaning siyosiy talablarni toʻla bajarmaguncha aʼzolik borasida muzokaralarga kirishilmasligi bildirildi. Bu esa Turkiya toʻla miqyosda liberalizatsiya ishlarini olib borishi kerakligini bildirardi. Inson haq–huquqlari, sud–huquq qonunchiligi va kamchilik toifaning manfaatlarini himoyasi va armiyaning mamlakat ichki ishlariga aralashishini kamaytirish kabi masalalar hal etilishi asosiy talablardan edi.

**Islomiy jamiyatda ayollarning oʻrni.** Musulmon olamida erkakning vazifasi ayollarnikiga qaraganda masʼuliyatliroq hisoblanadi. Shunga asosan Turkiyada jamiyat madaniy va ijtimoiy qadriyatlar patriarxal tizimga bogʻliq hisoblanadi. Ayollarni jamiyat hayotida passivligi va erkaklarni mavqeini jamiyatda muhim oʻrni bilan anʼanaviy turk jamiyatida ikki jins vakillarini gender rolini belgilab bergan. Shu asnoda, biz Turkiyaning 1980–yildan keyingi modernizatsiya jarayoniga kirishi bilan ayollarni hususiy va davlat ijtimoiy va siyosiy sohalaridagi ishtiroklarini koʻrib chiqamiz.

Dastlab, 1924–yilda qabul qilingan taʼlim toʻgʻrisidagi qonun bilan ayollarni erkaklar bilan teng bilim olish huquqini berdi. 1926–yilda qabul qilingan Fuqarolik kodeksi bilan ayollarga fundamental huquqlarni berildi. Ayollar 1930–yilda saylovlarda ovoz berish, 1934–yilda saylovlarga oʻz nomzodini qoʻyish kabi imkoniyatlarni qoʻlga kiritdi. Misol uchun, Kanadada ayollar saylovda ovoz berishni 1950–yilda va saylanish huquqini 1960–yilda qoʻlga kiritganlar. Turkiyada ayollarni dekretga chiqish taʼtili 1930–yildayoq berilgan edi. 1936–yilda Mehnat kodeksini kuchga kirishi bilan ayollarni ishlash sohasi kengaydi. Bir yildan soʻng, Xalqaro Mehnat tashkiloti bilan kelishuvga

<sup>113</sup>Cyprus not a Victory, but a Diplomatic Fiasco // <http://www.zaman.com/>

ko`ra, ayollarni og`ir va xavfli ishlarga jalb etilishi ta`qiqlandi. 1945–yildan esa, homidorlik nafaqalari va 1949–yildan qarilik nafaqalari ayollar va erkaklar uchun teng asosda tayin etildi. 1952–yildan boshlab ayollar va bolalar tibbiy xizmat ko`rsatish Sog`liqni saqlash vazirligi tomonidan ta`minlandi<sup>114</sup>. Garchi islomiy nuqtai–nazardan joiz bo`lmasada, 1965–yildan e`tiboran, homiladorlikdan saqlovchi vositalar va asbob uskunalar Turkiya hududida erkin sotuvga chiqarildi va tarqatildi. Bundan tashqari, aholini rejalashtirish va tibbiy zarur paytlari abort masalalari bo`yicha ham qonun qabul qilindi. Turkiya Respublikaini mustahkamlanishida va rivojlanishida ayollarni erkaklar bilan bir qatorda ishtirok etishlari o`ta muhim edi. Shu tufayli, gender tenglikka oid qonunchilik rivojlandi. Endi ayollar rasmiy doiralarda, ommaviy joylarda bemalol ishtirok eta boshladilar. 1980–yilda Turkiyada ayollar harakati paydo bo`la boshladi. 1986–yilda esa, ayollarga har qanday munosabatlarda diskriminatsiya holatlarga qarshi kurashish to`g`risidagi konvensiyaga a`zo bo`lindi. 1989–yilda “Ayollar tadqiqot markazi” Istanbul Universitetida tashkil etildi. Hozirgi kunda bu kabi markazlar soni o`ndan oshib ketgan. 1990–yilda esa, turk bola huquqlari kelishuvi imzolandi. Fuqarolik huquqini 159–moddasidagi “Ayolning mehnat qilishiga erkak kishining ruxsati” bandi Konstitutsion Sud tomonidan olib tashlandi. XX asrning 80–yillarda Turkiyada gender nomutanosiblikni bartaraf etish bo`yicha maxsus hukumat komissiyasi tashkil etildi. Turkiya Aholishunoslik va rivojlanish bo`yicha 1994–yil Qohirada konferensiyada ishtirok etdi va barcha kelishuvlarga imzo chekdi. 1995–yil esa, rasmiy darajadagi Pekin konferensiyasida turk delegatsiyasi qatnashdi<sup>115</sup>. Bu konferensiyada barcha kelishuvlarga qo`shilgan Turkiya delegatlari konferensiyada ma`ruza qilishdi. Unda Turkiyadagi ayollar ahvoli bo`yicha doklad qilindi. Ammo, bu dokladda aksari ishonchli bo`lmagan ma`lumot va raqamlar keltirilgan edi. Bu Turkiya tomonidan jahonga ayollar borasidagi gender tenglikka “to`la amal qilinmoqda” degan quruq ma`lumotlar edi. Turkiya

<sup>114</sup> <http://cbu.edu.tr/> – Page.76.

<sup>115</sup> Serpil A. Çalışma Yaşamında Kadın [Women in Working Life]. – Ankara: TİSK Türkiye'de Kadın İş gücü Seminerleri, 1999, – P.10.

Sharqiy Anatoliya hududlarida ayollarni ahvoli ancha og'ir edi. G'arbiy Turkiya hududlariga nisbatan Sharqiy hududlar iqtisodiy va ijtimoiy ancha oqsagan, ayollar borasidagi muammo hali ko'p edi.

Ayolarni ta'lim tizimida 1997–yilda sakkiz yillik majburiy ta'lim tizimi qabul qilinishi ham ayollarni ta'lim olishda huquqlarini mustahkamladi. Bundan tashqari, fuqarolik kodeksiga o'zgartirish kiritilib, ayollar turmushga chiqishgach, yo o'zlarini, yo erlarini familiyalarini tanlash huquqi berildi. Oiladagi zo'ravonlikdan himoya va kuch ishlatishga qarshi 1998–yilda qonun qabul qilindi. **1998–yil 17–fevralda** yangi tahrirdagi Oila qonuni (*Medeni kanun*) qabul qilindi. Yangi qonun o'z ichiga zamonaviy demokratik tamoyillarga asoslangan holda ayollar huquqini to'laligicha o'zida namoyon etadi. 2002–yilda qabul qilingan yangi fuqarolik qonuni o'z ichiga ayol va erkakni tengligi borasidagi ko'plab moddalar kiritildi. Ko'rinib turibdiki, bu kabi o'zgarishlar 1980–yildan keyin boshlangan modernizatsiya tufayli edi. Ammo bu kabi o'zgarishlar bilan Turkiya barcha muammolarni hal qildi degani emas edi. Tadqiqotlarga ko'ra, Turkiya demokratiya bilan boshqarilmaydigan ayrim davlatlarga nisbatan ba'zi ko'rsatkichlarda ortda borayotgani kuzatilgan. Insoniyat rivojlanish hisobotida keltirilishicha, Turkiya 187 davlat ichida 92–o'rinni egallagan. Biroq, inson rivojlanishi dokladida Qatar 37, Bahrayn 42, Saudiya Arabistoni 56 va Ummon 89 o'rinda kelgan. Ko'rinib turibdiki, Turkiya gender tenglik borasida inson intellekti ko'rsatkichlari past ko'rsatkichga ega. Gender rivojlanish indeksi va jins vakillarini huquq va imkoniyatlari ko'rsatkichlari 2009–yilda Turkiyada tekshirilganda, birinchi ko'rsatkich bo'yicha 155 davlatichida 126 va ikkinchi ko'rsatkich bo'yicha esa 109 davlat orasida 101 o'rinni egalladi<sup>116</sup>. Shularni hisobga olgan holda, Turkiya siyosat, biznes, tibbiyot, ta'lim tizimida bir qator islohot kutib turganligidan dalolat berar edi. Turkiyada ayollarni ta'lim olish borasidagi holatga kelsak, ahvol qoniqarli emasligi yaqqol namoyon. Tadqiqotlarga ko'ra, ta'lim har doim ham ayollarni

---

<sup>116</sup> Türkiye Nüfus ve Sağlık Araştırması [Turkey Population and Health Research]. (2008). – Ankara: Hacettepe Üniversitesi, – P.345.

ijtimoiy–ma'daniy va siyosiy, iqtisodiy sohalarda o'z o'rnini topishida ijtimoiy bosim va an'anaviy ayollar ko'rinishiga bog'liqligi ko'zga tashlandi. Ayollarni savodli bo'lishi ta'lim dasturlari va gender tenglik harakatlari bugungi Turkiyada adekvat holat hisoblanmaydi. Ayollarni savodlilik darajasi 1997–yilda 85,3 %ni, 2010–yilda esa, 92 % ni tashkil etdi. 1997–2006 yillar oralig'ida aholini savodlilik bir necha etaplarga ko'tarildi. *[ilovada jadval №5ga qarang]* Bilamizki, Turkiya Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish uchun 1992–yil qabul qilingan Kopengagen kreteriyalarini bajarmoqda. Uning bandlarida ayollar masalasiga oid demokratik talablar ham mavjud. Ayollarning ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan omillarga uydagi erkak jins vakillarini sabab qilib o'rsatish mumkin.

Turkiya qonunchiligida ayollar ilm–fan yutuqlaridan to'liq tasarruf etishlari, oliy ma'lumotli bo'lish huquqlari berilgan. Lekin bunga to'liq amal qilinmaydi.

1970–yillarda dunyoda feministik harakatlar o'z ta'sirini ko'rsatdi va bu narsa Turkiyada 1980–yillarda o'z ta'sirni o'tkazmay qo'ymadi. Bu harakat natijasida ayollar o'z huquqlari va o'zlariga oid ayollikning dolzarb muammolarini ko'tarib chiqdilar. Tanqidiy fikrlar ochiqchasiga namoyon bo'la boshladi. Hususan, ayollarning hijob masalasi dolzarblik kasb etdi. 1980–yildan keyin davlat idoralarida va jamoat joylarda ayollarning ro'mol va hijob taqishlari ta'qiqlangan edi<sup>117</sup>. Bu yerda inson huquqlari buzilishi ko'rinsada, harbiy hukumat bu kabi e'tirozlarni qabul etmadi.

1990–yil Turkiyada Ayollar darajasi va muammolari bosh boshqarmasi tashkil etildi. Bu tashkilot ayollar mavzusida ko'plab ishlarni amalga oshirdi va xalqaro tashkilotlar, tuzulmalar bilan aloqa o'rnatdi. Shuningdek, qonuniy o'zgarishlar sohasida universitetlarda tashkil etilgan ayollar tadqiqot birliklari bilan hamkorlikda ularning loyihasi yuzasidan ko'plab homiylik ishlarini amalga oshirdilar. 1990– yillarda Yevropada amalda bo'lgan va ayolni siyosiy

---

<sup>117</sup> Gülay, T. Türkiye'de Kadın İstihdamı Raporu [Women Employment Report in Turkey]. – Ankara: ILO Türkiye Direktörlüğü, 1992. – P.50–51.

jarayonlarda integratsiyalashuvini maqsad qilgan alohida bir pozitiv siyosat bilan o'z ifodasini topgan amaliy kurslar Turkiyada ham o'z baxsli ziddiyatlarini kutib oldi. Bu kurslarni ilk amaliy jihatini Sotsial Demokratik Xalq partiyasining qabul etgan ustavida 25% lik o'rin ayollar uchun ajratilishida namoyon bo'ldi.

Ayollarning davlat ishlariga jalb etilishi ham past ko'rsatkichga ega. Hozirda maishiy mehnat kuchlari ma'lumotlariga ko'ra, 2011–yilda mamlakat umumiy ayollaridan 28,8 % igina mehnatga jalb etilgan xolos. 2008–yilda 6 mln 973 ming ayol doimiy mehnat bandligiga ega bo'lgan<sup>118</sup>. Aholini qishloq hududlardan shaharlarga migratsiyasi tufayli shaharlarga ko'chib o'tgan ma'lumoti yo'q ayollar ish topa olishmaydi. Kam ish haqi to'lanadigan va ish xavfsizligi ta'min etilmagan holatda ayollar mehnat qilishmoqda. Ayollarni xizmat sektoridagi mehnat ulushi qishloq xo'jaligida birinchi o'rinda bo'lsa, undan keyin sanoat va maishiy xizmat ko'rsatish o'rin egallagan. Shundan ko'rinib turibdiki, ayollar ma'lum bir malaka talab qilinmaydigan sohalarda xizmat qilishmoqda. Bundab tashqari ayollarni mansabga ko'tarilishida bir qator to'siqlar uchramoqda. Aksar hollarda erkaklarni mansabni egallashi kuzatiladi. Mansab chegaralanishi tufayli ayollar ertaroq o'z kasbkorlarini tugatishga majbur bo'lishmoqda.

Ijtimoiy ta'minot borasida gap ketganda, ayollar 58 yoshida, erkaklar 60 yoshida nafaqaga chiqishadi.

Turkiyaning ilk ayol vaziri bu Tansu Chillerdir. U 1993–yil 25 iyuldan 1996–yil 6 mart kunigacha bosh vazirlik qilgan. Ayollarning TBMM<sup>119</sup> ga mandat soni yildan yilga ortib bormoqda. *[ilovada jadval №3 ga qarang]*

Mamlakat ma'muriy boshqaruvida ayollar o'zni 6,8% dan oshmaydi. Davlat boshqaruvidagi ishtiroki realizatsiyasi kamroq. Hozirgi kunda universitet professorlik –o'qituvchilik kontingenti 41,6%ni tashkil etsa, 27,8% i professor hisoblanishadi. Davlat diplomatik xizmatida 110 ta elchidan 11 nafarini ayollar tashkil etadi. Viloyat (il) bosharuvida ayollar kuzatilmasada, 464 ta vitse–hokim

<sup>118</sup> Gülten, K. (1978). Türkiye'de Kadın Eğitimi ve Kadın Çalışması [Women Education and Working in Turkey]. Toplum ve Bilim Dergisi, 5, 2011.– P45.

<sup>119</sup> TBMM –Turkiya Buyuk Millat Majlisi (parlament nomi). Turkiya tarixi. Qosimov.A.M. – Toshkent: Fan, 1988. – B.23

ichida 10 ta va 801 ta tuman (semt)ni 13 tasida ayollar o`rin olgan. Ma`lumotlarga ko`ra, turk kasaba uyushmalari konfederatsiyasining “Ayol boshqaruvchilar so`rovnomasi”da yuqori mansabdagi boshqaruvchilarning 22,8%ini ayollar tashkil etishi ko`rindi<sup>120</sup>. Ayol boshqaruvchilarni aksari hususiy sektorda tashkil qiladi. Ayollarni gender tenglik yo`lida chiqayotgan muammolar qatoriga to`rt omilni ko`rsatish mumkin: ta`limda olishda tengsizlik, ish qidirishda va xizmat borasida o`shishda tengsizlik, mehnatga yarasha haq olmaslik va ijtimoiy huquqlardan foydalanishda haqsizlik kabilar.

Tug`ilish soni shaharlarga nisbatan qishloq rayonlarda yuqori hisoblanadi. Tug`ilishning eng yuqori ko`rsatkichi Sharqiy Anatoliyaga to`g`ri keladi. Keyingi yillarda tug`ilish XX asr 70–80 yillarga nisbatan XX asr 90–yillari va XXI asr boshlarida kamayish kuzatilmoqda. Turkiya Yevropada aholisi jihatidan Germaniyadan so`ng, ikkinchi o`rinni egallaydi. Bu yerda bir narsani alohida ta`kidlash mumkinki, islom an`analariga ko`ra ko`pfarzandlikka ko`proq rag`bat beriladi.

Ayollar feministik harakati Turkiyada asta sekin Yevropa ta`sirida rivojlanib, miqyos darajasini butun mamlakatga olib chiqishga urinishlar ketmoqda. Bundan tashqari mamlakatda islomiy harakatlar qoshida ayollar qanoti ham faoliyat olib bormoqda. Turkular orasida hali ham ayollarni ta`lim olishlarini kerak emas deb hisoblaydiganlar ko`pchilikni tashkil qiladi. Qishloq joylarda ayollar huquqi buzilishi ko`p uchraydi. Lekin an`anaviy jamiyat oilaviy muammolarga aralashib hal qila olmaydi. Oilaviy muammolar shaxsiy va unga hech kim aralasha olmaydi. Islomiy aqidalarni tushunmagan holda ayollarga zulm qilayotgan erkaklar ilmsizliklari tufayli oilaviy resurslarni isrof qilishgan. Agar bir xo`jalikda ayollar soni bir necha sondan oshiq bo`lsa, ularni samarali mehnat turlariga jalb qilib, oilaviy biznesni yo`lga qo`yib, moddiy holatni yaxshilanishiga olib kelishi mumkin. Ayollarning aksari malakali tibbiy xizmatlardan foydalan olmaganliklari tufayli turli kasalliklarni rivojlanishiga

---

<sup>120</sup> Ü. Eğitim Bilimleri Fakültesi Dergisi , 37, 2011. –P.18

olib kelmoqda. Turk jamiyati g`arblashgan va an`anaviy islomiy qadriyat ta`sirida bo`lgan toifaga bo`linadi.

### **III–bob. Turkiya madaniy va ma`rifiy sohalarida dinning o`rni va roli**

#### **3.1. Turkiya ta`lim tizimi va unda diniy ta`limning o`rni**

O'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, Turkiya Usmoniylar davrida diniy ta`lim markazlari bo'yicha musulmon davlatlari orasida katta mavqeyga ega bo'lgan. Hususan Usmoniylar imperiyasi Misr va Hijoz, Najd hududlarini bosib olgach, turklar orasida islom dinining tutgan o`rni yuksala bordi. Chunki yuqorida bosib olingan joylarda islom dini asosiy din edi. Usmoniy sultonlar payg`ambarlar va halifalarning avlodlariga ehtirom ko`rsatib ularni oilalari bilan imperiya markaziga ko`chirib kelib joylashtirgan edi. Sulton saroyida mavqeyi baland islom dini ahkomlari ta`siri oshib bordi. Bu o`z navbatida olib borilgan siyosatda ham namoyon bo`ldi.

Otaturk inqilobidan so`ng din peshvolari va shayxlar ta`qibga uchradilar. Barcha diniy tashkilotlar va maktablar yopildi va mulklari davlatga musodara qilindi. Uzun soqol qo`ygan barcha dindorlarni soqollari majburan qirdirib tashlandi. Shunday qilib, Otaturk o`zi barpo etgan Respublikani o`z g`oyalari bilan boshqara boshlagan edi. Ko`p vaqt o`tmadi, 1946–yildan boshlab, ko`ppartiyaviylikka ruhsat berildi. 1950–yilda hukumatda gegemon bo'lgan Xalq Respublika partiyasi saylovlarda Demokratik partiyaga mag`lub bo`ldi. Hokimiyat boshqaruvini qo`lga olgan bosh vazir Ednan Menderes o`zini liberal siyosatchi sifatida ko`rsatishga harakat qilib jamoat tashkilotlarini tuzilishiga xayrixox ekanligini ko`rsatdi. Shunday qilib, mamlakatda diniy jamoatlar va oqimlar o`z faoliyatlarini qayta tikladilar va tezda oldingi holatlarini tiklab oldilar. Demokratik partiyaning saylovlarda g`alaba qilishiga mamlakatdagi diniy ruhdagi aholi va ma`lum bir qatlam katta rol o`ynadi. Butun mamlakat bo`ylab diniy maktablar ochilib ketdi. Dinga chanqoq yoshlarni o`z safiga qo`shib olgan imom–hatib maktablari soni oshib bordi. Hukumat din vaqf ishlari boshqarmasiga nazorat va tartibotni maktablar ustida amalga oshirishiga ko`rsatmalar berdi. Lekin diniy maktablarning aksari uy sharoitida qishloq hududlarda amalga oshirilar edi. Diniy ta`limga bo'lgan talab va ehtiyoj ortishi bilan chetdan diniy kuryerlar kela boshladi. Hususan arab mamlakatlaridan diniy

ta'lim beruvchilar oqib kela boshladi. dinga oid yangi adabiyotlar ko'paya bordi. Hukumat yurgazayotgan siyosat muvofaqqiyatli kechmadi va 1960–yili harbiylar tomonidan ag'darildi. Mamlakatda yuzaga kelgan diniy atmosferani kengayganligi tufayli diniy oqimlar hukumat siyosiy faoliyatiga endigina aralasha boshlagan edilar. Lekin aniq bir yo'nalish bo'lmaganligi uchun diniy oqimlar va harakat vakillari hukumat siyosatiga kirisha olishmadi. Diniy oqimlar va tariqatlarning bir yutug'i hukumatda o'zlarinin tarafdorlariga ega bo'lishlari edi. Asta–sekin dinning siyosatga aralashuvi jarayonlari yuz bera boshladi.

Diniy maktablar asosan Turkiyaning markaziy va sharqiy qismlariga keng tarqalgan edi. Bu hududlar g'arbiy hududlarga nisbatan dunoviylashmagan va diniy e'tiqod jihatidan ancha g'ayratli aholi qatlami yashaydigan joylari hamda shuningdek, iqtisodiy jihatidan ancha orqada qolgan Turkiyaning qoloq rayonlari edi. Bu hududlarda sanoatning yaxshi rivojlanmaganligi tufayli ishsiz yosh aholi qatlami mamlakat hududidan tashqariga ish izlab migratsiya qilgan. Chetga ketishga imkoni bo'lmaganlar diniy oqimlar va tariqatlarga borib a'zo bo'lishgan va shu orqali ishli bo'lishga harakat qilishgan. Hukumat esa, tariqatga a'zo bo'lgan yoshlarni faqat diniy ilm bilan chegaralanib qolishlaridan tashvishga tusha boshlagan. Bu maktablarni cheklash choralarini ko'rish boshlandi. Cheklovlardan qochib yashirin faoliyat olib borishdan ko'ra hukumat belgilab bergan doirada faoliyat olib borishni afzal bilib qonuniy yo'l bilan diniy ta'limni rasmiy tarzda oli borilishiga harakatlar boshlangan edi. 1949, 1956, 1967–yillarda boshlang'ich, o'rta va fakultativ o'quv yurtlarida diniy ta'limni kiritishga intilishlar bo'lgan. 1949–yil Anqara Universitetida diniy ta'lim beruvchi o'qituvchilarni tayyorlaydigan teologiya fakulteti ochildi. Ko'p o'tmay, Istanbul Universiteti qoshida Oliy Islom Universiteti ochildi. Shunga o'xshash analogik universitetlar Konya, Kayseri, Izmir, Bursa, Erzurum va Samsun shaharlarida ochildi.

Otaturk o'z islohotlari bilan dinga zarar berishga intilmagan va umuman cheklash niyati bo'lmagan. Shu sabab, uning davrida Din Diyonat Ishlari bo'yicha boshqarma tuzilib, uning nazorati ostida 70–yillardan boshlab, Qur'oni

Karim bo'yicha funksional kurslar asosida maxsus darslar berila boshlangan edi. Diniy ta'lim davlat belgilab bergan tizim asosida olib borildi. Davlat radikalizm va fundamentalizm g'oyalari bilan sug'orilgan mafkuraga ega dinni xalqqa singdirish nazarda tutilgan edi. Islom dinini kuchini va ta'sirini susaytirish maqsadida davlat o'z loyihasi asosida taqdim qilingan mafkura bilan xalqqa diniy ta'limni taklif etdi.

1982–yilda harbiylar hukumati mamlakat oliy o'quv yurtlarida diniy ta'lim dars sifatida 1980–yilgi ta'qiqdan so'ng yana qayta tiklandi. Hukumatni boshqarib turgan harbiylar diniy ta'limni olib borilishigaruhsat berishlarida asoslar bor edi. Armiya tarkibidagi ofitserlarni aksari AQSh oliy o'quv yurtlarida ta'lim olib qaytganlar. Ularning dunyoqarashida liberal va gumanizm g'oyalari singgan edi. Bu ofitserlar demokratik prinsiplarga amal qilgan holda boshqaruvni ham fuqarolik boshqaruviga topshirib jamiyatni demokratlashuviga halaqit berishni istamadilar. Ular avvalo xalqning azaliy an'analarini cheklab bo'lmasligini, balki murosas va kelishuv yo'li barcha masalaga yechim ekanligini bilishgan.

Turkiya Konstitutsiyasining 24–moddasida "Diniy ta'lim–tarbiya davlat nazoratidadir", –deb begilab qo'yilgan.

Mamlakatda 80–yillarda diniy ta'lim berish markazlarda yashirin holda faoliyat olib borilgan. Bu maktablarni asosan boy odamlar homiyligida moliyalashtirib turilgan. 80–yillarda mamlakatdagi oliy o'quv yurtlarni sakkiz nafarida teologiya fakultetlari ochilgan edi. Eng katta teologiya fakulteti Konya shahridagi Seljuk universitetida faoliyat olib boradi. 1985–yilda Anqara universitetida 1,3 ming teolog bitirib chiqqan bo'lsa, ulardan 271 nafari ayollar tashkil etgan. Turg'ut O'zal prezidentligi vaqtida o'rtacha olganda mamlakat o'rta maktablarini o'quvchilarini 13% diniy maktablarda o'qishgan. 1992–93–yillarda imom–hatib o'rta maktablari 416 ta (258,4 ming nafar o'quvchi bo'lib, umumiy o'rta maktab o'quvchilarini 10% i) va imom–hatib litsey darajasidagi 391 ta (137,5 ming nafar o'quvchi, butun mamlakat litsey talabalarini 8% i) ni

tashkil etgan<sup>121</sup>. 1995–yilda imom–hatib litseylari soni 800 dan ortiq edi. Ularda 355 ming bola ta`lim olgan. Aynan shu yili butun mamlakat bo`ylab 77,3 ming teolog o`qituvchi oliy o`quv yurtlarini bitirib chiqishgan. Butun mamlakat oliy o`quv yurtlari jami talabalarini 26,3% diniy fakultet talabalari tashkil etgan. Davlat ro`yhatida turgan diniy ta`lim beruvchi maktablarning moddiy–texnik bazasi ta`minoti davlat qaramog`ida bo`lgan. 90–yillarda mamlakatda ro`yhatda turgan 22 ta diniy o`quv markazlari faoliyat olib borgan. Hozirgi kungacha oxirgi teologiya fakulteti 2002–yil Qahraman Marashda ochilgan.

80–yillarda Turkiyada ochilgan ilk imom–hatib litseylari bitiruvchilari ma`lumot hujjatlari o`rta maktab shahodatnomasi darajadagi kuchga teng qilib qo`yilgan. Shu sabab bu diniy litseylar bitiruvchilari oliy o`quv yurtlariga hujjat topshira olmasdilar. Litseylar soni 600 ga yaqinlashib qolgan edi. Bu litseylarning bitiruvchilari universitetlarning talabalariga javob bera olmas edilar. Qishloqlardan chiqqan yoshlar bu litseylarda o`qish osonligi uchun o`qigani kirar edilar. Shu sabab bu litseylarning talaba–o`quvchilari soni 80–yillar oxiri va 90–yillarning boshida oshib ketdi. Ular asosan ilohiyot, tarix, fiqh, hadis ilmini bilishgan holos. Keyinchalik bu litseylar ta`lim dasturiga ham dunyoviy fanlar kiritila boshlandi. 80–yillarda bu litseylarda 511 ming talaba o`qigan va yiliga 80 ming talaba bitirib chiqqan<sup>122</sup>. Ba`zi universitetlar adolatsizlik ham qilishgan. Hususan ular litseylarni bitirib hujjat topshirishga kelgan abuturiientlarni hujjatlarini qabul qilishdan bosh tortgan vaqtlari ko`p bo`lgan. Mamlakat elita qatlami bu diniy litseylarni bitirib chiqqan o`quvchilar kelajakda biror bir davlat idorasida yoki hukumat ishlarida o`z diniy dunyoqarashi bilan mamlakat boshqaruvida ishtirok etishlaridan xavfsirar edi. Bundan tashqari ularni kelajakda Turkiyada shariat asosidagi davlatni qurishlari mumkinligi farazlari ham mavjud edi.

Diniy litsey bitiruvchilariga bandlik masalasi yuzasidan mamlakatda 70,213 ming masjid yordam berar edi. 90–yillarda butun mamlakatda imom,

<sup>121</sup> Ziya Bursalioglu. Okul Yönetiminde Yeni Yapı ve Davranış. – Ankara: A.Ü.E.F Yayını, 1999. –S.86.

<sup>122</sup> Ziya Bursalioglu. Okul Yönetiminde Yeni Yapı ve Davranış. – Ankara: A.Ü.E.F Yayını, 1999. –S.25.

muazzin, mudarris va diniy muallimlarga bo'lgan talab to'liq qanoatlantirilgan edi<sup>123</sup>. 90–yillarning oxiriga kelib masjidlar soni 74,356 taga yetdi.

SSSR parchalanib ketgach, Turkiyada diniy va milliy ruhiyatda o'zgacha bir tendensiya namoyon bo'la boshladi. Ko'p vaqt ateistik mafkura ostida yashagan turkiy respublikalarga diniy targ'ibotchi kuryerlar jo'natila boshlandi. Manbalarga ko'ra birinchilardan bo'lib, Marmara Universiteti o'z bitiruvchilarini ana shu hududlarga targ'ibot va tashviqot uchun yuborgan deyiladi. Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlariga yuborilgan talabalar panturkizm va noqonuniy diniy tashviqotni amalga oshirishlari ko'zda tutilgan edi.

1997–yil mamlakatda yetti yillik majburiy ta'lim joriy etildi va konstitutsiyaning 42–moddasida 15 yoshgacha bo'lgan fuqarolarni ta'lim olishlari bepul qilib belgilandi. Hukumat boshqaruvidan ketgan Refah partiyasi o'zi bilan ko'plab diniy litseylarni yopilishiga olib keldi. 2000–yilda bu imom–hatib litseylarida 134,224 ming talaba o'qigan bo'lib, 1999–yilda nisbatan 58,562 nafar kamroq degani edi. Shunday qilib, 90–yillarning oxirida Turkiyada o'z ichki ehtiyojidan tashqari sakkiz barobar ko'p, ya'ni 511 ming diniy litsey talaba bitiruvchilari bor edi.

Diniy ta'lim insonni inson ustida ishlashni o'rgatadigan oliy ilmlar majmuidir. Diniy ta'limni moddiyatga va ayirmachilikka yetaklash dinga nisbatan xiyonatdir. Hech bir harakat javobsiz qolmasligini vaqt isbotlaydi.

### **3.2. Ommaviy axborot vositalari faoliyatida va madaniyatda dinning aks etishi**

XX asrda yadro poligonlaridan mafkura poligonlari kuchi borasida prezidentimiz aytgan gaplari haq ekanligini dunyoda bo'lib o'tayotgan jarayonlardan bilib olish mumkin. Global darajada chegara bilmaydigan axborot oqimi soniyalarda jahonning xoxlagan nuqtasiga informatsiyalarni yetkazmoqda. Taniqli siyosatchilar ta'biri bilan aytganda, "agarda kimning

<sup>123</sup> Мусульманский мир. Выпуск №12. – Москва: 2003. –С.45.

qo`lida informatsiya bo`lsa, u doim oldinda yuradi va kuch ana o`shaning qo`lida bo`ladi". Shunday qilib, Turkiyadagi islom omilini keng quloch yoyishida ham inform medianing o`rni sezilarlidir. Oddiy fuqarolarning ongiga kirib borishda OAVning vositachiligi samarali hisoblanadi.

Muhtasar qilib, keltiradigan bo`lsak, Turkiyada ilk telekanal 1968–yili TRT nomi bilan faoliyatini boshlagan edi. Birinchi hususiy telekanal 1989–yili Star TV nomi bilan ochilgan. Birinchi Dijital formatdagi telekanal 1999–yili Dijitürk nomi ostida Star dijital kompaniyasi tomonidan ochilgan. Turkiyada diniy telekanallar faoliyatini boshlanishi qilib, 1993–yilni olishimiz mumkin. Chunki bu yilda hukumat ilk bor islomiy televideniye ochilishiga va faoliyatiga ruhsat bergan. Telekanallarni ochilishiga qadar mamlakatda diniy mazmundagi gazeta va jurnallar va radioeshittirishlar mavjud edi holos. Hozirgi kunga kelib diniy telekanallar va diniy radiostansiyalar bo`yicha Turkiya Yevropada B.Britaniya va Germaniyadan so`ng uchinchi o`rinda turadi<sup>124</sup>. Turkiyada milliy media sanoat rivojlanishi bilan hususiy telekanallar va radiostansiyalar ko`paya boshladi. mamlakat sharqiy hududlarida aholini aksar qismi Eron, Suriya, Livan hududlaridan taralayotgan diniy radio to`lqinlarni tinglashar edi. Bu kabi radioeshittirishlar aholi ongiga salbiy ta`siri ham bo`lishi mumkin edi. 90–boshlarida Eron hukumati islom inqilobini boshqa davlatlarga eksport qilish siyosatini amalga oshirib kelmoqda edi. Albatta Turkiya sharqiy hududlariga diniy radioeshittirishlar to`lqini yetib kelar edi.

Turkiyadagi diniy oqimlar va tariqatlar tomonidan tashviqot va targ`ibot uchun maxsus ilk diniy telekanal 1994–yilda "Canal 7" nomi bilan avval Istambulda va keyinroq, Anqarada tele–translyatsiyalarni olib bordi. Shu asnoda ilk radiostansiya 1990–yil hukumat ruhsati bilan faoliyatini boshlagan edi. Hullas, axborot oqimi tezlashgan bu davrda media xizmati "propaganga" uchun qulay muhitni yaratgan edi. Globallashuv shuni taqozo etgan edi. Endi diniy

---

<sup>124</sup> German Marshall. Transatlantic Trends: Key Findings. – Washington, D.C: Fund of the United States, 2007. – P.81.

sektalar yashirin emas, oshkora afkor omma oldida chiqishlar qilish darajasidagi kuchga aylana borayotgan edi.

Mamlakatda islomiy tariqatlar moliyaviy jihatdan ancha quvvatli bo'lib olganlaridan so'ng o'zlarini targ'ibot va tashviqot ishlari uchun OAV xizmatlarini yo'lga qo'ya boshladilar. Ular orasida birinchi bo'lib ochilgan islomiy telekanal TGRT, Saman Yolu TV (1994–yil ochilgan), Saman Yolu Avrupa TV, Sebil TV, Sufiy TV, TV–5 kanali, Yol TV, Ulke TV, Hilal TV, Mpl TV, Berat TV, Kanal 7 va Mesaj (xabar) TV, Meltem TV, Mehtap TV, Nurs Lukman Hekim TV, On4 TV, Semerkand TV, Dost TV va A9 TV kabi hususiy telekanallar faoliyat boshlagan edilar<sup>125</sup>. Bundan tashqari islomiy radiolar soni 90–yillarda ancha oshdi. Misol uchun Arka FM, Burch FM, Moral FM, Bashak FM, Radyo Onbesh, Feza Radyo, Dost FM, Furkan FM, Isra FM, Chag'ri FM, Umut FM, Radyo Islam, Lalegul FM, Anadolu FM, Asya Radyo, Ribat FM, Tulu radyo, Radyo Hayat, Hedef radyo, Radyo Harun Yahya, Risale Radyo, Rahmet FM, Fetih Radyo, Herkul Radyo va boshqa 50 dan ziyod islomiy va alaviy, shia e'tiqodidagilarning radiostansiyalari mavjud. Aksar radiostansiyalar hususiy hisoblanadi. Ular orasida Turkiya hududidan tashqari turib Turkiya hududiga eshittirishlar uzatayotgan radiostansiyalar ham bor.

Albatta, islomiy teleradiokanallardan so'ng, islomiy jurnallar va gazetalar ham targ'ibot va tashviqot ishlarida alohida o'rni bor. Islomiy matbuot zamonaviy Turkiya matbuoti uchun yangilik hisoblanadi. 2000–yillarning boshida maxsus tekshiruvlar natijasida chetdan keluvchi islomiy jurnallar va gazetalar soni 500 dan oshishi ma'lum bo'ldi. 80–90–yillarda Turkiyada rasmiy ro'yhatda turgan islomiy jurnallardan *Akademi dergi* (islomiy ilm fan yangiliklari), *Altinoluk*, *Ay Vakti*, *Beyan* (musulmon ayollar uchun), *Feyz*, *Gulistan*, *Iktibas*, *Ilk Adim*, *Inkishaf*, *Irfan mektebi*, *Karakalem*, *Ko'pru*, *Rahle Eg'etim ve Kultur dergisi*, *Semerkend dergi*, *Tesevvuf ilmi ve Akademi arashtirma dergi*, *Islam Dunyasi* kabi taniqli nashrlar mavjud. Mamlakatda

<sup>125</sup> İngiltere, İsveç, Fransa İle Federal Almanya'da Okul Reformları ve Okul Kuruluş Sistemlerinde Demokratlaşma Temayülleri. – İstanbul: M.E.B. Yayını, 1970. – S.345.

siyosatida o'ng yo'nalishdagi Refah partiyasining rasmiy gazetasi "Milliy Gazeta" 1972–yildan beri nashr qilinib keladi. Uning katta adadi 150,000 tagacha yetgan. Isroillik tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, bu gazetada antisemitizmga oid maqolalar chop etib kelinadi. Isroilliklar bu maqolalar yahudiylarga nisbatan nafrat va ishonchsizlikni keltirib chiqarish uchun qilinmoqda degan fikrdalar.

Turkiyada muholifat partiya rasmiy gazetalarida siyosiy kurashlar va tanqidiy fikrdagi maqolalar ko'p chop etiladi.

90–yillarning boshida Turkiya hududida minimal diniy ilmni yoshlarga va aholini ma'lumoti yo'q qismiga tashviq qilish uchun din peshvolari rahbarligida "Tevhid", "Yer yuzi" va "Objektiv" deb nomlangan haftalik gazetalar nashrga chiqarildi.

Turkiyada islom omili kuchayishini baholab boradigan g'arb doimo bu mamlakatdagi siyosiy ijtimoiy holatga o'z OAVlari orqali ma'lum qilib boradi. Bu ma'lumotlarni yarmi asosli bo'lsa, yarmi tahminiy va bashorat qilingan voqealar rivoji haqida so'z boradi. Xorij OAVlarida Turkiyadagi politsiya va xavfsizlik xizmatida islom harakati a'zolari muhim pozitsiyalarni egallab olganliklari haqida gapiriladi. Islom omilini dunyoviylik prinsiplarini oshib o'tishi borasida mahalliy turk matbuoti ham juda ko'p gapiriladi. Hususan, Turkiyada nashrdan chiqadigan "Nokta" jurnalida 1990–yil iyun oyidagi bir maqolada xavfsizlik xizmatidagi kadrlarni islomlashganligini va juma ibodatidan tashqari kunlik besh vaqt ibodatni qilayotganliklari haqida tashvish bilan keltirilgan edi.

1995–yil avgust oyida Turkiyalik to'rt fuqaroni narkotik moddalarni kontrabandasi uchun Saudiya Arabistonda qatl qilingani uchun norozilik bilan "Respublika" gazetasida Hikmat Chetinkayaning "Bo'yinni qilich kesmoqda" nomli maqolasi chiqdi<sup>126</sup>. Shu voqea sabab, Saudiya va Turkiya islomiy harakatlari o'rtasida sovuqchilik kelib chiqqan edi. Jumhuriyet gazetasi Turkiyada eng dolzarb muammoli maqolalari bilan tanilgan. Bu gazeta 200.000

<sup>126</sup> Cumhuriyet // Saudian and Turkey relations /№34. 2 February. 2000.

dan ortiq turajga ega nasshr hisoblanadi. Uning asosiy daromadi reklama va homiylik ko`maklari hisoblanadi.

1995–yil saylovlarda islomiy Refah partiyasi g`alaba qilganidan keyin, butun turk va g`arb matbuotida shu haqda fikrlar bildirildi. Eron va arab matbuoti bu holatni ijobiy baholagan bo`lsa, yevropa va muholifat, dunyoviylik tarafdori bo`lgan nashrlar mamlakatda islomiy qonun–qoidalar joriy qilinishidan xavfsiragan chiqishlarni qilishdi. Turkiyaning 65 mln aholisini boshqarish islomiy partiya qo`liga o`tganligi borasida dunyo turlicha fikrlarni bildirdi. Ingliz gazetasi "Guardian"ning yozishicha, Turkiyada endi hech kim g`arblashish va dunyoviylashiga kafolat bera olmaydi, u endi siyosiy beqarorlik darajasiga tushib qoladi<sup>127</sup>. Bu nashrda yozilishicha, rivojlanishning faqat g`arblashish mafkurasi mavjud emas, RPning g`alabasi bilan dunyoviy partiyalarni parchalab tashladi. Turk jamiyati yangi jarayonlar o`rasiga tushdi. Erboqonni RP sini chetdan turib qo`llab–quvvatlagan rasmiy Tehron fikrlarini "Dunya" gazetasi eronda chiquvchi "Tehran Times" gazetasidagi fikrni keltiradi: "Turkiya yana sharqona tusga kirirshi kerak. RPning koalitsion hukumatda ishtirok etishi yaxshi boshlanishdir." Respublika gazetasida jurnalist X. Chetinkaya "Tariqatlar sharqda va janubi–sharqda nimani istashadi?" nomli maqolani e`lon qildi. U bu maqola bilan islom harakatini keyingi rejalarini ochib berishga harakat qilgan.

Taniqli turk sotsiologi va politologi, AQSh Prenston universiteti o`qituvchisi Metin Heper o`zining **"Milliyet"** gazetasiga bergan intervyusida Erboqonning partiyasini muvofaqqiyatini Turkiya uchun xavf tu`gdirmasligini aytib o`tgan. Uning hisoblashicha, "bugun Turkiyada demokratiya dinni inkor etmaydi, shu o`rinda din ham demokratiyaga moslashib bormoqda" va jamiyatdagi bu jarayonlarda din o`zini mamlakat siyosiy hayotida o`rnini topishga harakat qilayotganligini ta`kidladi. Heperning fikricha, Respublika davrida islohotlar xalqni ko`proq islom e`tiqodidan millatchilik e`tiqodiga yo`nalgan bo`lgan. Xalq endi o`zini islom davlati qo`l ostida deb emas,

<sup>127</sup> The Guardian // Turkish Islamists aim for power, November 21, 1995.

dunyoviy davlatning fuqarosi sifatida his eta boshladi. Xalq islomning diniy va etika prinsiplaridan o`zini tiygan holda davlatning dunyoviy fikrlovchi doirada deb bila boshladi. Saylovlarda saylovchilarni har beshinchisi o`z ovozini RP ga bergan. Biroq bu saylovchilarni uchdan bir qismi RP ga diniy partiya ekanligi uchun ovoz bergan. Shundan bilish mumkinki, saylovchi vakillarning aksari mamlakatda shariatga asoslangan davlatni yuzaga kelishiga qarshi ekanligini ko`rsatdi. Heperning aytishicha, RP 1993–yil oktyabrdagi kongressda qabul qilingan xalq uchun oshkoralik qaroridan keyin dunyoviylik tusini olgan. RP olib borgan "Adolatli tartibot" siyosati bilan davlat iqtisodiyotida islomiy iqtisod doktrinasini bilan ishtirok etishni nazarda tutmagan. RPning o`ng qanotini boshqargan Erboqonni merosxo`ri deb hisoblangan Erdog`an liberal–musulmon sifatida ba`zi munitsipalitet restoranlarida spirtli ichimliklarni iste`mol qilishni ta`qiqlamasligini ta`kidlagan. Heperning tasdiqlashicha<sup>128</sup>, 90–yillar o`rtalarida kam sonli radikal islomiy guruhlar va harakatlar mamlakat siyosiy–iqtisodiy hayotida asta–sekin legal element sifatida ishonch va mavqei qozonmoqdalar. Heper Turkiyadagi islomiy e`tiqod vakillarini mamlakatning hamma sohalarida muhim rolni o`ynashlaridan mamnun. Heper agar barcha turli xildagi ko`rinishga ega fuqarolarni jamiyat hayotida ishtirok etishlari hayotni boyitishi mumkinligini ishonch bilan taklif etdi. "Agar bir turk masjidga borsa va o`z farzandlarini diniy ta`limga jo`natishayotgan bo`lsa, ularni diniy fanatizm namoyondasi deb bo`lmaydi. Boshqa tarafdin musulmon aholini musulmon bo`lmaganlarga hurmat ila munosabatda bo`lishlari kerak. Bu kabi imperativlarni amalga oshirishda davlat olib borayotgan yagona strukturadagi madaniy xila–xillikdagi liberal–demokratik tuzum asosiy o`rin tutadi".

Turk kinomatografiyasida ham 80–yillarda ko`p o`zgarishlar yuz berdi. Jamiyat muammolarini ko`tarib chiqadigan va kamchiliklarni fosh qiluvchi filmlar suratga olindi<sup>129</sup>. Jamiyatni didaktik va falsafiy ma`nodagi kinofilmlar to`ldirib bordi. 1994–yil rejissyor Metin Chamurjuning Otaturk haqidagi filmi

<sup>128</sup> Ucer Murat. Turkey Watch/Economics: Well Done! But Now What? – Istanbul: Private View, No. 12, Autumn 2007. – P.61.

<sup>129</sup> Robia. rejissyor: Osman Seden. 1982; Mangulikning ikki qirg`og`i. Rej: Ismail Gunesh. 1993; Hasan Basriy. Rej: Yilmaz Atadeniz. 1995; Filistinlik Zehranin go`zleri. Rej: Ali Derekshi. 1988

mamlakatdagi elita intelligensiyasi orasida norozilikni keltirib chiqardi. Go'yoki bu film Otaturk xotirasiga nisbatan dushmanlik deb baholandi. Bu ayblovlarga javoban film rejissyori fimdagi barcha voqeylik tirik tarix: soqoli kesilgan shayxlar, qabri qazib olinib tahqirlangan diniy olimlar mayitlari kabi hodisotlar deb tasdiqladi. Bunday shavqatsiz davr haqiqatlariga yetishishga harakat qilayotgan hozirgi yosh turk tarixchilari Otaturkning o'zi diniy e'tiqodni rad etgan degan xulosaga ham kelmoqdalar. Tarixchi J. Dyundar o'zining Otaturk haqidagi maqolasida Otaturk general K. Karabekir bilan suhbatida "avvalo diniy fikrlashni yo'q qilish kerak" deb aytgan ekan<sup>130</sup>. Yana bir ingliz jurnalistiga "butun dunyodagi dinlarni dengiz tubida ko'rishni hohlashini" go'yoki aytgan. Otaturkni xudosizlik ayblovlarini rad etgan holda, 1989–yilda professor I. Giritli "Istambul Tijaret" gazetasida taniqli din arbobi M. Jinniyning "Otaturkchalik hali hech kim dinga xizmat qilmagan" degan so'zlarini keltiradi. 70–80–yillarda Turkiya islomiy filmlar bo'yicha yetakchilik qildi. Filmlardagi asosiy syujetlar Usmoniylar imperiyasi davrida yashagan avliyolar, shayxlar, olimlar va mutafakkirlar hayoti haqida bo'lgan. 90–yillarga kelib, musulmonlar "saodat asri" bo'lgan sahobalar davri turk kino sanoatida asosiy mavzu bo'ldi. Bu filmlar turkiy respublikalarga Turkiyaning o'zida tarjima qilinib, jo'natilgan.

Intiho yasaydigan bo'lsak, turk matbuoti va kinofilm sanoati islom omilini Turkiya fuqarolari dunyoqarashida jo bo'lishida o'zining katta hissasini qo'shgan. Bekorga yurtimizda ham matbuotni to'rtinchi hokimiyat darajasi berilmagan. Matbuot va media jamiyatning illatlarini va kamchiliklarini fosh etishda holis vositadir. Axborot kuchi kimning qo'lida bo'lsa, o'sha dunyoni boshqaradi.

---

<sup>130</sup> Ergun Özbudun. Contemporary Turkish Politics Challenges to Democratic Consolidation, – London: Lynne Rienner, 2000. – P.123.

Kishilik jamiyatida inson subyekti doimo muammo va g'oyaviy kurashlar ichida hayot kechirmoqda. Har kim manfaat ortidan maqsad sari intilish yo'lida ozchilik yoki ko'pchilikka xizmat qiladi. Umumjamiyat muammolarini o'ziniki deb bilgan toifalar o'ta kamyob, ular haqida mulohaza qilish va namuna sifatida ko'rsatish mumkin. XX - asr axborotlashish va turli manfaatlar to'qnash kelgan bir davr bo'ldi. Bu davr o'zining kutilmagan voqealari va hodisalari bilan tarixda qoldi. Dunyo qurolli va mafkuraviy kurashlarni boshdan kechirdi. Biz muxtasar qilib, qo'l urgan magistrlik dissertatsiyamizda biz uchun begona bo'lmagan va kelib chiqishi va til jihatidan yaqin bo'lgan Turkiya Respublikaida 80–90–yillarda ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan jarayonlar haqida qisqacha tahliliy fikrlar va qiymatga ega ma'lumotlarni keltirish uddassidan chiqildi. Turkiya Respublikasidagi diniy jarayonlarni tahlil qilishda yillar davomida kuzatishlarga asoslangan adabiyotlardan unumli foydalangan holda, ilmiy ish yoritildi. Biroq, biz g'arblik, turk va rus olimlarining qarashlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilmasdan, ularni ilmiyligini va obyektiv yondashilganini ishonch xosil qildik. Ma'lumotlarni ishonchli bo'lishi uchun aniq manbalarni keltirishga harakat qilindi.

Dissertatsiya ishida Turkiya borasida ko'plab ma'lumotlarni keltirish mumkin edi. Ammo biz muhtasar qilib, o'sha vaqtdagi muhim jarayonlarni lavhalarigina o'quvchilarga havola qilindi.

Tarix shohidki, qanchadan-qancha yirik imperiyalar umrguzaronligi ko'zlangandan kamroq bo'ldi. Shunga yarasha mustahkam jamiyatlar ham tanazzulga uchradi, yoki tanlagan yo'lini o'zgartirishdi. Misol uchun kommunizm yolg'on va'dalar bilan xalqni ishontirib, totalitar tizimni o'rnatib xalqlarni zulm iskanjasiga yetakladi. Tadqiqotimiz markazida rang-baranglikka ega jamiyat borki, bu an'anaviy turk jamiyatidir. Bu turk jamiyatida diniylik va dunyoviylik tushunchalarini to'qnashuvlari va hisoblashishlari kabi jarayonlarni

ko`rish mumkin. Bu kabi holatlarni ko`plab musulmon mamlakatlarida uchratish mumkin.

Dinni siyosatda ochiqchasiga qurol qilib olish avvalo mamlakat dunyoviy elita jamiyatini va butun jahon hamjamiyatida qarshiliklarga duch kelishi bor gap. Shu sabab diniy qadriyatlarni milliy an`analar bilan chambarchas bog`liqligini hisobga oladigan bo`lsak, bunday muammolarni hal etish dolzarb bir holat hisoblanadi. Turk jamiyatida turli millat va xalqlar assimilyatsiya jarayoniga uchrab turli dunyoqarashga ega fuqarolar mamlakat ijtimoiy-siyosiy holatini belgilab berishida katta rolni o`ynamoqda. Turkiyaning g'arblashgan mintaqalarda yunonlar bilan aralashib ketgan turklar sharqiy hududlarda yashovchi turklarga nisbatan ancha tolerant va xristian dunyosiga nisbatan xayrixox hisoblanadi. Yunonlar bilan nikoh tufayli jamiyatda diniy omil pasaydi. Hozirda turk yuqori elitada onasi yunon, otasi turk bo`lgan fuqarolar mamlakat boshqaruvida ishtirok etmoqda. Tabiiyki, ular kuchli islomiy e`tiqoddagi radikal va shariat qonunlariga rioya qiladigan turklarni hokimiyatga kelishlariga albatta qarshilik qiladilar.

MHP deputati Rushen Chakirning ta`kidlashicha, dunyodagi barcha siyosiy qarashlar va mafkuralar bir kuni kelib eskirib qolishi mumkin, insoniyat qalbidagi diniy e`tiqodlar va aqidaviy mafkuralar jiddiy o`zgarishlarga uchramaydi<sup>131</sup>.

Turk jamiyatida kamolizm g`oyalari bilan dinning ommaga ta`sir doirasini susaytirish siyosati har xil davrda turlicha kechgan. Otaturk uchun diniy mutaasiblikdan aziyat chekkan turk millatini ba`zi qismini dunyoviylik sari yetaklash qiyin bo`lmagan. Shu holatni bizning hududlar bilan taqqoslaydigan bo`lsak, O`rta Osiyo respublikalarida Stalin davridagi ateistik siyosat tufayli ko`plab diniy arboblardan va islomiy qadriyatlar yo`q qilinishini ko`rishimiz mumkin. 50–yillarda Turkiyada islomiy guruhlar va tariqatlarning jonlanishi va tuzumni dinga nisbatan siyosatini o`zgarishi bilan izohlash mumkin.

---

<sup>131</sup> <http://www.cankaya.tr.com//> Ruşen Çakır. Siyasette din faktörü . 2010. – S.15.

O'zbekistonda, 50–yillarda shaxsga sig'inish<sup>132</sup> fosh etilgach, qatag'on qilingan diniy arboblardan va olimlardan oqlandi. Hattaki O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi o'tgan asrdagi din siyosati o'xshash jihatlarni ko'plab keltirish mumkin.

Turkiyada diniy omil vaqt o'tgani sari o'zini ko'rsata boshlagani mamlakatda harbiylarni xavotirga solgan edi. Ular hukumatda diniy atmosfera yuzaga kelishini oldini olish uchun 1960, 1971, 1980 va 1997-yillarda hukumatni ag'darib, dunyoviylikni yana qaror toptirardilar. Ularning mamlakat ichki va tashqi siyosatida tutgan o'rnini beqiyos deb bilish mumkin. Bilamizki, Otaturkning ilk hukumati tarkibida harbiylar joy olgan edi. Mamlakatdagi dolzarb masalalarni va muammolarni harbiylar hal qilishar edi. Keyinchalik bu holat an'anaga aylanib qoldi. Fuqarolik boshqaruvi mamlakatdagi mavjud holatni izdan chiqqanda va boshqaruv tizimini qo'ldan boy bergan paytlari armiya generallari vaziyatni izga solish uchun hukumatni ag'darib, kommendantlik holatini joriy qilib qattiqqo'llik bilan siyosat yurgizganlar. Butun OAVda senzura belgilanib, siyosiy partiyalar faoliyati ta'qiqlangan. Harbiylar o'zlarini kamolizm va dunyoviy davlat himoyachilari deb bilishgan. Yevropa bilan integratsion jarayonlarga qo'shilayotgan Turkiya uchun harbiylarni hukumat siyosatiga aralashishi muammo hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi tashkilotiga nomzod bo'lib turgan Turkiya Kopengagen kreteriy<sup>133</sup>lari bo'yicha harbiylarning ta'sirini kamaytirish talablarini bajarishi kerak. Bundan tashqari diniy bag'rikenglik va e'tiqod, vijdon erkinligi huquqlari ta'minlanganligi ham inobatga olingan. Yevropada Turkiya harbiylarini uncha ham hushlashmaydi. Bunga bir qancha omillar ham sabab bo'lgan. Hususan 1974-yilda Turkiya armiyasi Shimoliy Kipr hududlarini anneksiya qilganligi va musulmon o'lkani 1954-yilda NATO blokiga kiritilishi hammaga ham yoqmagan<sup>134</sup>. Turkiyaning qo'shni xristian Gretsiya bilan doimiy raqobatda bo'lishini Yevropa

<sup>132</sup> 1956-yil SSSR Oliy Kengashi KPSS syezdida N. K. Xrushchov Stalin shaxsiga sig'inishni qoraladi

<sup>133</sup> Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish shartlari 1992-yilda Kopengagen kelishuvlarida imzolangan.[http://www.wikipedia.org/european\\_union/htm](http://www.wikipedia.org/european_union/htm)

<sup>134</sup> German Marshall. Transatlantic Trends: key findings. – Washington, D.C.: Fund of the United States., 2007. – P.12.

hushlamaydi<sup>135</sup>. Umuman olganda xristian yevropa uchun Turkiya ortiqchalik qilib kelgan.

80-yillarning boshida Turkiya uchun o`gir keldi. Iqtisodiy-ijtimoiy inqiroz mamlakat uchun katta zarba bo`ldi. Sulaymon Demirel boshchiligidagi hukumat vaziyatni o`nglay olmadi. Milliy valyuta lirani qadrsizlanishi, sanoat ishlab chiqarish kamayganligi, ijtimoiy himoya siyosati inqirozi va talabalar noroziligini oshishi kabi muammolar hukumatda turgan Adolat partiyasini hokimiyatdan olinishiga asosiy sabab bo`ldi. Armiya generali Kenan Evren o`z safdoshlari bilan hukumatni qo`lga olishga qaror qildilar. Jamiyat noroziliklarida ishsizlik muammosi hamma muammolarning o`chog`i edi. Hukumat buni hal qila olmadi. 70–80–yillarda turk fuqarolarini yevropaga ommaviy ravishda ish izlab migratsiya qila boshladi. Aksar turklar vatanlariga qaytib kelmadilar. Turkiya iqtisodi keyinchalik yevropada ishlayotgan fuqarolar yuborgan va kiritgan kapitallar evaziga ham biroz o`zini o`nglab oldi. Avval bosh vazir Ulusning iqtisod bo`yicha maslahatchisi bo`lgan va keyinchalik iqtisodiy islohotlar rejasi muallifi Turg`ut O`zal Turkiyani muammolar changalidan biroz bo`lsada olib chiqdi<sup>136</sup>. U hususiy tadbirkorlik va fuqarolarga mikro kreditlar berilishi, bank tizimi va turizmni ravnaq topishiga ko`maklashuvchi qarorlarni qabul qila oldi. O`zal o`zini liberal siyosatchi sifatida namoyon qilgan. U jamiyatning turli darajalarida obro` va e`tibor qozonishga va ularning ishonchiga kirishga harakat qilgan. U Turkiyadagi islomiy taroqatlar faoliyati olib borishiga xayrixox bo`lgan. Bevosiya ular bilan aloqasi ham bo`lgan. Hukumat tarkibida ham islomiy tariqat va oqimlarga a`zo shaxslar ham faoliyat olib borgan. Jamiyat demokratizatsiyasi uchun barcha jamoat tashkilotlariga erkinlik berilganligidan islomiy tashkilotlar va oqimlar, tariqatlar gullab-yashnadi. Mamlakatda islom omili ta`sirlari sezila boshlandi. Bu asosan tashqi siyosatda yaqqol bilindi. Bunda arab va Mag`rib davlatlari bilan aloqalarni kengayishi va islomiy xalqaro tashkilotlarni qo`llab-quvvatlashida bilish mumkin.

<sup>135</sup> Eurasianet // Turkey: Religious Minorities Watch Closely as Election Day Approaches. July 19, 2007. – P.4.

<sup>136</sup> Zeki Duman. Türkiye’de Liberal-Muhafazakâr Siyaset ve Turgut Özal. – Trabzon: İlyali, 2001. –S.71.

1995-yilgi majlisga saylovlarda islomiy dasturga ega Refah partiyasi hukumatda koalitsion boshqaruv bilan ishtirok eta boshladilar. Ikki bor koalitsion hukumat<sup>137</sup> hukumat tarkibini ishlab chiqishda murosqa qila olmadilar. Refah o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erisha olmadi. Sabablar ko'p edi. Birinchi sabab g'arb bilan munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'yilmagani bo'ldi. Qo'shni bo'lgan har sohada taraqqiy etgan yevropa davlatlari bilan munosabatlarni uzish foydali emas edi. Hukumat uning o'rniga musulmon o'lkalari bilan aloqani afzal bildi. Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi ajratgan mablag'lar maqsadsiz sarflandi. Turkiya tashqi qarzi o'sib bordi va valyutani qadrsizlanishiga olib keldi. Fuqarolar mamlakat iqtisodini va ijtimoiy himoya, bandlik muammosini hal qila olmagan dunyoviy partiyalar ishini islomiy partiya islohotlari yechimi yordam beradi,—deb saylovlarda Refahga ovoz bergandilar. Globalizatsiya sharoitida integratsiyaga qo'shilmaslik yakkalanib qolishdek gap edi. Oqibat armiya harbiylari refah a'zolarini tinchgina iste'foga chiqishga ko'ndirdilar. Refah Konstitutsion Sud tomonidan yopildi. Erboqon Refahni o'rniga Saodat va Fazilat partiyalarini tashkil etdi. Ammo bu partiyalar ham konstitutsion sud tomonidan yopildi.

Turkiyada yildan-yilga aholi soni oshib borishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ham ko'payib bordi. 80-yillarda shu muammolarga yarasha islohotlar amalga oshirildi. Lekin siyosiy mashmashalar, korrupsiya, siyosiy arboblarni o'zlarini foydalarini o'ylab ishlashlari qilingan sa'i-harakatlarni samarasizlikka yetakladi. Turk fuqarolari ish izlab yevropaga ko'chishlari ko'paydi. Bu oz bo'lsada, aholini moddiy ahvolini yaxshilagan.

90-yillarni boshida iqtisodiy ahvol tanglashdi. Ishlab chiqarish mahsulotlari eksporti kamaydi. Turk iqtisodi bahtiga Markaziy Osiyo respublikalari bozorlari ochilishi turk mollariga haridor topib berdi. Yevropa bozorlar qabul qilmagan sanoat tovar-mahsulotlarni endi sobiq sovetlardan ajragan respublikalarga eksport qilish imkoniyati paydo bo'lishi va bu ko'plab turk fuqarolarini ish

---

<sup>137</sup> Koalitsion hukumat – bir konsensus asosida umumsiyosiy maqsadga erishish yo'lida birlashgan siyosiy partiyalar birligi. Turkiyada tarixda uch bora koalitsion hukumat tuzilgan. Дружиловский С. Б. Турецкая Республика в 80–90 годы. – Москва: Наука, 1998. – С.126.

bilan ta'minladi. Bundan tashqari Turkiya birinchilardan bo'lib Markaziy Osiyo davlatlarini mustaqilligini tan olgan<sup>138</sup>ligida manfaat borligini ko'rish mumkin.

1995-yil Turkiya Yevropa bojxona ittifoqi<sup>139</sup>ga a'zo bo'lishi turk sanoat mahsulotlarini yevropaga teng huquqlilik asosida eksport qilish imkoniyati vujudga keldi. Bundan oldin g'arbga turk mahsulotlarini sifat va raqobat darajasida teng kelolmagan.

Endi panturkizm masalalariga keladigan bo'lsak, Turkiyaning bu borada o'z pozitsiyasi mavjud. Sobiq SSSR hududidagi turkiy tilli respublikalar mustaqillikka erishgach, Turkiya bu hududlarda "turk etnosi yetakchisi" rolini bajarishga harakat qila boshladi. shu asnoda har yili Turkiya Respublikasi tashabbusi bilan turkiy davlatlar hukumat rahbarlari yig'ilishi o'tkazilishi an'ana tusini oldi. Bu yig'ilishga bizning respublikamiz rahbariyati doimiy ishtirokchisi bo'lib kelayotgan edi. Oxirgi paytlarda bu yig'ilishlarning amaliy samarasi yo'qolib va hamkorlik masalalari muammolariga yechim bo'lmagani tufayli, bizning hukumat rahbarlari ishtirok etmaslikni afzal bilishmoqda. Hozirgi Turkiya millatchilari va panturkizm<sup>140</sup> tarafdorlari ta'kidlashlaricha, unga ko'ra barcha turkiy qavmlar va xalqlarning asosini hozirgi Turkiya hududida yashovchi turklar tashkil etadi degan aqida va qarashlar o'rnatilib olgan. Kavkaz, Bolqon, Sibir, Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyo hududlarida yashovchi turkiy tilli xalqlar<sup>141</sup>ni til, madaniyat, etnos jihatdan turklarga borib taqalishi borasidagi panturkistik qarashlar bizning mintaqaga ham nisbatan yangrab kelmoqda.

Jamiyatda islomiy aqidalarni qay darajada taraqqiy etganligini bilish uchun xalqni va millatni o'sha qadriyatlariga nisbatan bo'ladigan tahdid yoki, tajovuzlarga javob reaksiyasidan bilib olish mumkin. Bundan tashqari hozirgi turk millatida o'zini so'nggi xalifalik bo'lgan Usmoniylarning merosxo'rlari

<sup>138</sup> 1992-yilda Turkiya Respublikasi Markaziy Osiyoning barcha davlatlarini siverenitetini jahonda birinchilardan bo'lib tan olgan.

<sup>139</sup> Bojxona Ittifoqi – Yevropa Ittifoqi kelishuvlaridan biri bo'lib, YIga a'zo davlatlar o'rtasida teng huquqli bojxona to'lovlari va bojlari amal qiladi. [http://www.wikipedia.org/european\\_union/htm](http://www.wikipedia.org/european_union/htm)

<sup>140</sup> Panturkizm-g'oyasi XIX asr oxirida shakllangan bo'lib, g'oyaviy "otasi" Ismoil Gaspirali bo'lgan. Panturkizm g'oyalari ilk bor 1883-yildan Qrimda "Terjuman" gazetasida targ'iboti boshlangan. <http://www.wikipedia.org>.

<sup>141</sup> Sharqshunos olim Gumilevning fikricha, turk etnosi Sharqiy Sibir va Yenisey bo'yalaridan kelgan qabilalar asosida shakllangan. <http://www.wikipedia.org/turkology/index.shtml>

sifatida ko`rish ruhiyati shakllanmoqda. Bu holat turk millatini fahr tuyish hissini hozirgi avlod ruhiyatida namoyon qilmoqda. Kishilik jamiyatini millatchilik va aqidaparastlik illatlari yemirishini oldini olish insoniyatning yechimsiz muammosi bo`lib qolaveradi. Zero, tashqi siyosatda boshqalarni o'zidan past ko`rish va mensimaslik bilan qarash, kelajak avlodlar uchun ziddiyatli holatlar uchun zamin yaratadi.

**Ilovalar:***Jadval №1***Turkiya Respublikaida XX asr 80–90–yillarda bosh vazirlik qilgan shaxslar**

| №  | Bosh vazir                 | Lavozimga kirishgan yili | Muddati tugagan yili   | Partiyasi                              |
|----|----------------------------|--------------------------|------------------------|----------------------------------------|
| 1  | <i>Sulaymon Demirel</i>    | 12 noyabr 1979           | 12 sentyabr 1980       | <i>Adolat Partiya</i>                  |
| 2  | <i>Byulent Ulusu</i>       | 20 sentyabr 1980         | 13 dekabr 1983         | <i>Turkiya Harbiy Kuchlari</i>         |
| 3  | <i>Turgut O'zal</i>        | 13 dekabr 1983           | 31 oktyabr 1989        | <i>Vatan partiyasi</i>                 |
| 4  | <i>Ali Xusrey Bozer</i>    | 31 oktyabr 1989          | 9 noyabr 1989          | <i>Vatan partiyasi</i>                 |
| 5  | <i>Yildirim Akbulut</i>    | 9 noyabr 1989            | 23 iyun 1991           | <i>Vatan partiyasi</i>                 |
| 6  | <i>Mesut Yilmaz</i>        | 23 iyun 1991             | 20 noyabr 1991         | <i>Vatan partiyasi</i>                 |
| 7  | <i>Suleyman Demirel</i>    | 20 noyabr 1991           | 16 may 1993            | <i>To'g'ri Yo'l partiyasi</i>          |
| 8  | <i>Erdal Inyonyu</i>       | 16 may 1993              | 25 iyun 1993           | <i>Sotsial demokratik xalq partiya</i> |
| 9  | <i>Tansu Chiller</i>       | 25 iyun 1993             | 6 mart 1996            | <i>To'g'ri Yo'l partiyasi</i>          |
| 10 | <i>Mesut Yilmaz</i>        | 6 marta 1996             | 28 iyun 1996           | <i>Vatan partiyasi</i>                 |
| 11 | <i>Nejmettin Erbakan</i>   | 28 iyun 1996             | 30 iyun 1997           | <i>Refah Partiyasi</i>                 |
| 12 | <i>Mesut Yilmaz</i>        | 30 iyun 1997             | 11 yanvar 1999         | <i>Vatan Partiya</i>                   |
| 13 | <i>Byulent Edjevit</i>     | 11 yanvar 1999           | 18 noyabr 2002         | <i>Demokratik so'l partiya</i>         |
| 14 | <i>Abdulla Gul</i>         | 18 noyabr 2002           | 14 mart 2003           | <i>Adolat va Taraqqiyot partiyasi</i>  |
| 15 | <i>Rejep Tayip Erdogan</i> | 14 mart 2003             | Hozirda ham lavozimida | <i>Adolat va Taraqqiyot partiyasi</i>  |

**Turkiya Respublikaida XX asr 80–90–yillarda prezidentlik qilgan shaxslar***Jadval №2*

| № | Prezident                 | Lavozimga kirishgan yili | Muddati tugagan yili | Partiyasi                             |
|---|---------------------------|--------------------------|----------------------|---------------------------------------|
| 1 | <i>Faxri Korutyurk</i>    | 6 aprel 1973             | 6 aprel 1980         | <i>harbiy</i>                         |
| 2 | <i>Kenan Evren</i>        | 9 noyabr 1982            | 9 noyabr 1989        | <i>harbiy</i>                         |
| 3 | <i>Turgut O'zal</i>       | 9 noyabr 1989            | 7 aprely 1993        | <i>Vatan partiyasi</i>                |
| 4 | <i>Suleyman Demirel</i>   | 16 may 1993              | 16 may 2000          | <i>Adolat Partiyasi</i>               |
| 5 | <i>Axmet Nejdət Sezer</i> | 16 may 2000              | 28 avgust 2007       | <i>Sud hokimiyati</i>                 |
| 6 | <i>Abdulla Gul</i>        | 28 avgust 2007           | 2007–.....           | <i>Adolat va Taraqqiyot partiyasi</i> |

**Turli yillarda ayollarning parlamentdagi ishtiroki**

*Jadval №3*

| Saylov yili | Umumiy deputatlar mandat | Ayol deputatlar soni | Miqdor foiz % hisobida |
|-------------|--------------------------|----------------------|------------------------|
| 1935        | 395                      | 18                   | 4.6                    |
| 1943        | 435                      | 16                   | 3.7                    |
| 1950        | 487                      | 3                    | 0.6                    |
| 1957        | 610                      | 7                    | 1.1                    |
| 1965        | 450                      | 8                    | 1.8                    |
| 1973        | 450                      | 6                    | 1.39                   |
| 1991        | 450                      | 8                    | 1.8                    |
| 1999        | 550                      | 22                   | 4.0                    |
| 2002        | 550                      | 24                   | 4.4                    |
| 2007        | 550                      | 50                   | 9.1                    |

**Refah partiyasini saylovdagi natijalari***Jadval №4*

| Siyosiy partiyalar        | 1991 yil.                 |                           | 1995 yil                  |                           |
|---------------------------|---------------------------|---------------------------|---------------------------|---------------------------|
|                           | Saylovlarda ko`rsatkich % | Parlamentda o`rinlar soni | Saylovlarda ko`rsatkich % | Parlamentda o`rinlar soni |
| Refah partiyasi           | 16.9                      | 62                        | 21.4                      | 158                       |
| To`g`ri Yo`l partiyasi    | 27                        | 178                       | 19.2                      | 135                       |
| Anavatan partiyasi        | 24                        | 115                       | 19.7                      | 132                       |
| Demokratik so`l partiya   | 10.8                      | 7                         | 14.6                      | 76                        |
| Xalq Respublika partiyasi | 20.8                      | 88                        | 10.7                      | 49                        |

**Aholini savodlilik darajasi (1997–2010)***Jadval №5*

| Yillar   | 1997 | 2000 | 2003 | 2006 | 2008 | 2010  |
|----------|------|------|------|------|------|-------|
| Ayollar  | 76.9 | 78.3 | 81.1 | 80.4 | 81.6 | 90.13 |
| Erkaklar | 93.9 | 94.5 | 95.7 | 96   | 89.7 | 97.79 |
| Umumiy   | 85.3 | 86.4 | 88.3 | 88.1 | 85.7 | 92    |

## Foydalanilgan adabiyotlar

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari:**

- 1.1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 326 b.
- 1.2. Karimov I. A. Tarixiy hotirasiz–kelajak yo`q. – Toshkent: Sharq, 1998.– 31 b.
- 1.3. Karimov I. A. Biz tanlagan yo`l – demokratik taraqqiyot va ma`rifiy dunyo bilan hamkorlik yo`li. 11-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2003. – 198 b.
- 1.4. Karimov I. A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o`z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog`liq. – Toshkent: O'zbekiston, 2004. –152 b.
- 1.5. Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat–yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008. – 176 b.
- 1.6. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. –326.b.
- 1.7. Karimov I. A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – 376 b.

### **II. Asosiy adabiyotlar:**

- 2.1. Абдураззакова. М. «Политика лаицизма в Турции: история и современность» – Ташкент: 2007. –154. с
- 2.2. Ely Karmon. Radical islamic political groups in Turkey. –London: Published by MERIA. Vol.7. Dec. 4. 1997. – 204. p.
- 2.3. Gulalp H. Political Islam in Turkey: The Rise and Fall of the Welfare Party // Muslim World, Vol.89, No.1, January 1999. – 250. p.

- 2.4. Gulalp, H. The Poverty of Democracy in Turkey: The Refah Party Episode // *New Perspectives on Turkey*. 1999. – No. 21, Fall. – 193 p.
- 2.5. Harry W. Kushner. Turkish Hezbollah. *Encyclopedia of Terrorism*, – London: Sage Publications Inc, 1993. – 846. p.
- 2.6. Kalaycioğlu, Ersin. Elections and Party Prefences in Turkey: Changes and Continuties in the 1990's. – Preston: Comperative Political Studies, C:27, – No:3, sep. 1994. – 210. p.
- 2.7. Margulies, R., Yildizoglu, E. The Resurgence of Islam and the Welfare Party in Turkey // *Political Islam: Essays from Middle East Report*. Univ. of California Press, 1996. – 153. p.
- 2.8. Yavuz M.H. Political Islam and the Welfare (Refah) Party in Turkey // *Comporative Politics*, Vol.30, No.1, October 1997. – 156. p.
- 2.9. Аватков В. А. «Турецкая демократизация в 90–е – ключ к сегодняшней исламизации Турции» // *Ближний Восток и современность*. – № 45. 2012. – 45. с.
- 2.10. Алекперов Р. «Роль ислама во внутренней и внешней политике Турции после второй мировой войны» // [www Moscov Lomonosov University.com](http://www.MoscowLomonosovUniversity.com)
- 2.11. Алиев, С.М. «Современное исламское возрождение и его особенности» (на примере Афганистана, Ирана и Турции) // *Ислам и политика*. – Москва: 2001. – 374. с.
- 2.12. Данилов, В. И. «Турция 80-х: от военного режима до «ограниченной демократии». – Москва: 1991. – 324.с.
- 2.13. Дружиловский С. Б. «Турецкая Республика в 80–90 годы». – Москва: Наука, 1998. – 410. с.
- 2.14. Дружиловский, С. Б. «О теории и практике исламского правления в странах Среднего Востока» (Иран, Афганистан, Турция) // *Ислам и политика (взаимодействие ислама и политики в странах Ближнего и Среднего Востока, на Кавказе и в Центральной Азии)*. – Москва: Институт востоковедения РАН, Крафт+, 2001. – 425. с.

- 2.15. Дружиловский, С.Б. «Исламская модель развития» // Мусульманские страны у границ СНГ (Афганистан, Пакистан, Иран и Турция – современное состояние, история и перспективы). – Москва: Институт востоковедения РАН, издательство Крафт+, 2002. – 114. с.
- 2.16. Кондокчян Р. «Турция: внутренняя политика и ислам» – Ереван, Микоян, 1983. – 156. с.
- 2.17. Куртов А. ведущий эксперт Аналитического центра «Слава России». АиФ. – № 12. 2000.

### **III. Qo`shimcha adabiyotlar:**

- 3.1. Akşin Sina. Türkiye Tarihi–Çağdaş Türkiye. – İstanbul: Can Yayınları, 2000. – 34. s.
- 3.2. Aydın Kemal. Batıda Tolerans Fikrinin Doğuşu ve Gelişimi. –İstanbul: Lamela, 1959. – 223. s.
- 3.3. Bayramoğlu Ali. Türkiye’de İslami Hareket. 1.baskı. – İstanbul: Patika yayıncılık, 2001. – 87.s.
- 3.4. Beyza Bilgin. Türkiye’de Din Eğitimi ve Liselerde Din Dersleri. – Ankara: Hepis, 1980. – 97.s.
- 3.5. Bihter S., Bülent K. Türkiye’de Kadının Toplumsal Cinsiyet Rollerine İlişkin Üniversite Öğrencilerinin Tutumları [Attitudes of University Students relation to Gender Roles of Women in Turkey]. Kadın Çalışmalarında Disiplinler arası Buluşma Sempozyumu. – Antalya: Mardin., 2004. – 14.s.
- 3.6. Bila Hikmet. CHP. – İstanbul: Doğan Kitap,1999. – 93.s.
- 3.7. Çakır Ruşen. Ayet ve Slogan Türkiye’de İslami Oluşumlar. 9.baskı. – İstanbul: Metis yayınları, 2001. – 468.s.
- 3.8. Çalışlar Oral. İslamiyet Üzerine Şöyleşiler. 1.baskı. – İstanbul: AFA yayıncılık, 1996. – 354.s.

- 3.9. Duman Doğan. Demokrasi Sürecinde Türkiye’de İslamcılık . 2.baskı. – İzmir: Dokuz Eylül Yayınları, 1999. – 321.s.
- 3.10. Ergun Özbudun. Contemporary Turkish Politics Challenges to Democratic Consolidation, – London: Lynne Rienner., 2000. – 123.p.
- 3.11. German Marshall. Transatlantic Trends: Key Findings. – Washington, D.C: Fund of the United States, 2007. – 87.p.
- 3.12. Gülay T. Türkiye’de Kadın İstihdamı Raporu [Women Employment Report in Turkey]. – Ankara: ILO Türkiye Direktörlüğü, 1992. – 46.s.
- 3.13. Hanehalkı İşgücü İstatistikleri [Household Labour Istatistics]. –Ankara: TÜİK, 1998. – 45.s.
- 3.14. Hikmet Bayur. Laiklik, “Laiklik-I”. – İstanbul: Berrak,1954. – 65.s.
- 3.15. Hüseyin Batuhan. Laiklik ve Dinî Taassup. – İstanbul: Asya, 1954. – 169.s.
- 3.16. İlhan Başgöz. E. Howard Wilson. Türkiye Cumhuriyetinde Eğitim ve Atatürk. – Ankara: Vakıf, 1968. – 356.s.
- 3.17. Kirişçi Kemal. Winrow Garet. The Kurdish Question and Turkey: An Example of a Trans-State Ethnic Conflict. – London: Frank Cass, 1997. – 65.p.
- 3.18. Kurtoğlu Zerrin. İslam Düşüncesinin Siyasal Ufku. 1.baskı. – İstanbul: İletişim yayınları, 1996. – 46.s.
- 3.19. Metin Heper and Ahmet Evin. The State, Politics and Religion in Turkey, in State, Democracy and the Military. Turkey in the 1980s. – Berlin/New York: Walter de Gruyter, 1988. – 87.p.
- 3.20. Nevzat Ayaz. Türkiye Cumhuriyeti Millî Eğitimi. – Ankara: Maarif Vekaleti Yayını, 1948. – 89.s.
- 3.21. Nimet Arsan. Atatürk’ün Söylev ve Demeçleri. İkinci Baskı. – Ankara: İnkılâp Tarihi Enstitüsü Yayını, 1961. – 69.s.
- 3.22. Said Arjomand. Politicization of Islam in a Secular State, From Nationalism to Revolutionary Islam. – London: Macmillan, 1984, – 119-133. p.

- 3.23. Şevket Süreyya Eydemir. – İstanbul: Tek Adanı–III, Altıncı Baskı, 1978. – 44.s.
- 3.24. Toktaş Şule. Perceptions of Anti–Semitism Among Turkish Jews. – İzmir: Turkish Studies, Vol. 7, – No. 2, June 2006. – 74.p.
- 3.25. Toprak Binnaz. Islam and Democracy in Turkey. – Lebanon: Turkish Studies, Vol.6, No.2, June 2005. – 36.p.
- 3.26. Tosun Tanju. The July 22 Elections: A Chart for the Future of Turkish Politics. – İstanbul: Private View, – No. 12, Autumn 2007. – 654.p.
- 3.27. Turan İlter. Turkey Watch/Politics: Uncertainties of Turkish Politics. – İstanbul: Private View, – No.12, Autumn 2007. – 98.p.
- 3.28. Turkish Constitution (Turkish). – Ankara: Chankaya, February 28, 2008. – 124.p.
- 3.29. Ucer Murat. Turkey Watch/Economics: Well Done! But Now What?– İstanbul: Private View, No. 12, Autumn 2007. – 66.p.
- 3.30. W. Barthold. M. Fuat Köprülü. İslam Medeniyeti Tarihi. – İstanbul: Anayasa, 1940. – 364.s.
- 3.31. Yahya Akyüz. Türk Eğitim Tarihi. – İstanbul: Kültür Koleji Yayını, 1994. 554.s.
- 3.32. Zeki Duman. Türkiye’de Liberal–Muhafazakâr Siyaset ve Turgut Özal. – Trabzon: İlyali., 2001. – 78.s.
- 3.33. Ziya Bursalıoğlu. Okul Yönetiminde Yeni Yapı ve Davranış. – Ankara: A.Ü.E.F Yayını, 1999. – 88.s.

#### **IV. Davriy matbuot nashrlari:**

- 4.1. Turkish Weekly // Turkish Hezbollah (Hizbullah) / Kurdish Hezbollah, – №14. 2003.
- 4.2. Eurasia Daily Monitor // Turkish Police No Nearer to Solving Attempted Ankara Bombing Vol. 4, Issue 172, September 18, 2007.
- 4.3. The Probe // Turkey irked by Gaza offensive but not prompted to reverse ties to Israel, May 30, 2004.

- 4.4. Toplum ve Bilim Dergisi // Gülten, K. "Türkiye'de Kadın Eğitimi ve Kadın Çalışması [Women Education and Working in Turkey]., 5, (2011).
- 4.5. Arab News // Top Turkish General Warns of Islamist Threat, September 26, 2006.
- 4.6. Eurasia Daily Monitor // Turkey Refuses to Back Down on Iran Energy Deal. Vol. 4, – No. 157, August 16, 2007.
- 4.7. Eurasianet // Turkey: Religious Minorities Watch Closely as Election Day Approaches. – July 19, 2007. – 36.p.
- 4.8. Киреев, Н.Г. «К оценке религиозной ситуации в Турции в 90–е годы» // Ислам и политика (взаимодействие ислама и политики в странах Ближнего и Среднего Востока, на Кавказе и в Центральной Азии). – Москва: 2001. – 165.с
- 4.9. Aras B., Caha O. Fethullah Gulen and His Liberal «Turkish Islam» Movement // Middle East Review of International Affairs. – London: 2000. Vol. 4, – No. 4, December. – 231.p.
- 4.10. Уразова, Е. И. «К оценке роли исламских идей и капиталов в турецкой экономике» // Ближний Восток и современность. Выпуск 9. – Москва, 2000. – 141. с.
- 4.11. Уразова, Е. И. «Экономические взгляды и практика исламистов в Турции» // Ислам и политика (взаимодействие ислама и политики в странах Ближнего и Среднего Востока, на Кавказе и в Центральной Азии). – Москва: 2001. 120.с.
- 4.12. The Guardian // Turkish Islamists aim for power, November 27, 1995.
- 4.13. Cumhuriyet // Report of a parliamentary commission /–№33. 2 February. 2000.
- 4.14. Ü. Eğitim Bilimleri Fakültesi Dergisi // 37, 1,. Hanehalkı İşgücü İstatistikleri [Household Labour Istatistics]. – Ankara: TÜİK, 2011.
- 4.15. Vatan // Türkiye'ye daha büyük kotuluk yapılamazdı. January 20, 2007.
- 4.16. Turkish Daily News // April 21, 2006.
- 4.17. Radikal // 20 milyon mark hangi siyasi partiye gitti? November 4, 2006.

### **V. Internet manbalari:**

- 5.1. <http://cdy.sagepub.com/cgi/content/abstract/17/2/107>
- 5.2. <http://Radikal.com.tr>. Radikal-online/Türkiye/Türkiye'deki islamci kuruluş ve örgütler. Retrieved on 2011.
- 5.3. <http://www.agnostik.org/13221-turkiyede-din-siyaset-ve-cinsiyet-esitligi.html>.
- 5.4. <http://www.bilkent.edu.tr/oozel/osmanli.doc>
- 5.5. <http://www.eurasianet.org/departments/insight/articles/shtml>
- 5.6. <http://www.google.com.tr/Political-islam-in-Turkey/.htm>
- 5.7. <http://www.kurdishcenter.ru/index.php?option>
- 5.8. <http://www.musiad.org.tr/yayinlarRaporlar/detay.asp?yayinRapor>.
- 5.9. [http://www.rand.org/Angel\\_Rabasa,\\_F.\\_Stephen\\_Larrabee\\_The\\_Rise\\_of\\_Political\\_Islam\\_in\\_Turkey.\\_2008](http://www.rand.org/Angel_Rabasa,_F._Stephen_Larrabee_The_Rise_of_Political_Islam_in_Turkey._2008).
- 5.10. [http://www.solmeclis.net/sm\\_izrap\\_medya\\_01.htm](http://www.solmeclis.net/sm_izrap_medya_01.htm)
- 5.11. <http://www.tbmm.gov.tr/anayasa.htm>–1982–yil Türkiye anayasa.
- 5.12. [http://www.terrorism.com/The\\_Terrorism\\_Research\\_Center/Turkish\\_Hezbollah\(2003\)](http://www.terrorism.com/The_Terrorism_Research_Center/Turkish_Hezbollah(2003))
- 5.13. <http://www.tiyatro.com/index.php/80li-yillarda-turkiyede-sanat-makale>
- 5.14. <http://www.ucansupurge.org/index.php>
- 5.15. [http://www.wikipedia.org/Political\\_Islam\\_in\\_Power:\\_The\\_Welfare\\_Interlude/mht](http://www.wikipedia.org/Political_Islam_in_Power:_The_Welfare_Interlude/mht).
- 5.16. Türk tarih kurumu arsivi <http://www.ttk.com.tr/php?index.htm>
- 5.17. [http://www.belgenet.com.tr/kanun\\_tasarıları](http://www.belgenet.com.tr/kanun_tasarıları)  
[http://www.cankaya.com.tr/Turkiye\\_Cumhurbaskani\\_hakkında\\_bilgiler](http://www.cankaya.com.tr/Turkiye_Cumhurbaskani_hakkında_bilgiler).